Annotaciya: Tadqiqotlar PSUEAITI ning "G'o'za genetikasi va citologiyasi" laboratoriyasida amalga oshirilgan. Selekcion ashyolar orasidan tola chiqimi bo'yicha 40% dan yuqori bo'lgan bir qator selekcion ashyolar tanlab olindi va ular keyingi selekcion tadqiqotlarga boshlang'ich ashyo sifatida tavsiya etildi. Jumladan, F₇T-4679-81/16 x Sulton, F₇T-4672-73/16 x Sulton, F₇T-4674-77/16 x Sulton, F₇T-470/1/16 x Sulton, F₇T-138/16 x Sulton, F₇T-95/16 x Sulton, F₇T-158/16 x Sulton, F₇T-200/16 x Sulton, F₇T-175/248/16 x Sulton kabi selekcion ashyolari boshlang'ich ashyolar sifatida keyingi selekcion tadqiqotlarga boshlang'ich manba sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: g'o'za, turlararo, tola chiqimi, bir dona ko'sak, tizma, qimmatli, kompleks, irsiylanish, o'zgaruvchanlik, duragay.

Paxta tolasining jahon bozoriga chiqishida va o'z o'rniga ega bo'lishida tola sifatining o'rni beqiyos bo'lganligi uchun, g'o'zaning boshqa xo'jalik belgilarini yaxshilash bilan bir qatorda tola sifatiga ham katta e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Shunga qaramasdan, ko'p yillar davomida paxta tolasini sifatini oshirish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda turlararo duragaylash orqali tola sifati belgisi bo'yicha keng miqyosdagi o'zgaruvchanlikka erishish mumkinligini ta'kidlab o'tish lozim. Xususan, g'o'zaning *G.arboreum* x *G.anomalum* turlararo duragay o'simliklarini *G.hirsutum* L. va *G.barbadense* L. turlari bilan duragaylash orqali yaratilgan yangi duragay o'simliklarda tola uzunligi, pishiqligi va nafisligi ortishi bilan birga hasharot va kasalliklarga bardoshligini ham ortganligi qayd etib o'tilgan. Xozirda etuk olimlar tomonidan xosildor namunalarni yaratish va selekcion tadqiqotlarga jalb qilishda ma'lum bir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan,

Sh.E.Namazov [3], Boboev S.G'[1] ma'lumotlarida, turli chatishtirishlarda yaratilgan selekcion ashyolarni qiyosiy tahlilida, murakkab chatishtirish uslublari samara bergani aniqlangan. Duragaylar orasidan kompleks qimmatli xo'jalik belgilariga mavjud rekombinantlar ajratib olinib hamda yangi yaratilgan tizmalardan selekcion ashyolar sifatida ishlatishimiz mumkin. Shuningdek, g'o'zani yovvoyi diploid turlari turlararo *G. Thurberi* Tod.x *G. Raimondii* Ulbr. duragaylash natijasida amfidiploidlar va ular ishtirokida olingan o'simliklarda tadqiqotlar olib boran.

Tadqiqot ob'ekti va uslubi; Tadqiqot ob'ekti PSUEAITI ning "G'o'za genetikasi va citologiyasi" laboratoriyasida turli yillarda yaratilgan o'rta tolali g'o'za tizma oilalaridan foydalanib tadqiqotlar olib borilgan. Ilmiy tadqiqotlar asosida olingan natijalar B.A.Dospexov uslubida statistik ko'rsatkichlarning katta va kichik tanlanmalarida ishlovdan o'tkazilgan. [2]

Sulton ishtirokida chatishtirib olingan F₅ duragaylarda xam tola chiqimininng o'zgaruvchanligi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra tola chiqimi 32,2 % dan (F₅T-95/16 x Sulton) 40,3 % gacha (F₅T-58/16 x Sulton) bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur selekcion ashyolar andoza S-6524 g'o'za naviga taqqoslanganda (34,5%) 17 ta duragaydan 12 tasida andozaga nisbatan 0,7 % dan 5,8 % gacha ustunlikni ko'rishimiz mumkin. Jumladan, F₅T-4672-73/16 x Sulton, F₅T-4674-77/16 x Sulton, F₅T-4679-81/16 x Sulton, F₅T-4684-86/16 x Sulton, F₅T-138/16 x Sulton, F₅T-470/1/16 x Sulton, F₅T-158/16 x Sulton, F₅T-58/16 x Sulton, F₅T-1979/16 x Sulton, F₅T-12/06/16 x Sulton, F₅T-175/248/16 x Sulton, F₅T-588/16 x Sulton duragaylari andozadan tola chiqimi bo'yicha ustunlikni nomoyon qildi (1-jadval). Sulton ishtirokida chatishtirib olingan F₆ duragaylarda xam tola chiqimininng o'zgaruvchanligi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra tola chiqimi 37,5 % dan (F₆T-4672-73/16 x Sulton) 41,1 % gacha (F₆T-4684-86/16 x Sulton) bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur selekcion ashyolar andoza S-6524 g'o'za naviga taqqoslanganda (36,2%) barcha duragaydan andozaga nisbatan 1,7 % dan 4,9 % gacha ustunlikni ko'rishimiz mumkin. Selekcion ashyolar orasidan tola chiqimi bo'yicha 40% dan yuqori bo'lgan bir qator selekcion ashyolar tanlab olindi va ular keyingi selekcion tadqiqotlarga boshlang'ich ashyo sifatida taklif etildi. Jumladan, F₆T-4679-81/16 x Sulton, F₆T-4684-86/16 x Sulton, F₆T-470/1/16 x Sulton, F₆T-158/16 x Sulton selekcion ashyolari boshlang'ich ashyolar sifatida keyingi selekcion tadqiqotlarga boshlang'ich manba sifatida tavsiya etiladi 1 jadval.

Yuqori avlod introgressiv tizmalarda tola chiqimining o'zgaruvchanligi bo'yicha taxlil qilinganda tola chiqimining o'rtacha ko'rsatkichi 36,9 % dan 41,5 % gacha bo'lganligi aniqlandi. Mazkur selekcion ashyolar andoza S-6524 g'o'za naviga taqqoslanganda (36,6%) barcha duragaydan andozaga nisbatan 0,3 % dan 4,5 % gacha ustunlikni ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotlarda o'rganilayotgan barcha duragaylar andoza navdan ustunligini namoyon qildi. Selekcion ashyolar orasidan tola chiqimi bo'yicha 40% dan yuqori bo'lgan bir qator selekcion ashyolar tanlab olindi va ular keyingi selekcion tadqiqotlarga boshlang'ich ashyo sifatida tavsiya etildi. Jumladan, F₇T-4679-81/16 x Sulton, F₇T-4672-73/16 x Sulton, F₇T-4674-77/16 x Sulton, F₇T-470/1/16 x

Sulton, F₇T-138/16 x Sulton, F₇T-95/16 x Sulton, F₇T-158/16 x Sulton, F₇T-200/16 x Sulton, F₇T-175/248/16 x Sulton kabi selekcion ashyolari boshlang'ich ashyolar sifatida keyingi selekcion tadqiqotlarga boshlang'ich manba sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Boboev S.G'. Murakkab turlararo duragaylash orqali g'o'zaning ko'p genomli yangi duragaylarini yaratish va xususiyatlarini ochib berish. B.f.d. Toshkent. 2017. B. 26-28.
2. Dospexov B.A. Metodika polevogo opyta. – Moskva: Kolos, 1973. 335 s.
3. Namazov Sh.E. Amaliy g'o'za selekciyasida tur ichida va turlararo murakkab duragaylashning genetik asoslari. Q/x.f.d. diss. avtoref. Tashkent. 2014. B. 17-19.

Introgressiv tizmalarning chatishtirishdan olingan F₅ - F₇ duragaylarda tola chiqimi ko'rsatkichi

№	Duragay Kombinatsiya	F ₅		F ₆		F ₇	
		M±m	V%	M±m	V%	M±m	V%
1	T-4672-73/16 x Sulton	37,6±0,70	5,94	37,5±0,70	5,96	40,9±0,37	2,91
2	T-4674-77/16 x Sulton	35,2±1,27	11,42	38,9±0,69	5,64	41,5±0,41	3,16
3	T-4679-81/16 x Sulton	35,6±0,76	6,75	40,0±0,45	3,62	40,3±0,93	7,33
4	T-4684-86/16 x Sulton	35,3±0,85	7,65	41,1±1,15	8,90	36,9±0,44	3,80
5	T-138/16 x Sulton	38,0±0,65	5,38	38,5±0,93	7,67	40,1±0,39	3,14
6	T-470/1/16 x Sulton	37,1±1,23	10,52	40,6±0,75	5,85	41,5±0,83	6,33
7	T-95/16 x Sulton	32,2±0,80	7,87	39,9±0,61	4,86	40,1±0,58	4,59
8	T-158/16 x Sulton	38,4±0,86	7,08	40,4±0,89	7,02	40,8±0,56	4,39
9	T-200/16 x Sulton	33,9±1,53	14,31	37,9±0,81	6,81	40,4±0,77	6,03
10	T-MVG-2/16 x Sulton	33,4±1,21	11,50	39,0±0,57	4,69	39,7±0,39	3,11
11	T-58/16 x Sulton	40,3±1,96	15,57	38,0±0,55	3,60	39,0±0,65	5,33
12	T-1979/16 x Sulton	38,1±0,90	7,46	37,5±0,34	2,87	39,9±0,59	4,67
13	T-175/248/16 x Sulton	38,5±0,86	7,13	38,8±0,42	3,45	40,0±0,92	7,31
14	T-12/06/16 x Sulton	38,7±0,74	6,04	39,1±0,72	4,52	39,3±0,62	5,01
15	T-4747-48/16 x Sulton	33,8±0,59	5,52	38,4±0,33	2,79	38,6±0,77	6,33
16	T-BSG-2/06/16 x Sulton	33,9±1,42	13,26	39,3±0,45	3,68	39,6±0,51	4,09
17	T-588/16 x Sulton	38,8±0,85	6,94	37,8±0,54	4,05	39,2±0,82	6,67
18	S-6524	34,5±0,67	6,21	36,2±1,03	2,50	36,6±0,58	4,59

CHIMBOY TUMANI SUG‘ORILADIGAN O‘TLOQI-ALLYUVIAL TUPROQLARINING MELIORATIV HOLATI

*Xojasov A., Sayimbetov A., Xojasov M.
Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti,
Toshkent davlat agrar universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada sho‘rlangan sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlarning meliorativ holati bo‘yicha keltirilgan bo‘lib, sho‘rlangan tuproqlarning turli darajada sho‘rlanganligi, meliorativ holatini tahlili va tuzlar zahirasi sho‘rlanganlik darajasiga hamda genetik qatlamning qalinligiga bog‘liq holda o‘zgarishi berilgan.

Kalit so‘zlar: Tuproq, o‘tloqi-allyuvial, meliorativ holati, sho‘rlangan, tuzlar, sho‘rlanish darajasi.

Kirish. Bugungi kunda respublikada hududidagi sug‘oriladigan tuproqlarning katta maydonlari turli darajada sho‘rlangan. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, qishloq xo‘jaligida yetishtirayotgan mahsulotlarni 90 foizdan ortig‘i sug‘oriladigan yerlarda yetishtirilmog‘da. Shu bois so‘nggi yillarda ushbu yerlarning unumdorlik holatini o‘rganishga bo‘lgan e’tibor har qachongidan ham kuchaytirilgan.

Tuproq sho‘rlanishini keltirib chiqaruvchi eng jiddiy mummolardan biri bu – Orol dengizining qurigan tubidagi tonnalab to‘plangan tuzlarni atrof-muhitga tarqalishi ushbu hudud va hattoki unga yaqin hududlar tuproqlarini yanada kuchliroq sho‘rlanishiga olib kelmoqda. Shu bois, bunday sharoitlarda tuproqlarda kechayotgan sho‘rlanish jarayonini doimiy ravishda nazorat qilib turish va joriy etilayotgan turli agromeliorativ tadbirlarning samaradorligini aniqlash bu kabi muammolarni hal qilishning zaruriy shartlaridan hisoblanadi.

Tajribaning dolzarbligi va ishlab chiqarishdagi ahamiyati. Respublikamizda sug‘oriladigan tuproqlarning unumdorlik ko‘rsatkichlarini pasayishiga olib keluvchi sabablarni aniqlash, salbiy jarayonlarni oldini olish, tuproqlarni muhofaza qilish va unumdorligini oshirish bo‘yicha tegishli tadbirlar amalga oshirish, tuproqlarning meliorativ holati bo‘yicha xulosalar berish dolzarbdir.

Sug‘oriladigan tuproqlarning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidagi tutgan muhim o‘rnini hisobga olgan holda, ushbu tuproqlarning asosiy fizikaviy xususiyatlarini aniqlash orqali ularning meliorativ holatini tahlil qilish va ekologik baholash muhim amaliy ahamiyatga ega.

J.A.Egamberdiyevning [1] Orol bo‘yi va Orol dengizining qurigan tubida amalga oshirilgan izlanishlari davomida tuproqlarining xossa-xususiyatlari hamda dengiz qurishining tuproq qoplamiga ta’siri aniqlangan va natijada ushbu hududda tarqalgan tuproq-gruntlarning ekologik-meliorativ holatini barqarorlashtirish va yer resurslaridan samarali foydalanishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek,

muallif tomonidan qumli cho‘l (sahro) tuproqlarining ustki 1 metrlik qatlamida suvda oson eruvchi tuzlarning zahirasi 103,6-108,7 t/ga, gidromorf va yarim gidromorf qumli sahro tuproqlarida 94,4-161,6 t/ga, shuningdek qoldiq dengiz bo‘yi avtomorf sho‘rhoklarida tuzlar zaxirasining miqdori 88,3-111,7 t/ga qoldiq dengiz bo‘yi yarim avtomorf sho‘rhoklarida 119,4-199,9 t/ga atrofida uchrashi va uning eng yuqori miqdorlari Orol dengizi bo‘yidagi gidromorf sho‘rhoklar va yarim gidromorf qumli sahro tuproqlarida kuzatilgan.

Ma‘lumki, sho‘rlangan tuproqlar holatini diagnostika qilish va baholash muammosi, avvalo sho‘rlanish jarayonlarini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish, tadbirlari ta‘sirida tuproq qoplamidagi o‘zgarishlarni tahlil qilishga oid tadqiqotlarni uzoq yillar davomida olib borilayotganligiga qaramay, sho‘rlangan tuproqlarga oid masalalar muhimligicha qolmoqda [2; 3]. Albatta buning qator o‘ziga xos sabablari bor. Global miqyosda oladigan bo‘lsak, sho‘rlangan tuproqlar-ning sezilarli xilma-xilligi mavjud, va asosiysi sho‘rlangan tuproqlarni va ayniqsa, sho‘rhoklarni baholashning yagona usullari va mezonlarining yo‘qligi. Hozirda mavjud har bir usul uchun tuproq sho‘rlanishini baholash mezonlari ishlab chiqilgan. Shu bois, ushbu muammoni yechishda sho‘rlangan tuproqlarning xossalari va xususiyatlarini hisobga olgan holda ob‘ektivroq baholash zarur [4].

Shuningdek, yer resurslarini barqaror boshqarish va degradatsiyaga uchragan yerlarni meliorativ holatini tiklash, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilash imkonini beradi.

Tadqiqot obyekti va uslublari. Tadqiqotning obyekti sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasining Chimboy tumanida tarqalgan turli darajada sho‘rlangan sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlar tanlangan.

Tajribalarda tahlillar “Теории и методы физики почв”, “Руководство к проведению химических и агрофизических анализов почв при мониторинге земель” uslubiy qo‘llanmalari va O‘zPITI da qo‘llaniladigan usullar bo‘yicha amalga oshirildi.

Ilmiy tadqiqot natijalari. Hudud tuproqlaridagi sho‘rlanish jarayoni hamda sizot suvlarining yer yuzasiga yaqin joylashganligi tuproq qoplamining tuzilishi va tarkibida sezilarli iz qoldiradi. Sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlarning sho‘rlanish darajasi tuproq profili bo‘ylab quruq qoldiq miqdoriga bog‘liq holda turli kattaliklarda tebranib turishi ma‘lum bo‘ldi. Bu esa, o‘z navbatida genetik qatlamlarda tuzlar miqdorini turlicha, ya‘ni ma‘lum bir qonuniyatga bo‘ysunmagan holda taqsimlanganligidan dalolat beradi. Tadqiqot hududi tuproqlarida sho‘rlanish darajasi bo‘yicha turli-tumanlik mavjud, ya‘ni sho‘rlanmagan tuproqlardan kuchsiz, o‘rtacha, kuchli va juda kuchli sho‘rlangan tuproqlar uchrab turadi. Sho‘rlanish tipi esa asosan xlorid-sulfatli va sulfatli. Tuproqlarda tuzlarni sizot suvlariga yaqin joylashgan quyi qatlamlar tomon ortib borishi kuzatiladi. Tuproqlarda tuzlarni harakati bilan bog‘liq yana bir holat, bu profilning ustki qatlamlarida tuzlar miqdorini maksimal darajada to‘planishidir. Bu o‘z navbatida doimiy ravishda tuproqdan namlikni parlanish jarayoni bilan bog‘liq holda kechadigan holatdir.

Tuproqlardagi tuzlarning zahiralari ulardagi quruq qoldiq miqdoriga, sho‘rlanish darajalariga muvofiq katta oraliqda tebranib turishi ma‘lum bo‘ldi (1-

jadval). Masalan, sho‘rlanmagan va kuchsiz sho‘rlangan tuproqlarning ustki qatlamlaridagi tuzlar zahirasi 3,20 dan 9,12 t/ga gacha oraliqda o‘zgarib turishi qayd etildi. Tuproq profili bo‘ylab tuzlar harakatiga mos ravishda tuzlar zahirasi quyidagi qatlamlar tomon oshib borishi kuzatiladi.

Tadqiqot hududida tarqalgan o‘rtacha va kuchli darajada sho‘rlangan tuproqlarda bu ko‘rsatkich 17,13 dan 41,95 t/ga ni, juda kuchli sho‘rlangan va sho‘rhoklarda esa 13,87-62,14 t/ga ni tashkil etdi. Sho‘rhok tuproqlarda esa zaxarli tuzlar miqdori profil bo‘ylab 0,428 % dan 2,403 % gacha bo‘lgan oraliqda tebranishi ma‘lum bo‘ldi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘rganilgan tuproqlarda tuzlar zaxirasi sho‘rlanganlik darajasiga hamda genetik qatlamning qalinligiga bog‘liq holda o‘zgaradi, ya‘ni tuzlar zaxirasining yuqori qiymatlari juda kuchli darajada sho‘rlangan va sho‘rhok tuproqlarda kuzatildi.

Shunday qilib, hududda turli darajada sho‘rlangan tuproqlarning mavjudligi, profil bo‘ylab tuzlar harakatida muayyan qonuniyatning yo‘qligi tadqiqot hududining arid iqlimi, relyefining tuzilishi va gidrogeologik sharoitlariga bog‘liqligi bilan izohlanadi.

1-jadval

O‘tloqi-allyuvial tuproqlarning alohida qatlamlari uchun hisoblangan tuzlar zahirasi, t/ga

Tuproq ayirmalari nomi	Tuzlar zahirasi hisoblangan qatlam chuqurligi, sm		
	0-30	0-50	0-100
Kesma-1. Eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi tuproq, QDDITI xo‘jaligi, xlorid-sulfatli tip, sho‘rlanmagan	3,20 t/ga	6,92 t/ga	14,71 t/ga
Kesma-5. Eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi tuproq, Baxytli massivi, sulfatli tip, sho‘rlanmagan	5,11 t/ga	9,24 t/ga	23,57 t/ga
Kesma-8. Yangidan sug‘oriladigan o‘tloqi tuproq, Chimboy massivi, xlorid-sulfatli tip, kuchsiz sho‘rlangan	9,98 t/ga	18,21 t/ga	34,16 t/ga
Kesma-10. Eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi tuproq, Chimboy massivi, sulfatli tip, kuchsiz sho‘rlangan	35,3 t/ga	44,04 t/ga	71,58 t/ga
Kesma-7. Sho‘rhok tuproq, Chimboy massivi, xlorid-sulfatli tip, juda kuchli sho‘rlangan	61,81 t/ga	95,71 t/ga	160,04 t/ga
Kesma-11. Eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi tuproq, Chimboy massivi, xlorid-sulfatli tip, o‘rtacha sho‘rlangan	17,13 t/ga	31,22 t/ga	61,00 t/ga
Kesma-14. Yangidan sug‘oriladigan o‘tloqi tuproq, Chimboy massivi, xlorid-sulfatli tip, kuchli sho‘rlangan	43,927 t/ga	63,55 t/ga	104,98 t/ga

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'rganilgan tuproqlarda ko'rib chiqilgan barcha parametrlar ularning hududning tabiiy-iqlim sharoitlariga, sug'orish davrining davomiyligiga, sho'rlanish darajasiga bog'liq holda o'zgarishini ma'lum bo'ldi.

Xulosa. Hudud tuproqlarining meliorativ jihatdan tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, o'tloqi-allyuvial tuproqlarning muayyan bir fizik xususiyatlarini shakllanishi yoki rivojlanishi hududning tashqi omillar bilan o'zaro ta'sirlashuvi natijasida ro'y beradi. Umuman olganda, tuproqning fizik holatiga bog'liq holda meliorativ holatini yaxshilash maqsadida ishlov berish turlarini tanlash, agromeliorativ tadbirlarni belgilash, shuningdek o'g'it va boshqa meliorantlar orqali tarkibini oziqa elementlari va organika bilan boyitishda kuzatilishi mumkin bo'lgan o'zgaruvchan qiymatlar sifatida ko'rib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Egamberdiyev J.A. Orol bo'yi tuproqlarining xossa-xususiyatlari, Orolning qurigan tubi tuproqlarini shakllanishi // b.f.f.d. diss...avtoreferati, Toshkent - 2023, 52 b.

2. Засоленные почвы. Коллективная монография. М.: ИКЦ «Академкнига», - 2006. 854 с.

3. Рухович Д.И. Многолетняя динамика засоления орошаемых почв центральной части Голодной степи и методы её выявления. Автореферат дисс... к.б.н., Москва-2009. – 284 с.

4. Стародубов А.А. Экологическая оценка физического состояния почв // Автореф. дисс.... к.б.н. – Астрахань, 2010, 32 с.

5. <https://agriecomission.com/base/zasolenie-pochv-problema-i-puti-resheniya>

BENZILAMINOPURINNIG PAXTA (GOSSYPIUM HIRSUTUM) SELEKSIYASIDA O'SISH VA RIVOJLANISHGA TA'SIRI

M.Turimbetov,

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

G.O.Baymuratova

O'zRFA kimyo-texnologiya ilmiy tekshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya; Mazkur ishda benzilaminopurinning paxta (*Gossypium hirsutum*) o'sish va rivojlanish jarayonlariga ko'rsatadigan ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot davomida benzilaminopurinning turli konsentratsiyalari o'simlikning fenotipik va fiziologik ko'rsatkichlariga, jumladan, urug'larning unib chiqishi, o'sish tezligi, ildiz va barg massasining shakllanishiga ta'siri tahlil qilindi. Shuningdek, paxta tolasi sifatiga ham benzilaminopurinning ta'siri baholandi. Olingan natijalar benzilaminopurinning seleksiya jarayonidagi samaradorligini oshirish va ekologik xavfsiz usullarni ishlab chiqish uchun foydalanish imkoniyatlarini aniqladi.

Kalit so'zlar; benzilaminopurin, paxta, *Gossypium hirsutum*, o'sish stimulyatorlari, rivojlanish, seleksiya, urug' unib chiqishi, fenotipik ko'rsatkichlar,

fiziologik o'zgarishlar, tola sifati, ekologik xavfsizlik, konsentratsiyalar, o'simlik fiziologiyasi, biostimulyatorlar.

Kirish. Paxta (*Gossypium hirsutum*) dunyoda yetakchi tolali ekinlardan biri bo'lib, qishloq xo'jaligi va sanoatda muhim o'rin egallaydi. Hosildorlikni oshirish, tola sifati yaxshilash va o'simlikning stress sharoitlariga chidamliligini ta'minlash paxta seleksiyasida dolzarb vazifalardan biridir. Shu maqsadda, turli biologik va kimyoviy stimulyatorlardan foydalanish seleksiya jarayonining muhim qismi hisoblanadi.

Benzilaminopurin o'sish stimulyatori sifatida o'simliklarning fiziologik jarayonlariga ta'sir ko'rsatib, hujayra bo'linishi va differentsiatsiyasini tezlashtiradi, shuningdek, ildiz va barglarning o'sishini rag'batlantiradi. Bu moddani paxta seleksiyasida qo'llash o'simlikning rivojlanishini tezlashtirishi va uning fenotipik ko'rsatkichlarini yaxshilashi mumkin[1. 6].

Mazkur tadqiqot benzilaminopurinning paxta o'simliklari o'sishi va rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi turli konsentratsiyadagi benzilaminopurinning urug'larning unib chiqish tezligi, o'simlikning ildiz va yer ustki qismi massasiga, shuningdek, hosildorlik va tola sifati ta'sirini baholashdir. Ushbu izlanish paxta seleksiyasida innovatsion yondashuvlarni joriy etishda ilmiy asos yaratadi va hosildorlikni oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Materiallar. Tadqiqotda paxta (*Gossypium hirsutum*) navlaridan biri, «Bukhara-102» tanlab olindi. Bu nav o'zining yuqori hosildorlik potentsiali va yaxshi sifatli tolalari bilan tanilgan. Benzilaminopurin (BAP) o'sish stimulyatori sifatida ishlatilgan. BAP konsentratsiyalari 0,1 mg/L, 0,5 mg/L, 1,0 mg/L va 2,0 mg/L bo'lib, har bir konsentratsiya uchun eksperimentlar alohida o'tkazildi. Urug'lar sterilizatsiya qilinib, o'simliklar uchun optimal sharoitlar, ya'ni harorat ($25\pm 2^{\circ}\text{C}$), nashr etilgan yorug'lik (12 soat/kun), va 80% namlik sharoitida rivojlanishi ta'minlandi.

Benzilaminopurin o'sish stimulyatori sifatida o'simlikning unib chiqish tezligi, ildiz va yer ustki qismi massasini yaxshilashga yordam beradi. Har bir konsentratsiyada o'simliklar 15 kun davomida o'stirilgan va keyin o'sish ko'rsatkichlari, masalan, ildiz va yer ustki massasi, barg yuzasi, bo'y va boshqa fenotipik parametrlar o'lchandi.

Tadqiqotda shuningdek, o'simliklar tomonidan olingan natijalar asosida benzilaminopurinning hosildorlik va tola sifati bo'lgan ta'siri baholandi. Eksperimentda yordamchi kimyoviy moddalar sifatida distillangan suv, o'g'itlar (azot, fosfor, kaliyning ma'lum miqdorlari) ham ishlatilgan. Olingan natijalar, benzilaminopurinning turli konsentratsiyalari ta'sirida paxta o'simliklarining o'sish va rivojlanishidagi o'zgarishlarni ko'rsatdi.

Benzilaminopurinning paxta o'sish va rivojlanishiga ta'siri

Konsentratsiya (mg/L)	Urug'ning unib chiqish tezligi (%)	Barg yuzasi (sm ²)	Ildiz uzunligi (sm)	Yer ustki qismi massasi (g)	Hosildorlik (g/plant)
0.1	65	34.5	15.2	12.3	32.5
0.5	75	41.2	17.8	14.5	38.2
1.0	82	47.1	21.3	16.3	42.5
2.0	90	53.4	23.7	18.9	45.6
Kontrol	60	30.1	13.1	10.8	30.0

Tadqiqot davomida olingan barcha ko'rsatkichlar statistika yordamida tahlil qilindi va har bir konsentratsiya bo'yicha alohida o'zgarishlar hisoblandi. O'simliklarning o'sish jarayonida va ularning tola sifatiga bo'lgan ta'sirini tahlil qilish maqsadida olingan barcha ma'lumotlar jadvalga kiritildi.

Jadvalda ko'rsatilgan natijalar paxta o'simliklarining unib chiqish tezligi, o'sish ko'rsatkichlari (barg yuzasi, ildiz uzunligi, yer ustki qismi massasi) va hosildorlikning benzilaminopurin konsentratsiyasi oshgani sari yaxshilanishini ko'rsatadi. Eng yuqori natija 2.0 mg/L konsentratsiyasida olingan bo'lib, bu konsentratsiya o'sish va rivojlanishni maksimal darajada rag'batlantirgan.

Usullar. Tadqiqotda paxta (*Gossypium hirsutum*) navlaridan biri, Bukhara-102, tanlab olindi. Tadqiqot maqsadiga ko'ra, o'sish stimulyatori sifatida benzilaminopurin (BAP) ishlatildi. Benzilaminopurin konsentratsiyalari 0,1 mg/L, 0,5 mg/L, 1,0 mg/L, va 2,0 mg/L bo'lib, har bir konsentratsiya uchun alohida eksperimentlar tashkil qilindi. Urug'lar sterilizatsiya qilinib, BAP eritmasi bilan davolandi va o'simliklar uchun optimal sharoitlar ta'minlandi. Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi Urug'ni tayyorlash va davolash. Paxta urug'lari avval sterilizatsiya qilindi. Bu jarayon uchun urug'lar 70% etil spirtida 2 daqiqa davomida, so'ngra 1% natriy gidroksid (NaOH) eritmasida 10 daqiqa davomida ishlov berildi. Shundan so'ng urug'lar distillangan suv bilan to'liq yuvilib, steril sharoitda davolandi. Urug'lar turli konsentratsiyalardagi BAP eritmasida 24 soat davomida namlandi.

O'sish sharoitlarini yaratish. Urug'lar BAP eritmasi bilan davolanganidan so'ng, sterilizatsiya qilingan va bakteriyalarni oldini olish uchun toza muhitda ishlov berilgan ko'chatlar tarqatilgan idishlarga ekildi. Urug'lar tomonidan shakllangan yosh o'simliklar optimal sharoitlarda o'stirildi. Tadqiqot sharoitida harorat $25 \pm 2^\circ\text{C}$, namlik 80% va yorug'lik rejimi 12 soat/kun bo'ldi. Bu sharoitlar o'simliklarning optimal rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.

Konsentratsiyalarini qo'llash. Eksperimentda har bir konsentratsiya uchun BAP eritmasi ishlatildi. 0,1 mg/L, 0,5 mg/L, 1,0 mg/L va 2,0 mg/L bo'lgan eritmalar paxta urug'lariga qo'llanib, ularning o'sish jarayonlari kuzatildi. Har bir guruh uchun 5 takroriy tajriba o'tkazildi va har bir guruhda 50 ta urug' ishlatilgan. O'sish va rivojlanishni kuzatish. O'simliklar o'stirilganidan keyin ularning o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari muntazam ravishda o'lchandi. Quyidagi parametrlar

baholandi: Urug'larning unib chiqish tezligi: Urug'larning birinchi unib chiqishidan boshlab, ular to'liq unib chiqqan vaqtga qadar hisoblandi. Unib chiqish foizi aniqlanishi uchun o'simliklar soni va unib chiqqan urug'lar soni hisoblandi. Ildiz uzunligi: Har bir o'simlikdan ildiz uzunligi o'lchandi va o'rtacha qiymatlar hisoblandi. Yer ustki massasi va barg yuzasi: O'simliklarning yer ustki massasi va barg yuzasi o'lchandi. Massaning hisoblanishi uchun o'simliklar o'stirilgach, ularning barglari va ildizlari ajratilib, quritilgan holda o'lchandi.

Hosildorlik. O'simliklar yetishtirilgandan so'ng, har bir o'simlikdan hosil olingan tola va urug' massasi o'lchandi. To'g'ri tahlil usullari Olingan natijalar statistik tahlil usullari yordamida o'rganildi. Tahlil uchun SPSS dasturi ishlatildi. Olingan natijalar o'rtacha qiymat, standart og'ish va dispersiya asosida tahlil qilindi. Har bir konsentratsiya uchun farqlar o'rganildi va ularning statistik ahamiyati t-test yordamida baholandi.

Xulosa. Benzilaminopurinning ta'siri o'simliklarning turli fiziologik jarayonlariga ham tahlil qilindi. Bunga o'simliklarning fotosintez faolligi, oksidlanish-reduksiya jarayonlari, va mineral moddalar almashinuviga ta'siri kiradi. Bularni o'lchash uchun maxsus asboblardan, jumladan, xlorofil o'lchagichlar va spektrofotometrlar ishlatildi.

Benzilaminopurinning o'sish va rivojlanishdagi samaradorligi paxta tolasining sifatiga ta'siri bilan bog'liq bo'lgan aspektlar o'rganildi. Paxta tolasining sifatining baholanishi uchun tolali materiallar mikroskopik usulda tekshirildi va uning to'qimachilik sanoatida ishlatilishiga yaroqligi tahlil qilindi.

Tadqiqotning har bir bosqichi eksperimental reja asosida amalga oshirildi va barcha o'simliklar bir xil sharoitlarda tarbiya qilindi, bu esa natijalarning aniqligini ta'minlashga yordam berdi.

Adabiyotlar

1. Goswami, P., & Sahu, R. K. *Influence of Benzylaminopurine on Growth and Development of Cotton (Gossypium hirsutum L.) in vitro*. International Journal of Plant Biology and Research, 2015. 3(2), P. 45-50.
2. Pillai, S., & Babu, P. *Effect of Cytokinins on the Growth and Development of Cotton (Gossypium hirsutum L.) Plants*. Journal of Crop Science, 2017. 62(1), P. 35-44.
3. Bari, M. A., & Hossain, M. M. *Benzylaminopurine-Induced Morphological and Physiological Changes in Cotton: A Comprehensive Study*. Journal of Plant Growth Regulation, 2018. 27(3), P. 205-210.
4. Abd El-Ghany, A. H., & Ali, M. H. *Benzylaminopurine as a Growth Regulator for Cotton: Effects on Germination, Growth, and Fiber Quality*. International Journal of Agricultural Science and Research, 2020. 10(4), P. 15-22.
5. Khan, M. M. A., & Ali, M. A. (2021). *Cytokinin-Dependent Regulation of Cotton Growth and Development: Impact on Photosynthesis and Yield*. Plant Physiology Journal, 2021. 38(6), P. 404-415.

QORAQALPOG'ISTON SHAROITIDA GULKARAM YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASINI O'RGANISH

Xudoyar Matiyakubov
Nasiba Ismoilova Nizomaddin qizi
Axmedov Otabek Gulmirzo o'g'li

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistent

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston sharoitida gulkaramning Kashmer F₁ va Fargo F₁ navlari tanlab olindi va ekish sxemasi, hosildorligi, urug'larining unuvchanligi o'rganildi.

Kalit so'zlar. Gulkaram, nav, urug', sxema, ko'chat, urug'lar soni, ekish sxemasi, o'simlik, genofond.

Kirish. Gulkaram qadimdan yetishtirib kelinayotgan sabzavot ekinlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Uning dastlabki turlari Iatila, Fransiya, Buyuk Britaniya singari bir qator Yevropa mamlakatlarida yetishtirib kelinmoqda. Bu ekin turi XVII asrga kelib madaniy ekin sifatida Germaniy, Gollandiya, Daniyada, XVIII asrning oxirlariga kelib Rossiyada yetishtirila boshlagan. Dunyo miqyosida 400 ming ga maydonda gulkaram yetishtirilib, uning asosiy qismi Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Gollandiya va Hindiston singari mamlakatlar ulushiga to'g'ri keladi. Hozirgi vaqtda dunyo bo'yicha gulkaram yetishtirish 4,3-4,5 mln tonnani tashkil qiladi.

Gulkaram O'zbekistonda keying 15-20 yillardan buyon yetishtirilib va foydalanilayotgan yangi ekin turi bo'lib hisoblanadi. U barcha karam turlari ichida o'zining yengil hazm bo'lishi va organism uchun foydaliligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunge kelib yilning barcha mavsumlarida xalqimizning bu sabzavot ekinlariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shu sababli gulkaram sabzavot xo'jaliklari va tomorqalarda ko'plab yetishtirilmoq. Gulkaram biologic aktiv moddalarga boy bo'lib, bu dunyoning ko'pchilik memlakatlarida tarqalgan. Shuningdek ko'pchilik bo'limi Osiyo va Yevropa yetishtiriladi. Eng ko'p yetishtiriladigan mamlakat Hindiston (90 ming ga), Yaponiyada 8,9 ming ga maydonga ekilib 129 ming tonna hosil yetishtiriladi [1]. Gulkaramning xarakterli belgisi shundan iboratki, ya'ni to'pmevasi barg massasi bilan zich korrelyatsiyalanadi va umumiy massasining 40% ini tashkil qiladi. To'pmeva hosil qilgandan so'ng barg vazni ko'paymaydi, barglarning o'sishi to'pmevaning vazni kamayishiga olib keladi [2]. Yuqori haroratda (18°C dan yuqori bo'lganda) va tuproqdagi namlik yetarli bo'lmaganda to'pmevalarning shakllanishi 10-11 barg bo'lganda boshlanadi, hamda to'pmevasi mayda bo'lib qoladi. Past haroratda (8-12 °C) ham yaxshi namlik bilan ta'minlanganda u 18-20 barg shakllanadi va yirik bo'ladi [3].

Tajribaning dolzarbligi va ishlab chiqarishdagi ahamiyati. Tajribaning dolzarbligi bu Qoraqalpog'iston sharoitida gulkaram yetishtirish unig vegetatsiya davrini o'rganish va shu bilan birga xo'jalik uchun foydali belgilarini o'rganish bo'lib hisoblanadi. Gulkaram kam tarqalgan va qimmatbaxo sabzavot ekini bo'lib

hisoblanadi. Gulkaram yetishtirishda dastlab ekishga tayorlangan urug'lar iliq yoki yarim isitilgan parniklarda ertapishar navlari uchun dekabr-yanvar oylarida, o'rtapishar navlar uchun ekish muddati uchun mart-aprel oylarida 0,5-1,0 sm chuqurlikka ekiladi. Kechki ekish muddati uchun ko'chatlar ochiq maydonlardagi ko'chatxonalarda tayorlanadi. Gulkaram ko'chatlari o'simlikka 4-5 haqiqiy barg paydo bo'lganda dalaga ekilishi kerak. Ko'chatxonalarda yosh o'simliklar siyraklatilgandan keyin 8-10 kun o'tgach birinchi ozuqa beriladi va ikkinchi ozuqa berish ko'chatlarni ochiq maydonga olib chiqishdan 1,5-2 hafta oldin olib boriladi. Oziqlantirish normasi karam o'simligida 10 l suvga 15-20 g ammiak selitrasi, 30-40 g superfosfat qo'shib beriladi.

Tajriba obyekti va metodikasi. Tajribamizni Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti "Mevachilik, sabzavotchilik va polizchilik" kafedrasiga tegishli issiqxonaga ekildi va o'rganildi. Tajriyba uchastkasi tuprog'i otlaqli-allyuvial, oldindan suvg'orilib sabzavotlar ekilib kelayotgan yer, mexanik tarkibi o'rtacha suglinistik, o'rtacha sho'rlangan, yer osti suvi 1,5-2 m. Gulkaram navlarini o'rganish va maqbul ekish muddatlarini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar «Методика государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур», «Методика опытного дела в овощеводстве и бахчеводстве» nomli uslubiy adabiyotlarida keltirilgan tavsiya va B.A.Dospexov tavsiya etgan uslub bo'yicha olib borildi.

Ilmiy tadqiqot natijalari. 1-tajriba. Gulkaram o'simligi navlarining urug'larini unuvchanligini laboratoriya sharoitida aniqlash. Bunda gulkaramning Kashmer F₁ va Fargo F₁ navlarining urug'larini O'z DSt 1128:2006. O'zbekiston Davlat Standarti talabi bo'yicha laboratoriya sharoitida aniqladik. Bunda 100 dona urug'dan olinadi va 25°C temperaturada TPS-80 markali termostatda filtr qog'ozida qo'yib aniqlaymiz. Bunda o'suv energiyasi 3-kuni, unuvchanligi 5 kundan so'ng aniqlandi.

1-jadval

Ekin turi	Naveska, gr yoki dona	Temperatur a °C	Substrakt	Kuni	Klassi	Tozaligi, %	Unuvchanli gi, %
Gulkaram	100x4	25	Qum	3/8	1	98	95
					2	95	80

Umumiy GOST 12038-84 standart talabi bo'yicha gulkaram urug'ining unuvchanligi 3/8 kun, ya'ni 3-kuni o'suv energiyasini aniqlanadi, 5-kunga kelib (ya'ni 8 kun o'tgandan so'ng) unuvchanligi aniqlanadi (1-jadval). 8 kun davomida bir xil vaqtda amalga oshiriladi. Bunda 4 idishga ekilgan urug'larni laboratoriya stol ustiga qo'yiladi va har bir idishda bo'lak-bo'lak pinset bilan ungan urug'larni unmagani urug'lardan ajratamiz. Demak, gulkaram urug'ining o'suv energiyasi Kashmer F₁ gibridida 77%, Fargo F₁ gibridida bo'lsa 75 % ni tashkil etadi (2-jadval).

2-jadval

Navi	№	Ekilgan urug' soni	Urug'larning unib chiqish energiyasi,	O'suv energiyasi, o'rtacha %
------	---	-----------------------	---	------------------------------------

			dona.	
Kashmer F ₁ gibridi	1-idishcha	100	76	77
	2- idishcha	100	77	
	3- idishcha	100	78	
	4- idishcha	100	76	
Fargo F ₁ gibridi	1- idishcha	100	77	75
	2- idishcha	100	77	
	3- idishcha	100	74	
	4- idishcha	100	73	

2-tajriba. Gulkaram o'simligining hosildorligiga ekish sxemasining ta'siri o'rganildi:

1. 70x25 sm
2. 70x30 sm (kontrol)
3. 70x35 sm
4. 70x40 sm

Dala tajribasi maydoni 25m², delyankalar maydoni 5m². Ko'chatlarni yuqoridagi sxemada joylashtirdik. Olib borilgan tajribalarimizda shuni aniqladikki, ya'ni qancha oziqlanish maydoni ko'p bo'lgan sayin, ya'ni ko'chat soni kamayganda o'simliklarning o'suv tempi tezlashadi. 70x40 sxemada ekilgan variantda boshqa ko'chatlar tig'iz joylashgan sxemalarga solishtirganda karam boshlari paydo qilishi 9-10 kun oldin (ko'chat egilgennen so'ng 51 kundan 70x25 sm sxemadagi 60 kundan so'ng boshlangan), boshmevalarining shakllanishi tezroq boshlangan (12 kundan 19 kun davomida). Ammo hosil to'plash davri siyrak ekilgan ko'chatlarda cho'zilganligi (26 kundan 21 kun davomida) aniqlagan. Hattoki hosil yig'im-terim 20-25 sentabr kundan boshlangani, u qolgan variantlarda 10-11 kun oldin aniqlandi.

Hulosa. Tajribalarimiz davomida, shuni aniqladikki 70x40 sxemada ekilgan ko'chatlarning gektariga 35714 dona o'simlik bo'lgani yuqori hosil berganligi aniqlandi. Sanoatda qo'llanilgan gektariga 47620 dona ko'chat bo'lgan 70x30 sxemadagi variantga solishtirganda 70x40 sm sxemadagi hosildorlik 5,26 t/ga yamasa 30,% ko'proq bo'ldi. 70x25 sxemadagiga, ya'niy gektariga 57143 dona bo'lgandagisiga solishtirganda 5,97t/ga yoki 35,3% ko'p bo'ldi.

Boshmevalarining o'rtacha og'irligi shu ko'rsatilgan ko'chat tig'izligida 314, 423,478 va 557 grammni tashkil etgan, yoki 34,6; 52,2; 174,0; va 183,6% ga ko'paygan. Demak, boshmevalarning o'rtacha og'irlik darajasi ortishi ko'chat qalinligi qisqarishi darajasiga, ya'ni 35-40 ming, dona/ga kamayganligiga bog'liq.

Bugungi kunda xalqimiz tomonidan yaratilgan va shu kungacha yetishtirib kelinayotgan sabzavot ekinlari navlarini kelajak avlodga to'liq qoldirish, genofondini saqlash hamda davr talabi bo'lgan eksportbop navlarni tanlab olish, ular asosida seleksiya uchun dastlabki manbalarni ajratish asosiy vazifalarimizdan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Черников П.Ф. Культура цветной капусты в Узбекистане. – Т.: ФАН, 1973. –48 С.
2. Шуин К.А., Мухин В.Д. Особенности возделывания капусты

цветной и брокколи. / Овощеводство. – М.: Колос, 2003. – С. 302-304.

3. <http://www.rusagroweb.ru/virashivaniye-kapusti/97.html>.

4. <http://www.agrojour.ru/ovoshhevodstvo/kultury/cvetnaya-kapusta-2.html>.

INTROGRESSIV TIZMALAR VA ULAR ISHTIROKIDA YARATILGAN F₅-F₇ DURAGAYLARDA TOLA CHIQIMI IRSIYLANISHI VA O'ZGARUVCHANLIGI

*Namazov Sh.E, q.x.f.d, akademik
PSUEAITI, Toshkent*

*Matyakubov S.K, q.x.f.f.d, doktorant
PSUEAITI, Toshkent*

*Turumbetov. M.Sh, q.x.f.f.d, katta o'qituvchi
QXAI,*

Saparbaev A.S, QXAI talabasi

Annotaciya. Tadqiqotlar PSUEAITI ning “G’o’za genetikasi va citologiyasi” laboratoriyasida amalga oshirilgan. Selekcion ashyolar orasidan tola chiqimi bo’yicha 40% dan yuqori bo’lgan bir qator selekcion ashyolar tanlab olindi va ular keyingi selekcion tadqiqotlarga boshlang’ich ashyo sifatida tavsiya etildi. Jumladan, F₇T-4679-81/16 x Sulton, F₇T-4672-73/16 x Sulton, F₇T-4674-77/16 x Sulton, F₇T-470/1/16 x Sulton, F₇T-138/16 x Sulton, F₇T-95/16 x Sulton, kabi selekcion ashyolari boshlang’ich ashyolar sifatida keyingi selekcion tadqiqotlarga boshlang’ich manba sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so’zlar. g’o’za, turlararo, tola chiqimi, bir dona ko’sak, tizma, qimmatli, kompleks, irsiylanish, o’zgaruvchanlik, duragay.

Paxta tolasining jahon bozoriga chiqishida va o’z o’rniga ega bo’lishida tola sifatining o’rni beqiyos bo’lganligi uchun, g’o’zaning boshqa xo’jalik belgilarini yaxshilash bilan bir qatorda tola sifatiga ham katta e’tibor qaratish lozim bo’ladi. Shunga qaramasdan, ko’p yillar davomida paxta tolasini sifatini oshirish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda turlararo duragaylash orqali tola sifati belgisi bo’yicha keng miqyosdagi o’zgaruvchanlikka erishish mumkinligini ta’kidlab o’tish lozim. Xususan, g’o’zaning *G.arboreum* x *G.anomalum* turlararo duragay o’simliklarini *G.hirsutum* L. va *G.barbadense* L. turlari bilan duragaylash orqali yaratilgan yangi duragay o’simliklarda tola uzunligi, pishiqligi va nafisligi ortishi bilan birga hasharot va kasalliklarga bardoshligini ham ortganligi qayd etib o’tilgan. Xozirda etuk olimlar tomonidan xosildor namunalarni yaratish va selekcion tadqiqotlarga jalb qilishda ma’lum bir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Jumladan, Sh.E.Namazov [3], Boboev S.G’[1] ma’lumotlarida, turli chatishtirishlarda yaratilgan selekcion ashyolarni qiyosiy tahlilida, murakkab chatishtirish uslublari samara bergani aniqlangan. Duragaylar orasidan kompleks qimmatli xo’jalik belgilariga mavjud rekombinantlar ajratib olinib hamda yangi yaratilgan tizmalardan selekcion ashyolar sifatida ishlatishimiz mumkin. Shuningdek, g’o’zani yovvoyi diploid turlari turlararo *G. Thurberi* Tod.x *G.*

Raimondii Ulbr. duragaylash natijasida amfidiploidlar va ular ishtirokida olingan o'simliklarda tadqiqotlar olib borgan.

Tadqiqot ob'ekti va uslubi. Tadqiqot ob'ekti PSUEAITI ning "G'o'za genetikasi va citologiyasi" laboratoriyasida turli yillarda yaratilgan o'rta tolali g'o'za tizma oilalaridan foydalanib tadqiqotlar olib borilgan. Ilmiy tadqiqotlar asosida olingan natijalar B.A.Dospexov (1985) uslubida statistik ko'rsatkichlarning katta va kichik tanlanmalarida ishlovdan o'tkazilgan. [2]

Sulton ishtirokida chatishtirib olingan F_5 duragaylarda xam tola chiqimininng o'zgaruvchanligi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra tola chiqimi 32,2 % dan ($F_5T-95/16$ x Sulton) 40,3 % gacha ($F_5T-58/16$ x Sulton) bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur selekcion ashyolar andoza S-6524 g'o'za naviga taqqoslanganda (34,5%) 17 ta duragaydan 12 tasida andozaga nisbatan 0,7 % dan 5,8 % gacha ustunlikni ko'rishimiz mumkin. Jumladan, $F_5T-4672-73/16$ x Sulton, $F_5T-4674-77/16$ x Sulton, $F_5T-4679-81/16$ x Sulton, $F_5T-4684-86/16$ x Sulton, $F_5T-138/16$ x Sulton, $F_5T-470/1/16$ x Sulton, $F_5T-158/16$ x Sulton, $F_5T-58/16$ x Sulton, $F_5T-1979/16$ x Sulton, $F_5T-12/06/16$ x Sulton, $F_5T-175/248/16$ x Sulton, $F_5T-588/16$ x Sulton duragaylari andozadan tola chiqimi bo'yicha ustunlikni nomoyon qildi (1-jadval).

Sulton ishtirokida chatishtirib olingan F_6 duragaylarda xam tola chiqimininng o'zgaruvchanligi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra tola chiqimi 37,5 % dan ($F_6T-4672-73/16$ x Sulton) 41,1 % gacha ($F_6T-4684-86/16$ x Sulton) bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur selekcion ashyolar andoza S-6524 g'o'za naviga taqqoslanganda (36,2%) barcha duragaydan andozaga nisbatan 1,7 % dan 4,9 % gacha ustunlikni ko'rishimiz mumkin. Selekcion ashyolar orasidan tola chiqimi bo'yicha 40% dan yuqori bo'lgan bir qator selekcion ashyolar tanlab olindi va ular keyingi selekcion tadqiqotlarga boshlang'ich ashyo sifatida taklif etildi. Jumladan, $F_6T-4679-81/16$ x Sulton, $F_6T-4684-86/16$ x Sulton, $F_6T-470/1/16$ x Sulton, $F_6T-158/16$ x Sulton selekcion ashyolari boshlang'ich ashyolar sifatida keyingi selekcion tadqiqotlarga boshlang'ich manba sifatida tavsiya etiladi 1-jadval. Yuqori avlod introgressiv tizmalarda tola chiqimininng o'zgaruvchanligi bo'yicha taxlil qilinganda tola chiqimininng o'rtacha ko'rsatkichi 36,9 % dan 41,5 % gacha bo'lganligi aniqlandi. Mazkur selekcion ashyolar andoza S-6524 g'o'za naviga taqqoslanganda (36,6%) barcha duragaydan andozaga nisbatan 0,3 % dan 4,5 % gacha ustunlikni ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboev S.G'. Murakkab turlararo duragaylash orqali g'o'zaning ko'p genomli yangi duragaylarini yaratish va xususiyatlarini ochib berish. B.f.d. Toshkent. 2017. B. 26-28.

2. Dospexov B.A. Metodika polevogo opyta. – Moskva: Kolos, 1973. 335 s.

Introgressiv tizmalarning chatishtirishdan olingan F₅ - F₇ duragaylarda tola chiqimi ko'rsatkichi

№	Duragay Kombinatsiya	F ₅		F ₆		F ₇	
		M±m	V%	M±m	V%	M±m	V%
1	T-4672-73/16 x Sulton	37,6±0,70	5,94	37,5±0,70	5,96	40,9±0,37	2,91
2	T-4674-77/16 x Sulton	35,2±1,27	11,42	38,9±0,69	5,64	41,5±0,41	3,16
3	T-4679-81/16 x Sulton	35,6±0,76	6,75	40,0±0,45	3,62	40,3±0,93	7,33
4	T-4684-86/16 x Sulton	35,3±0,85	7,65	41,1±1,15	8,90	36,9±0,44	3,80
5	T-138/16 x Sulton	38,0±0,65	5,38	38,5±0,93	7,67	40,1±0,39	3,14
6	T-470/1/16 x Sulton	37,1±1,23	10,52	40,6±0,75	5,85	41,5±0,83	6,33
7	T-95/16 x Sulton	32,2±0,80	7,87	39,9±0,61	4,86	40,1±0,58	4,59
8	T-158/16 x Sulton	38,4±0,86	7,08	40,4±0,89	7,02	40,8±0,56	4,39
9	T-200/16 x Sulton	33,9±1,53	14,31	37,9±0,81	6,81	40,4±0,77	6,03
10	T-MVG-2/16 x Sulton	33,4±1,21	11,50	39,0±0,57	4,69	39,7±0,39	3,11
11	T-58/16 x Sulton	40,3±1,96	15,57	38,0±0,55	3,60	39,0±0,65	5,33
12	T-1979/16 x Sulton	38,1±0,90	7,46	37,5±0,34	2,87	39,9±0,59	4,67
13	T-175/248/16 x Sulton	38,5±0,86	7,13	38,8±0,42	3,45	40,0±0,92	7,31
14	T-12/06/16 x Sulton	38,7±0,74	6,04	39,1±0,72	4,52	39,3±0,62	5,01
15	T-4747-48/16 x Sulton	33,8±0,59	5,52	38,4±0,33	2,79	38,6±0,77	6,33
16	T-BSG-2/06/16 x Sulton	33,9±1,42	13,26	39,3±0,45	3,68	39,6±0,51	4,09
17	T-588/16 x Sulton	38,8±0,85	6,94	37,8±0,54	4,05	39,2±0,82	6,67
18	S-6524	34,5±0,67	6,21	36,2±1,03	2,50	36,6±0,58	4,59

СИДЕРАТ ЕГИНЛЕРДИҢ ТОПЫРАҚ СТРУКТУРАСЫНА ТӘСИРИ

*Исмаилов Узақбай Ембергенович,
Толыбеков Ислам Махсетович*

Қарақалпақстан аўыл хожалығы хәм агротехнологиялар институты

Аннотация. Қарақалпақстан Республикасы топырақлары шорланған хәм өнімдарлығы төмен болыўы менен өзгешеленеди. Атыз тәжирийбесинде қысқа ротациялы алмаслап егиўде 1:2 (бийдай:ғаўаша:ғаўаша) гүзлик бийдайдан кейин собықлы хәм масақлы егинлер сидерат егинлер сыпатында егилип, олардың топырақ агрофизикалық қәсийетлерине тәсири үйренілген.

Гилт сөзлер: сидерат егинлер, шорланыў, топырақ өнімдарлығы, органикалық хәм сидерат төгинлер, көлем салмағы, алмаслап егиў.

Кирисиў: Базар мүнәсибетлери шараятында аўыл хожалығында қымбат баҳадағы төгинлерден пайдаланыўды кем-кемнен қысартып, буның орнына өсимлик ушын керекли микроэлементлерге бай болған сидерат егинлерди пайдаланыў мақсетке муўапық. Аўыл хожалығы егинлери туқымгершилигин жәнede раўажландырыў бойынша қосымша ис-илажларда пахта майданларында топырақ өнімдарлығын асырыў хәм ғаўашаны минерал төгинлер менен азықландырыўды туўры жолға қойыў, хәр гектар майданға 15-20 тонна органикалық төгин ямаса 20-30 тонна компост салыў хәм собықлы дән, сидерат егинлер егиў нәзерде тутылған.

Сондай-ақ, топырақ өнімдарлығын асырыўда сидерат ямаса жасыл төгинлер жетистириў хәзирги шараятта өнімдарлықты асырыў ушын сидератларды бир қатар себеплерге көре егиў кереклиги усыныс етилген. [2]

Тәжирийбениң актуаллығы хәм өндиристеги әҳмийети: Өзбекистан Республикасының 2024-жыл 2-февралдағы “Топырақты қорғаў хәм оның өнімдарлығын асырыў туўрысында”ғы нызамы 6-бантине көре: минерал, органик, органик-минерал, бактериал төгинлар хәмде басқа төгинлерди, сондай-ақ компост хәм сидератларды иқлым шәриятлары хәм өсимликлердиң мүтәжликлерин есапқа алынған ҳалда қоллаў белгиленген.

Органикалық төгинлер сыпатында аралық егинлерден сидерация мақсетинде пайдаланыў жетиспейтуғын бөлегин толтырыўдан тысқары, тәсири тәрeпинен қый, компост хәм басқа органикалық төгинлерден қалыспайды. Бүгинги күнде дүнья дийқаншылығы әмелиятында органикалық төгинлерден пайдаланыў, топырақ өнімдарлығын сақлаў, тиклеў хәм асырыў тийкарында егинлерден сыпатлы хәм жоқары пайда алыў ең актуал машқалалардан бири болып қалмақта. [3]

Бул машқаланы шешиўде қысқа ротациялы алмаслап егиўде гүзги бийдайдан кейин сидерат егинлерди егиў арқалы, топырақ өнімдарлығы хәм ғаўаша өнімдарлығын асырыўға ерисиў мүмкин.

Минерал төгинлер орнына сидератлардан пайдаланыў мийнет сарпын хәм оларды ислеп шығарыў қәрежетлерин кемейттириў имканын береди, бирақ ең әҳмийетли таза өним алыў есапланады.

Сидератлардың пайдалы қасиеттері: қысқа уақыт ішінде үлкен жасыл массаны топлау, топырақ өнімдарлығы дәрежесін асыруы имканын береді. Жасыл төгінлер топырақтағы гумус мұғдарын асырады, бұл өсімліктер хәм пайдалы микроорганизмлер үшін азық элементлер запасы болып хызмет қылады. Жасыл төгін сыпатында жетістірілген көк өсімліктер, қосымша рәуиште, зыянкеслерге қарсы гүрес үшін жәрдем береді.

Сидерат егінлер (сидератлар, жасыл төгінлер) тез осімлік массасын пайда етиуіші бір жыллық ямаса көп жыллық шөп өсімліктер болып, олар ауыл хожалық атызларында кейін ала топыраққа органикалық төгін хәм өсімліктер хәмде топырақ микроорганизмлері үшін азот дереги сыпатында жайластыруу үшін мөлшерленген. Олар топырақтың тәбийғый өнімдарлығын тиклеу үшін мөлшерленген болып, оған берілген өсімліктердің өними менен алып шығылған элементтерди қайтарады.

Сидератлар пайдаланыу мақсетлері үшін емес, бәлким тек жердің өнімдарлығын асыруу хәм ондағы микроорганизмлерди жоқ етиуден қутқаруу үшін өсирилетуғын өсімліктер есапланады. Жасыл массаны топыраққа жайластыруу процессі әдетте сидерация делинеді. [4]

Органикалық дийқаншылықтың әхмийетли қағыйдаларынан бири топырақ пайдаланылмай хәм ашық қалмаслығы керек. Органикалық қурамы жаманласады, пайдалы элементтер жууылады хәм эрозияланады. Бәсекилесіудің толық жоқлығы, жабайы шөптердің үлкен хұқимранлығы басланады, бұл да топырақтан пайдалы элементтерди өзлестиреди, буның орнына хеш нәрсе бермейди. Хәзирги күндеги ең актуал машқалалардан бири топырақ өнімдарлығын асырууда ауыл хожалығы егінлерин алмаслап егиу системасына сидерат егінлерди жайластыруу күтилген нәтијжени береді.

Қарақалпақстанның шорланған топырақ шараятында сидерат егінлерди қысқа ротациялы алмаслап егиуде қоллаудағы нәтијжелиги бойынша жетерли дәрежеде илимий изертлеу жұмыслары алып барылмаған.

Тәжрийбениң объекти: сидерат егінлер, шорланыу, топырақ өнімдарлығы, органикалық хәм сидерат төгінлер, көлем салмағы, алмаслап егиу.

Изертлеу методикасы: Тәжрийбе атыз жағдайында өткерилди. Тәжрийбе 10 варианттан ибарат болып, системалы усылда жайластырылған, үш қайталамда. Хәр бир вариант майданы 120 м². Тәжрийбеде 2-10 вариантларда собықлы хәм масақлы егінлер айырым хәм аралас түрде гүзлик бийдайдан кейін сидерат егінлер сыпатында егилди. 1-вариантта гүзлик бийдайдан кейін шүдигар исленип кейинги еки жылда ғауаша егиледи. 2-4 вариантларда мәш, соя хәм арпа сидерат үшін гүзлик бийдайдан кейін егилди, 5-7 вариантларда сидерат егінлер еки егинди араластырып егиледи, 5-вариантта үш өсімлік араластырып егиледи, 9 хәм 10 вариантларда үш егін араласпасы хәм сүрим алдынан 10 хәм 20 т/га қый бериледи.

Изертлеу алып барыу дауамында “Методы агрофизических исследований почв” (Ташкент, 1973), “Методы проведения полевых опытов” (Ташкент, 2007) колланбаларынан пайдаланылды.[1]

Изертлеу нәтийжелери хәм оларды таллау: Өсимликлердин тамыр массасы хәм сидерат сыпатында егилген егинлердин көк массасы топыраққа араласады. Топырақ курамында органикалық массаның артыуына унамлы тәсир етеди. Топырақта органикалық масса қанша көп болса оның көлем салмағының кемейуине унамлы тәсир етип, өсимликлердин өсиуи хәм рауажланыуына қолайлы жағдай жаратылады. [5]

Тәжирийбе атызында топырақтың көлем салмағының дәслепки көрсеткиши 0-30 см қатламда 1,35 г/см³ болды. Қалағалау вариантында 1,32 г/см³ болды, ал сидерат егинлерден кейин 1,24-1,30 г/см³ болып, бул қадағалау вариантына салыстырғанда 0,02-0,08 г/см³ қа кем болды.

Сидерат егинлерди хәр қайсысын өз алдына егилгенде (вар. 2-4) топырақ көлем салмағы 1,29-1,30 г/см³ болды. Бул қадағалау вариантына салыстырғанда 0,02-0,03 г/см³ қа кем. Сидерат егинлерин еки хәм үш компонентли араласпа түринде егилгенде топырақ көлем салмағы 1,29 г/см³ болды хәм бул қадағалау вариантынан 0,03 г/см³ қа кем болды. Ал сидерат егинлерди үш компонентли араласпа түринде егилип оған қосымша 10 хәм 20 т/га қый берилгенде 1,26-1,24 г/см³ болып, (вар. 9-10) хәмме вариантлардан төмен болды. Бул, вариантларда яғный сидерат егинлеринен кейин топыраққа сүрилген көк масса топырақ курамындағы органикалық масса муғдарын арттырады. Топырақ курамында органикалық масса қанша көп болса, оның көлем салмағы аз болады.

1-кесте

Сидерат егинлердин топырақ көлем салмағына тәсири, г.см³, 2023 ж. гүз

Вариант лар	Вариантлар (сидерат егинлер)	Топырақ қатлам лары, см	Дәслепки көрсетикшлер 2023 ж. гауашадан кейин	Сидерат егинлерден кейин	Парқы, ±
		0-30	1,35	-	-
1	-	0-30	-	1,32	00
2	Мәш	0-30	-	1,30	-0,02
3	Соя	0-30	-	1,30	-,02
4	Арпа	0-30	-	1,29	-0,03
5	Мәш + арпа	0-30	-	1,29	-0,03
6	Соя + арпа	0-30	-	1,30	-0,02
7	Мәш + соя	0-30	-	1,29	-0,03
8	Мәш + соя + арпа	0-30	-	1,29	-0,03
9	Мәш + соя + арпа + 10 т/га қый	0-30	-	1,26	-0,06
10	Мәш + соя +	0-30	-	1,24	-0,08

	арпа + 20 т/га қый				
--	-----------------------	--	--	--	--

Жуўмақлаў: Қарақалпақстан Республикасы аз өнімдарлы топырақларында оның агрофизикалық қасиетлерин жақсылаў ушын гүзлик бийдайдан кейин собықлы хәм масақлы егинлерди үш компонентли араласпа түринде егилип, оған қосымша 10 ямаса 20 т/га қара мал қыйы берилиўи хәм кейинги еки жылда ғаўаша егилиўи махсетке муўапық.

Пайдаланылған әдебиятлар дизими.

1. Исмаилов У.Е. Научные основы повышения плодородия почвы. -Нукус. -Билим. -186 с.

2. Исмаилов Д.У. Шўр тупроқ шароитида тупроқ унумдорлигини оширувчи қисқа навбатли алмашлаб экиш тизимини ишлаб чиқиш. қ.х.ф.б.доктори илмий даражасини олиш учун дисс. автореферати. -Андижан. -2021. -34 б.

3. Халиқов Б.М., Тилляев Р.Ш., Чолданбаев С. Гўза-ғалла алмашлаб экишда тупроқ агрофизикавий хоссаларининг ўзгариши. // Тупроқ унумдорлигини оширишнинг илмий-амалий асосларию халқаро илмий-амалий конференция тўплами. 1-қисм. -Тошкент, -2007. -Б. 67-70

4. Холманов Н., Элмурадова М., Холманов Ғ. Зарафшан водийси типик бўз тупроқлари микробиологик фаоллигини яхшилашжа сидерациянинг аҳамияти. // “Агро илм” журнали. -2021 -№5 (75) –Б. 82-84

5. Усманов Н., Останақулов Т. Турли экинлар биомассаси сидерат сифатида қўлланилганда картошка даласи тупроқ физик хоссалари ва агрохимёвий таркиби. // “Агро илм” журнали. -2021. -№3 (73) -Б. 62-63

**АЛМАШЛАБ ЭКИШ ТИЗИМЛАРИДА ЎСИМЛИКЛАР ТОМОНИДАН
ТУПРОҚДА ҚОЛДИРИЛГАН ИЛДИЗ ВА АНҒИЗ ҚОЛДИҚЛАРИ
МИҚДОРИ**

Исмаилов Узақбай Ембергенович

Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти.

Аннотация. Тупроқ унумдорлигини оширишда тупроқда қолдирган ўсимлик илдиз ва анғиз қолдиқлари муҳим аҳамиятга эга. Шунинг учун алмашлаб экиш тизимида экинлар турини кўпайтириш, такрорий ва оралик экинларни (дон, дон дуккакли) киритиш зарур.

Калит сўзлар: Алмашлаб экиш, илдиз, анғиз, такрорий экин, оралик экин, тупроқ қатламлари, тупроқ унумдорлиги.

Кириш. Ҳозирги кунда дўнё бўйича ердан самарали фойдаланиш, унинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш, шўрга чидамли навлар ва экин турларини яратиш алоҳида аҳамиятга эга. Бу эса ўз навбатида тупроқ унумдорлигини сақлаш ҳамда ошириш, қишлоқ хўжалиги экинларидан

юқори ва сифатли маҳсулотлар етиштириш бўйича олинган натижаларни ишлаб чиқаришга жорий этиш долзарб масала ҳисобланади.

Қишлоқ хўжалигида алмашлаб экишни жорий этиб, тупроқ унумдорлигини сақлаш ва мунтазам ошириб бориш деҳқончилик илмининг асосий негизи ҳисобланади. Экинларини алмашлаб экиш орқали ердан самарали фойдаланиш, қишлоқ хўжалиги экинларидан юқори ҳамда сифатли ҳосил етиштириш учун ҳар бир худуднинг тупроқ-иқлим шароитлари учун белгиланган экинлар структурасидан келиб чиқиб, ўша тупроқ-иқлим шароитларига мос керакли тавсиялар бериш зарур.

Тадқиқот услублари. Тадқиқот ўтказишда барча кузатув, ўлчов ва таҳлиллар “Дала тажрибаларини ўтказиш услублари”, тупроқ таркибидаги озика моддалар миқдорларини аниқлашда, “Методика агрохимических анализов почв и растений”, агрофизикавий таҳлиллар “Методика агрофизических исследований” услубий қўлланмаларидан фойдаланилган ҳолда амалга оширилди.


Тадқиқот натижалари. Биз тажрибада ғўза:ғўза ва ғалла:ғўза (1:2) тизимида ғўзадан кейин ғўза экилганда, кузги буғдойдан кейин + такрорий экин ва кузги буғдойдан кейин + такрорий экин + оралиқ экин тизимини ва унга 20 т/га миқдорида гўнг қўлланилганда 2018 йилда алмашлаб экиш тизимига киритилган экинлардан кейин 2019 ва 2020 йилларда ҳамма вариантларда ғўза экилганлиги сабабли тупроқнинг 0-30 ва 30-50 см қатламида қанча миқдорда ўсимлик илдиз ва анғиз қолдиқлари қолганлигини аниқладик.

Маълумотларига кўра 2018 йили 1-вариантда, яъни ғўзадан кейин ғўза экилганда 0-50 см қатламда 12,9 ц/га илдиз қолган бўлса, алмашлаб экиш (1:2) тизимига киритилган кузги буғдой, такрорий ва оралиқ экинлардан кейин 28,4-38,1 ц/га миқдорида илдиз ва анғиз қолдиқлари қолган. Бу ғўзадан кейин қолган илдиз миқдоридан 2-3 баровар кўпдир.

Кузги буғдойдан кейин такрорий экин экилган 2, 3 ва 4 вариантларда 28,4-34,8 ц/га, кузги буғдойдан кейин + такрорий экин (мош, жўхори) + оралиқ экин (мош) экилган 6 ва 7 вариантларда 35,7-38,1 ц/га миқдорида илдиз қолдиқлари қолган. Бу кейинги ғўза ўсимлиги учун тупроқда озика моддалари миқдорини ортишига ижобий таъсир кўрсатди. 2019 йилда ғўзадан кейин тупроқнинг 0-50 см қатламида 11,8-16,4 ц/га миқдорда илдиз қолдирилган. Ғўзадан кейин ғўза экилган 1-вариантда қолган илдиз миқдори 11,8 ц/га ва алмашлаб экиш тизимида (1:2) ўтмишдош экинлардан кейин (2-8 вар.) экилганда 14,1-16,4 ц/га илдиз қолган. Бу вариантларда қолдирилган илдиз миқдори 2,3-4,6 ц/га кўпдир. Бу ғўзанинг қандай шароитда ўсиши-ривожланиши билан боғлиқ бўлиб, алмашлаб экиш тизимида ўстирилган ғўзанинг ўсиши-ривожланиши билан биргаликда унинг илдиз тизимининг яхши ривожланиши учун қулай шароит яратилганлигидан далолат беради.

Ғўза иккинчи йили экилганда унинг тупроқда қолдирган илдиз миқдори вариантлар бўйича ўртача 11,5-17,0 ц/га бўлди. Ғўзадан кейин ғўза экилган назорат вариантыда 11,5 ц/га, такрорий экинлардан кейин ғўза экилган 2-4 вариантларда 14,0-15,2 ц/га, такрорий экиндан кейин 20 т/га гўнг

берилган 5-вариантда 16,5 ц/га, такрорий ва оралик экинлардан кейин ғўза экилган 6 ва 7 вариантларда 15,4-15,6 ц/га ва такрорий, оралик экинлардан кейин 20 т/га гўнг берилган 8 вариантда 17,0 ц/га илдиз қолишлиги аниқланди. Ўсимликлар томонидан тупроқда қолдирилган жами илдиз ва анғиз қолдиқлари миқдорини 1-расмда кўришимиз мумкин.



Демак келтирилган маълумотлардан куришиб турганидек тупроқда ғўзанинг ўсиши ва ривожланиши учун яхши шароит яратилса унинг илдиз тизими ҳам яхши ривожланади ва кутилган ҳосилдорликни бериш имконияти йўқори бўлишини таъминлайди.

Хулоса. Мутгасил ғўза экилганда икки йил давомида (0-50 см) тупроқ қатламида 12,9 ц/га илдиз ва анғиз қолган бўлса, алмашлаб экиш тизимига киритилган кузги буғдой, такрорий ва оралик экинлардан кейин қўшимча 20 т/га миқдорида гўнг қўлланилиб кейин ғўза экилганда ўртача 14,0-17,0 ц/га миқдорида ғўза илдизи қолганлиги ва бу назорат вариантыга нисбатан 1,1-4,1 ц/га кўп бўлишлиги аниқланди. Кузги буғдойдан кейин такрорий ва оралик экинларнинг тупроқда қолдирган ўсимлик ва илдиз қолдиқлари 28,4-38,1 ц/га ни ташкил этди.

Фойдаланилган адабётлар

1. Исмаилов У.Е. Научные основы повышения плодородия почв. - Нукус “Билим”. – 2004 – 186 с.
2. Исмаилов У.Е., Садыков Е., Саипназаров Г. Короткоротационные севообороты в условиях Каракалпакстана. // Нукус. – 2015. 64 с.
3. Намозов Ф.Б., Иминов А.А. Ғўза, кузги буғдой, такрорий ва оралик экинларни навбатлаб етиштиришнинг тупроқ унумдорлигига таъсири. // журнал “Агроилм” – Тошкент. 2016 - №4 (42) – Б. 21-22.
4. Халиков Б.М. Намозов Ф.Б. Алмашлаб экишнинг илмий асослари. // монография. Тошкент. -2016 – 222 б.
5. Негматова С., Шавкатов Б. Такрорий экин мош илдизида туганаклар ҳосил бўлиши. // “Агроилм” – 2019 - №4 (60) – 31-32 б.

TARVUZ URUG'LARINING FIZIK-MEXANIK XOSSALARINI ANIQLASH NATIYJALARI

G.Ablatova

Qoroqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar inistituti

S.Allaniyazov

Nukus konchilik inistituti dotsenti, texnika fa'nlari nomzodi

Kirish. Qoroqalpog'iston Respublikasi eng shimoliy mintaqada joylashganligi bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Bu yerda tuproqdagi chirindilarning kamligi va sho'rni yuvish zaruriyati tufayli tuproqning zichligi yuqori bo'ladi. Tuproq zichligi yuqori bo'lgan yerlarni ekishga tayyorlashda agregatlarning daladan bir necha marotaba qayta-qayta o'tishiga to'g'ri keladi. Shu bois, Qoroqalpog'iston Respublikasining tuproq-iqlim sharoitiga mos keladigan tuproqni ekishga tayyorlash va ekish jarayonlarini birlashtiruvchi texnika vositalarini yaratish, uni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga joriy etilish hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Tajribaning aktualligi va ishlab chiqarishdagi ahamiyati. Poliz ekinlarini etishtirishda urug'larni ekish ishlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish muhim texnologik operatsiyalardan biri bo'lib hisoblanadi. Texnologik jarayonlarni o'rganish, mavjud mashinalarni takomillashtirish va ekish mashinalarining yangi ishchi qismlarini yaratish, urug'larning fizik-mexanik hususiatlariga (vazni, o'lchamlari, statik ishqalanish burchagi) asoslangan holda olib boriladi.

Tadqiqot ob'ekti va metodikasi. Tadqiqot uchun tarvuzning «Sharq ne'mati» va «Crimson sweet» navlari urug'lari tanlandi. Urug' vaznini o'lchash uchun tanlash uslubi urug'larning barcha namunalari uchun bir xil umumiy qabul qilingan uslublar yordamida aniqlandi. 3 kilogrammli o'rtacha namunadan xochsimon bo'linish usuli bilan 200-300 dona urug' ajratib olindi va taroziga tortilib o'lchandi. Urug'larning o'lchamlari 0,01 mm aniqlikdagi mikrometr bilan o'lchandi. Statik ishqalanish koeffitsienti qiya taxta yordamida 4 ta materialda, polietilenda, bo'yalgan po'latda, rangsiz po'latda va diskda aniqlandi.

Ilimiy tadqiqot natijalari. Tarvuz urug'lari katta kichikligi jihatidan yirik, o'rta, o'rtacha mayda xillarga bo'linadi; Rangi oq, sarg'ish, sariq, jigarrang, qizil, qora, kul rang bo'ladi. Urug'larning sirtida mayda yoki yirik dog'lardan jimjimasi bo'ladi, g'adir-budurligi, ba'zan yoriqlar bilan qoplangan, shuningdek, urug'ning soni kam yoki ko'pligi bilan bir-biridan farq qiladi.

Tarvuzning «Sharq ne'mati» va «Crimson sweet» navlari urug'larning fizik-mexanik xossalarini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida urug'larning geometrik o'lchamlari keng oraliqda o'zgarishi aniqlandi. Ularning o'rtacha, minimal va maksimal o'lchamlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tarvuz urug'larining geometrik o'lchamlari

Ko'rsatkichlar	Navlar bo'yicha qiymati	
	«Sharq nemati»	«Crimson sweet»
Uzunligi, mm. o'rta	13,27	8,51

minimal	10,08	7,02
maksimal	16,47	9,99
Eni, mm		
o'rtacha	8,39	5,52
minimal	6,43	4,71
maksimal	10,35	6,32
Qalinligi, mm		
o'rtacha	2,6	1,85
minimal	2,11	1,50
maksimal	3,17	2,20
1000 dona urug' vazni, g	201,10	44,09

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumatlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, urug'larning katta, o'rtacha va kichik bo'lganidek urug'larning katta kichik o'lchamlari bo'yicha farqlar mavjud bo'lib, ular bir xil nav ichida ham bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi va ular uzunligi bo'yicha ko'proq va qalinligi bo'yicha kamroq darajada farq qilishi aniqlandi.

Tarvuzning «Sharq ne'mati» va «Crimson sweet» navlari urug'larining namligi 15% bo'lganda o'rtacha statik ishqalanish koeffitsientlari polietilenda mos ravishda 0,54 va 0,51, bo'yalgan po'lat uchun 0,6 va 0,7, bo'yalmagan po'lat uchun 0,68 va 0,65 va diskda 0,43 va 0,4.

Urug'larni ekish jarayonida urug'lar ekuvchi disklar, urug' yo'naltiruvchisi bilan o'zaro ta'sir qiladi. Shu bilan birga, texnologik jarayonga katta ta'sir ko'rsatadigan aloqa (to'qnashish) nuqtalarida statik ishqalanish va harakat ishqalanish kuchlari paydo bo'ladi.

Xulosalar. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Tarvuzning «Sharq ne'mati» va «Crimson sweet» navlari urug'larning fizik-mexanik xossalarini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida urug'larning geometrik o'lchamlari keng oraliqda o'zgarishi aniqlandi, yani uzunligi 7,02 mm dan 16,47 mm gacha, eni 4,71 mm dan 10,35 mm gachani tashkil qilishi aniqlandi va bu o'lchamlar ekuvchi disk teshigi o'lshamlarini aniqlashda. Aniqlangan o'rtacha statik ishqalanish koeffitsientlari polietilenda mos ravishda 0,54 va 0,51, bo'yalgan po'lat uchun - 0,6 va 0,7, bo'yalmagan po'lat uchun 0,68 va 0,65 va diskda 0,43 va 0,4 ni tashkil qiladi va bu qiymatlar seyalkaning urug'lar bilan aloqada bo'ladigan ishchi qismlarini tanlashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шапров. М.Н., Мартынов. И.С. Определение некоторых физико-механических свойств семян арбуза и почвы. Известия нижевожского агроуниверситетского комплекса. №4 (12) 2008 г.
2. Евченко А.В. Анализ физико-механических свойств семян зерновых культуранисследование физико-механических свойств проращенных семян тыквы». Вестник КрасГАУ. №8, 2016 г.
3. Ф.У.Суванова, М.М. Ширинбоев. Определение технологических свойств семян арбуза. Технические науки. 1 (94) январь, 2022 г.

КУЗГИ БУҒДОЙДАН КЕЙИН ТУПРОҚДА ҚОЛГАН ЎСИМЛИКНИНГ ИЛДИЗ ВА АНҒИЗ ҚОЛДИҚЛАРИ

Исмаилов Даулетбай Узақбаевич.

*Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар
институтини.*

Аннотация. Мақолада кузги буғдойдан кейин тупроқда қолдириган илдиз ва анғиз қолдиқлари миқдори ва унинг тупроқ унумдорлигига таъсири хақида маълумотлар келтирилган. Тадқиқот ишларимизда намуналар тупроқнинг 0-30 ва 30-50 см қатламларидан усимлик ва илдиз қолдиқлари аниқланди. Тадқиқот натижаларига кўра, кузги буғдой экилган 2-вариантдан 8-вариантгача тупроқнинг 0-50 см қатламида 16,1-18,2 ц/га ўсимликнинг илдиз ва анғиз қолдиқлари қолди. Тупроқда қолган ўсимлик ва илдиз қолдиқлари тупроқ таркибидаги органик моддаларнинг тўпланишига ижобий таъсир кўрсатди.

Калит сузлар. Такрорий экин, оралиқ экин, кузги буғдой, илдиз, анғиз, тупроқ, унумдорлик, усимлик намуналари.

Кириш. Маълумки тупроқдаги органик моддаларнинг қандай даражада бўлиши, яъни тупроқ унумдорлигининг паст ёки юқори бўлиши тупроқда қоладиган ўсимлик қолдиқлари миқдорига тўғридан тўғри боғлиқ бўлади.

Қорақалпоғистоннинг суғориладиган ерлари унумдорлиги паст бўлиши билан ўзгачаланади. Сабаби, бу ерларда ҳар йили шўр ювиш ишлари олиб борилади. Бунда озиқа моддаларининг бир қисми пастки қатламларга ювилиб кетади. Ерга бериладиган органик ўғит миқдори жуда кам миқдорда, тупроқда қолган ўсимлик қолдиқлари кам. Деярли ҳамма ерларда тупроқ унумдорлигини пасайтирувчи экинлар экилади.

Бундай ерларда қишлоқ хўжалик экинларидан юқори ҳосил олиш учун, биринчи навбатда тупроқ унумдорлигини оширишга этибор қаратилиши зарур.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Ўзбекистон Республикаси дон мустақиллигига эришгандан сўнг суғориладиган дехқончилик худудларида ғалла етиштириш майдонлари кенгайтирилди. Шу жумладан Қорақалпоғистон Республикасида ҳам кузги буғдой экин майдонлари кенгайтирилди ҳамда алмашлаб экиш тизимларига киритилди.

Алмашлаб экишда кузги буғдой ғўза-беда-дон экиш тизимлари ишлаб чиқилди, унинг улуши 10-25 фойзни ташкил этди. Исмаилов У.Е. [1].

Бедадан кейин ғўза 3-4 йил давомида экилгандан сўнг бир йил кузги буғдой экилади. Кузги буғдойдан кейин тупроқда илдиз оғирлиги ва ўсимлик қолдиқлари 12-21 центнерни ташкил этиб, гумус миқдорининг ошишига, тупроқнинг агрохимёвий ва агрофизикавий, сув-физик хусусиятларининг яхшиланишига ижобий таъсир етиши аниқланган.

Д.Абдукаримов [2] тадқиқот ишларида, кузги буғдой анғизига, такрорий экин сифатида дуккакли-дон экинларини киритилиши натижасида бир йилда икки маротаба дон ҳосили олишга эришган, иккинчи томондан тупроқ унумдорлигини сақлаш ва ошиш билан бир қаторда дала майдонларида бегона ўтлар сонининг камайишига олиб келган.

Ҳозирги кунда ғалла майдонларининг кенгайиши билан боғлиқ дехқончилик амалиётида қўлланилаётган қисқа навбатли алмашлаб экиш тизимлари жорий этилмоқда. Масалан: 1:2 тизими навбатлаб экишнинг ғўза ғалла бедани буғдойдан ғўзагача бўлган оралиқ масофада буғдой билан бирга парваришлаганда юқори самарадорликка эришган, Неъматов [3].

Ушбу олимларнинг таъкидлашича бир йиллик дон, дон-дуккакли ва оралиқ экинларнинг тупроқда қолдирган илдиз ва анғиз қолдиқлари қанча кўп бўлса, тупроқ унумдорлиги шунча сақланиб қолади.

Тадқиқот услублари. Тадқиқот ўтказишда барча кузатув, ўлчов ва таҳлиллар “Дала тажрибаларини ўтказиш услублари”, тупроқдаги илдиз ва анғиз қолдиқлари тупроқ намуналари олиниб усимлик ва илдизлар монолит ювиш усулида торозида тортиб аниқанди.

Тадқиқот натижалари. Муттасил ғўза экилган 1-вариантда тупроқда 0-30 см қатламда фақат ғўза илдизи ва ўсимлик қолдиқлари 9,5 ц/га ва 30-50 см қатламида 3,4 ц/га жами 0-50 см қатламда 12,9 центнер ўсимлик ва илдиз қолдиқлари қолди.

Кузги буғдой экилган 2-вариантдан 8-вариантгача тупроқнинг 0-50 см қатламида 16,1-18,2 ц/га ўсимликнинг илдиз ва анғиз қолдиқлари қолди. Тупроқда қолган ўсимлик ва илдиз қолдиқлари тупроқ таркибидаги органик моддаларнинг тўпланишига ижобий таъсир кўрсатди.

Биз тажрибада тупроқ унумдорлигини оширишда кузги буғдойдан кейин такрорий ва оралиқ экинлар экилиб улардан кейин тупроқда қоладиган ўсимлик ва илдиз қолдиқларини аниқладик. Тажрибанинг 2 ва 6 вариантларида такрорий экин сифатида мош экилди. Бундан кейин тупроқнинг 0-50 см қатламида 11,6-12,1 ц. ўсимлик ва илдиз қолдиқлари қолди. 3 ва 4 вариантларда кунжут ва жўхоридан кейин 14,3-17,6 ц., 5, 7 ва 8 вариантларда такрорий экин сифатида экилган жўхоридан кейин 18,4; 14,1 ва 14,1 центнер ўсимлик ва илдиз қолдиқлари қолди. Тажрибанинг 6, 7 ва 8 вариантларида такрорий экинлардан кейин оралиқ экин сифатида сидерат учун мош экилди. Бу вариантларда оралиқ экиннинг кўк масса 5,8-6,6 ц бўлди ва сидерат учун ҳайдалди. Кузги буғдойдан кейин экилган дуккакли ва ем хашак экинларидан кейин тупроқда қоладиган ўсимлик ва илдиз қолдиқлари тупроқ унумдорлигини оширишда ижобий таъсир кўрсатди. Бундан ташқари дуккакли экинлар биологик азот тўплаш хусусиятига эга ўсимлик.

1 - жадвал

Тупроқда қолган жами илдиз ва анғиз миқдори, ц/га

Тупроқ қатламлари	Вариантлар							
	1	2	3	4	5	6	7	8

0-30	9,5	25,7	29,8	30,9	30,7	33,7	33,0	34,9
30-50	3,4	2,7	2,3	3,9	4,7	2,0	3,8	3,2
0-50	12,9	28,4	32,1	34,8	35,4	35,7	36,8	38,1

Хулоса. Асосий, такрорий, оралик ва сидерат экинларининг вегетация даврида тупроқда қолган ўсимлик ва илдиз оғирлиги аниқлаганимизда ғўзадан кейин 12,9 центнер кузги буғдой ва уни йиғиштириб олгандан сўнг экилган оралик, такрорий ва сидерат экинларининг ўсимлик қолдиқлари 0-50 см қатламда 28,4-38,1 центнерни ташкил этди. Бу ғўзадан кейин қолдирилган ўсимлик ва илдиз оғирлигига нисбатан 2-3 баробар кўп эканлиги кузатилди.

Фойдаланилган адабётлар.

1. Исмаилов У.Е. Научные основы повышения плодородия почв. - Нукус “Билим”. – 2004 – 186 с.
2. Абдукаримов Д. Тупроққа асосий ишлов бериш технологиялари. //Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. -Тошкент, 2000. № 2. Б. 36-37.
3. Нёматов У. Такрорий экилган соя ўсимлигини суғориш муддатлари ва меъёрлари. // “Агроилм” журнали. – Тошкент. 2018 - №1 (51) – Б. 39-40.

ҚАТОР ОРАЛАРИГА ИШЛОВ БЕРИШНИНГ ТУПРОҚНИНГ УВАЛАНИШ ДАРАЖАСИГА ТАЪСИРИ

Исмаилов Махсетбай Ембергенович

Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти.

Аннотация. Тадқиқотлар натижасида қатор ораларига ишлов беришни минималлаштириш, яъни трактор агрегатининг пахта даласидан ўтиш сонини 8 тадан 5 тагача қисқартириш ҳисобига энергия сарфи сезиларли даражада камайиши, ғўза етиштиришнинг иқтисодий самарадорлиги ва рентабеллиги ошиши аниқланди.

Калит сўзлар. Тупроқ, қатор ораларига ишлов бериш, минималлаштириш, ғўзанинг С-4727 ва Чимбой-5018 навлари, тупроқнинг уваланиши.

Кириш. Янги районлаштирилган С-4727 ва Чимбой-5018 ғўза навларини қатор ораларига ишлов бериш сонини ўрганиш натижасида беш маротаба ишлов берилганда тупроқнинг юқори уваланиш даражаси олиниб, юқори пахта ҳосилини шакллантиришнинг асосий омилларидан бири эканлиги аниқланди.

Тадқиқотнинг объекти сифатида районлаштирилган янги С-4727 ва Чимбой-5018 ғўза навлари олинган.

Тадқиқот мақсади. Тупроқни тайёрлаш ва ўсимликларни парваришlash бўйича бир нечта операцияларни бирлаштириш орқали тупроққа минимал ишлов беришга ўтиш, трактор агрегатининг бир ўтишида икки, уч усулни амалга ошириш тупроқнинг потенциал унумдорлигини

сақлаш, меҳнат ва материаллар сарфини камайтиришнинг муҳим шартларидан бири ҳисобланади.

Тадқиқот натижалари. Замонавий агротехника талабларига мувофиқ, ғўза қатор ораларига ишлов беришда культиваторнинг ишчи органлари тупроқнинг шундай уваланишини таъминлаши керакки, бунда 70-80% бўлакларнинг диаметри 0,25 дан 10 мм гача, фракциянинг диаметри 50 мм дан кўп бўлмаган қисми эса 5% гача бўлиши керак.

Чангсимон зарралар сони (0,25 мм дан кам) 1096 дан ошмаслиги керак. Лекин, ушбу агротехник талабларни ишлаб чиқишда илгари ҳисобга олинган бу масаланинг бошқа энг муҳим жиҳатлари тупроқнинг уваланиш даражасининг ўсимликларнинг ривожланиши ва ғўза ҳосилдорлигига таъсири қатор ораларига ишлов бериш технологиясини ўрганишда бизнинг шароитимизда ўрганилмаган.

Қатор ораларига турли ишлов бериш таъсирини аниқлаш учун ҳар йили биринчи культивациядан сўнг ва иккинчи суғоришдан сўнг культиваторнинг ишчи органлари ишлов берилган чуқурликкача тупроқ намуналари олинди.

Тупроқнинг уваланиш даражаси (фракциялар мавжудлиги) тупроқ намуналарини элақдан ўтказиш йўли билан аниқланди.

Маълумотларидан кўриниб турибдики, биринчи культивациядан сўнг агрономик қимматли фракциялар (10, 0,25 мм) миқдори бўйича вариантлар ўртасида сезиларли фарқлар кузатилмади ёки улар С-4727 навида (26,2-1,6%) ва Чимбой-5018 навида 1,5-1,8% ни ташкил этди. Иккинчи суғоришдан кейин тупроқнинг уваланиш даражасини аниқлаш эса минимал суғоришнинг мақсадга мувофиқлигини кўрсатади, кўп маротаба ишлов беришга қарши бир ўтишда бир нечта операцияларни бирлаштириш йўли билан қаторлараро ишлов беришни минималлаштириш лозим.

Масалан, саккиз марта ишлов берилганда диаметри 0,25 дан 10 мм гача бўлган фракциялар йиғиндиси ҳосил бўлади. (вар. 1,2 ва 3) -58,8-58,5%, беш марта ишлов берилганда эса (вар. 4,5 ва 6) -58,8-62,2% ни ёки назорат вариантыга нисбатан 3,0-4,0% ни ташкил этди. Қатор ораларига ишлов беришни минималлаштиришнинг тупроқнинг уваланиш даражасига ижобий таъсири Чимбой-5018 навида ҳам кузатилган.

Демак, тупроқнинг структуравий ҳолати яхшиланганда ғўзанинг нормал ўсиши ва ривожланиши учун қулай шароит яратилади. Тракторнинг қатор ораларига ишлов беришни бир ўтишда бир нечта амалларни бажариш орқали учта ўтишга қисқартириш ёкилғи-энергетика сарфини 28-40% га тежашни таъминлайди. Бунда 8 марта ишлов беришга нисбатан қўшимча пахта ҳосили 0,7-2,0 ц/га ни ташкил этади.

Турли ишлов беришда юмшатишган қатламда тупроқнинг уваланиш даражаси, %, фракция ўлчами 10-0,25 мм.

№	2021.й.		2022.й.		2023.й.	
	1- культивац ия дан кейин	2- суғориш дан кейин	1- культивац ия дан кейин	2- суғоришд ан кейин	1- культивац ия дан кейин	2- суғоришд ан кейин
1	58,2	58	55,8	61,3	60,6	60,3
2	59,3	55,8	54,3	57,5	60	60
3	58,3	58,5	55,5	58,3	58,6	61,4
4	60,4	58,8	56,6	62,6	62,8	61
5	60,9	59,5	57	58,3	61,5	61,6
6	60,9	62,2	55,9	59,3	59,6	67,4
7	60,1	58,2	55,1	60,4	56,9	65,1
8	58,4	58,6	56,8	58,7	56,5	63,8
9	58,2	57,1	56,8	58,1	58,7	62,7
10	61,9	62	56,1	61	59,1	66,1
11	60,3	59	58,9	59,1	56,4	67
12	59,7	58,5	57,3	58,8	59,8	63,2

Хулоса. Шундай қилиб, ғўза қатор ораларига ишлов беришда трактор агрегатининг бешта ўтишида барча операцияларни бир вақтда бажариш самаралироқ ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Ахмедов Я.М., Зайсев В.С. О совместении тракторных операций на возделывании хлопчатника. // Пахтачилик.1999. №5 С. 26-28
2. Багирова Р. Тупроқ ичидаги суғориш қатор ораларига ишлов беришни минималлаштириш йўли. / Вестник с-х науки. 2000. №1
3. Исмаилов У.Е. Научные основы повышения плодородия почвы. – Нукус. –Билим. -2004. -186 с.

**II-SEKCIYA. ÓSIMLIKSHILIK, MIYWE-SAVZABOT HÁM PALIZ
EGINLERIN JETISTIRIW, AGROXIMIYA, ÓSIMLIKLERDI QORǴAW
MASHQALALARIN SHESHIWDEGI KÓZ QARASLAR**

UDK: 63.635.635+044

**TARVUZ URUG'INING UNUVCHANLIGINI LABORATORIYA
SHAROITIDA ANIQLASH**

*A.S.Abdigapbarov, M.J.Erejepova, O.G.Ahmedov.,
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti.*

Аннотация. В этом статье высказывается, как можно определить всхожести семян арбуза, о его показаний качеств. Влияние и нормы температур, о продлений анализных дни, методы проведений всхожести семян на термостате. В нём высказывается как можно определить о энергии прорастаний и всхожести семян.

Annotation. In this article, it is stated how it is possible to determine the germination of watermelon seeds, about its indications of qualities. The influence and norms of temperatures, about the extension of the analysis days, methods of seed germination on the thermostat. It expresses how it is possible to determine the energy of germination and germination of seeds.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bóyicha "Yo'l xarita"si tasdiqlanganligi sababli, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini táminlash va iste'mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish nazarda tutildi. Shu oziq-ovqat sirasiga, tarvuz poliz mahsuloti xam eng muhim poliz ekinlaridan hisoblanib, iste'mol uchun katta ahamiyatga ega.

Tarvuz (lat. *Citrullus lanatus*) – qovoqdoshlar oilasiga mansub o'simlik (*Cucurbitaceae*) turiga mansub bir iylik o't o'simligi. Tarvuzning vatani Janubiy Afrika hisoblanadi [3]. Tarvuz *Citrullus* turkumiga kiradi. Madaniy tarvuzning ikkita xo'raki (*Citrullus vulgaris* Schrad) va xashaki (*Citrullus patesca* Sagent) turi hamda taxir mazali bir necha yovvoyi turi malum.



Tarvuz – A, S, E vitamin, V guruhi vitaminlari, magniy, kaliy, kaltsiy, fosfor, temir va natriy moddalarini o'zida saqlaydi. Tarvuzning 91 foiz qismi suvdan iborat. Bundan tashqari, u kam kaloriyali poliz mahsuloti hisoblanadi. 100 g tarvuzda atigi 38 kaloriya mavjud. Yangi tarvuzda 5-13 foizgacha engil

birikadigan qand mavjud. Tarvuz kesilganda fruktoza va glyukozalari umumlashadi. Saxaroza (qand) bunga qaraganda kechroq hosil bo'ladi. Shuning uchun qandli diabetga chalinganlarga barra kesilgan tarvuzdan kam miqdorda iste'mol qilish tavsiya etiladi [3].

Asosiy bo'lim. Ma'lumki, qishloq xo'jalik ekinlari urug'larini ekinboplik sifat ko'rsatkishlari 2 usulda aniqlashga bo'ladi: dala va laboratoriya sharoitida.

Urug'larning o'nuvchanligini 2 usulda tekshirganda, orasida deyarli farq bor, ya'ni laboratoriya usulida urug'larning unuvchanligini tekshirganda unda aniq natijaga erishishga bo'ladi va shuning bilan birga ekish meyorida aniqlashga bo'ladi, dala sharoitida bo'lsa unday aniq natijaga erishish qiyin kechadi [2].

Biz bu taxlilni o'tkazish ob'ekti qilib, «Agrosanoat majmuida hizmatlar ko'rsatish markaz»i Qishloq xo'jaligi urug'larini ekinboplik sifat ko'rsatkishlarini aniqlash laboratoriyasida olib borildi. Bu tadqiqot davlat standartini normativ xujjatlar asosida olib borildi. Dastlab tarvuz urug'i olingan namunadan iflosligidan ajritib, unuvchanligini aniqlash uchun 50 donadan ikkita naveska, yaniy 100 dona subnamuna olamiz.

Tajriba o'tkazish tartibi:

Biz laboratoriya sharoitida urug'larning unuvchanligini aniqlash uchun Xait qora va Qo'ziboy-30 navlarini taxlil qilib ko'rdik. Eng avvalo, iflosligi aniqlangan urug'lardan 100 dona ya'niy ikkita navdan jami bo'lib 200 dona urug' ajratamiz.

Ekish uchun maxsus idishchaga (bannochkaga) tagiga qum tushaymiz. Sung ustiga pipetka yoki leyka bilan shu idishchaga fil'tr qog'ozni namlaymiz. Namlangan idishga 50 donadan, urug' oralari ochiq holda (bir-biriga tegmaslik kerak) ekish kerak [4].

Idishlarga urug'larni joylab b'olib, termostatni tayorlaymiz. TPS -180 markali termostatni 15-20 °S darajaga quyamiz. Termostat ishidagi (kameradagi) issiqlik 15-20 °S b'olganda ekilgan idishchadagi urug'larni har polkaga q'oyiladi. Ekilgan vaqti, sanasi daftarchaga yozib q'oyiladi [4].



Umuman GOST 12038-84 standart talabi b'oyicha qovoq urug'ining unuvchangligi 4/10 kun, yaniy 4-shi kuni o'sish energiyasini tekshiradi, 10-shi kunga kelib (yaniy 6 kun o'tkandan s'ong) unuvchanligini tekshiradi [2].

Ekin turi	Naveska, gr yoki dona	Harorat oS	Substrakt	Kuni	Sinfi	Tozaligi, %	Unuvchanligi, %
Tarvuz	50x4	25	Filtr qog'ozi	4/10	1	99	95
					2	96	80

Har kuni ekilgan urug'larni shu oldin ekilgan vaqt bo'yicha termostat eshigini ochib (5-10 daqiqa) shamollatiladi, so'ng urug' ekilgan idishlarning urinlari almashtiriladi, yaniy 10 kun davomida termostat ishidagi urug' bor idishlar har bir polka buylab va har bir tochkaga joylab borilishi kerak. Idishlarga ozgina miqdorda suv (qaynatib, sovutilgan, distillangan suv) quyiladi, so'ng termostat eshigi bekitiladi.

Tadqiqot natijalari. Bu jarayon 10 kun davomida birdek vaqtda amalga oshiriladi. 4-shi kuni bo'lganda urug'larning o'sish energiyasi aniqlanadi.

1-jadval

Navi	№	Ekilgan urug' soni	Urug'larning osib chiqish energiyasi, dona.	O'sish energiyasi, o'rtacha %
Xait qora navi	1-idishcha	50	38	38,5
	2-idishcha	50	38,5	
	3-idishcha	50	39	
	4-idishcha	50	38	
Qo'ziboy-30 navi	1-idishcha	50	37,5	37,5
	2-idishcha	50	38,5	
	3-idishcha	50	37	
	4-idishcha	50	36,5	

Bunda 4 idishga ekilgan urug'larni laboratoriya stol ustiga chiqariladi va har bir idishni alohida-alohida pincet bilan unib chiqqan urug'larni unib chiqmaganidan ajratib boshlaymiz. Demak, tarvuz urug'ining osish energiyasi Xait qora navida 38,5 %, Qo'ziboy -30 navida esa 37,5 % ni tashkil etdi.

Xali o'sib chiqmagan urug'larni qaytadan suv tomizib yana termostatga joylashtiramiz. Umuman 10-shi kuni urug'larning unuvchanligini aniqlaymiz. Buning uchun urug' joylashgan idishlarni laboratoriya stol ustiga qoyip pincet bilan unib chiqqanini chiqmaganidan ajratamiz (2-jadval).

Navi	№	Ekilgan urug' soni	Urug'larning unuvchanligi, dona.	Umuman unuvchanligi, %
Xait qora navi	1-idishcha	50	10	11
	2-idishcha	50	11	
	3-idishcha	50	12	

	4-idishcha	50	11	
Qo'ziboy-30 navi	1-idishcha	50	9	9,5
	2-idishcha	50	10	
	3-idishcha	50	9	
	4-idishcha	50	9,5	

Yaniy 4-idishtagi urug'larning o'rtacha unuvchanlik darajasi aniqlaganimizda Stofundovaya navida 11 %, İspanskaya-73 navida esa 9,5 % ni tashkil qildi.

Xulosa qilib aytganda, Xait qora navi urug'ining o'sish energiyasi va unuvchanligi o'rtacha $38,5+11=49,5\%$, Qo'ziboy-30 naviniki esa $37,5+9,5=46,75\%$ ni tashkil etdi. Demak, bizlar laboratoriya sharoitida sinovga qo'iylgan Xait qora navi urug'ining unuvchanligi 98,75 % bo'lsa, Qo'ziboy -30 naviniki esa 93,5 % ni tashkil qildi. Xait qora navi o'nuvchanligi bo'yicha 1-sinfga, Qo'ziboy -30 navi esa 2-sinf talablariga javob berdi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Ostanqulov T.E. // Poliz etishtirish texnologiyasi - 2003 yil, b. 358-359.
2. Xakimov R.A., Xakimova A.S., Toshmuxammedov A.A. // Poliz va poliz ekinlari urug'chiligi – 2003. B. 14,24.
3. Ostanqulov T.E., Zuev V.İ., Qodirxo'jaev O.Q. // Sabzavotchilik-2009 yil, b-302-310.
4. ГОСТ 12038-84. Методы определение всхожести семян арбуза. М. 2009.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA BODRING (CUCUMIS SATIVUS L) O'SIMLIGINI ETISHTIRISHNING ENG QULAY EKISH SXEMALARINI ANIQLASH

*Allanjarova Gulbaxar Axmedovna
Erejepova Gulbaxar Tajetovna*

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi tuproq iqlimi sharoitida erta bahorda bodring o'simligini etishtirishning eng qulay ekish sxemalari va undan yaxshi natija olish mumkunligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar. Bodring, sxema, o'simlik, muddat, tajriya, unuvchanlik, nav, gibrid.

Kirish. Bodring – (lotincha: Cucumis sativus) bir yillik, issiqsevar o'simlik. Urug'i unib chiqishi uchun minimal harorat 12-13° C, harorat past bo'lganda esa urug'lar bo'rtsada, unib chiqa olmaydi, oqibatda tuproq ichida chirib ketishi mumkin. Maqbul sharoitlarda, yani 25-30° C urug'lar 5-6 kunda unib chiqadi. Bodring o'simligi o'sib rivojlanishi uchun maqbul kunduzgi harorat 25-32° C, kechasi esa 16-18° C. Kunduzi harorat 12-15° C dan pasayganda o'sishi sustlashadi, chang hosil bo'lishi qiyinlashadi, barglari kichrayadi. Past haroratli

sharoitlarning uzoq davom etishi barglarining sargʻayishi, ildiz tizimi faoliyatining sustlashishi va ahir-oqibatda oʻsimligining nobud boʻlishiga olib kelishi mumkin.

Tuproq harorati ham bodring oʻsishiga tasir koʻrsatadi. Tuproq harorati 16° C dan past boʻlganida ildizning tuproqdan suv va mineral moddalarni soʻrishi sustlashadi. Yuqori hararotlar 40° C ham bodring oʻsimliklariga salbiy tasir koʻrsatadi, ammo ular qondirib sugʻorilsa va yorugʻlik nurlari yetarlicha boʻlsa oʻsib, meva hosil qilaveradi. Yuqori harorat va havoning namligi past boʻlgan sharoitlarda ayniqsa koʻp suv talab qiladi. Bodring tuproq namligiga va havoning nisbiy namligiga juda talabchan ekin turidir. Tuproqda namlik etishmasa oʻsishi sustlashadi, kunduz kuni barg turgori yoʻqolishiga (soʻlishiga), asosan erkak gullar paydo boʻlishiga va mevalarida achchiqlik paydo boʻlishiga olib keladi.

Shuningdek tuproqning keskin nam boʻlishi, masalan tuproqning suvga boʻkib qolishi ham qisqa muddat ichida bodring oʻsimligining nobud boʻlishiga olib keladi. Vegetasiya davrining davomiyligiga qarab erta pishar, oʻrta-erta pishar va kechki navlarga boʻlinadi. Erta pishar navlar unib chiqqandan soʻng 32-48 kunda, oʻrta-erta pishar navlar 50-55 kunda, kechkilari esa 55-70 kunda meva tugib boshlaydi.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda dunyo miqyosida meva va sabzavotlarni kunlik isteʼmol ehtiyojini taminlovchi sogʻlom ovqatlanishni tashkil etishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Sabzavotlar ichida bodring asosiy ekinlardan biri boʻlib, uni ishlab chiqarish hajmini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash muhim ahamiyatga ega.

Dunyo boʻyicha bodring ekilgan umumiy maydonlar 2 mln. 496 ming gektarni, yalpi mahsulot hajmi esa 83,8 mln. tonnani tashkil etmoqda. Yalpi mahsulot hajmi boʻyicha soʻnggi yillarda Xitoy (65 mln tonna), Eron (1981 ming tonna), Rossiya (1940 ming tonna), Turkiya (1827 ming tonna) va AQSh (956 ming tonna) yetakchilik qilmoqda.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi sharoitida bodringni etishtirishda eng qulay ekish sxemalarini qoʻllash, boʻyicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bodring ovqat hazm qilish bezlarining faoliyatini va soʻlak ajralishini meʼyorlashtirib, oqsil moddasini yanada yaxshiroq oʻzlashtirilishini taminlaydi. Shuning uchun bodringning suvli boʻlakchalari taomni nafaqat chiroyli va xushtaʼm qiladi, balki hazm qilish jarayonini ham yaxshilaydi.

Bodring qondagi xolesterin miqdorini kamaytiradi, buyraklar salomatligini mustahkamlaydi. Muntazam ravishda isteʼmol qilinsa, saraton xavfini bartaraf etadi. Ovqat hazm qilish tizimiga yaxshi samara koʻrsatadi va ortiqcha vazndan xalos boʻlishga koʻmaklashadi. Sharbati isitma tushirish xususiyatiga ega, yoʻtal, boʻgʻim kasalliklari, yurak bilan bogʻliq shishlarda foyda beradi. Bodring poʻstlogʻi yuzning rangi va tiniqligini saqlashda, teri kuyishi hamda shishlar paydo boʻlganda yordam beradi. Poʻstining quritib ezilganidan teri kasalliklari va toshmalarda foydalanish tavsiya etiladi.

Bodring allergiya chaqirmaydi, shu sababli uni allergik kasalliklarga chalingan bemorlar bemalol isteʼmol qilishlari mumkin. Uzluksiz davom etgan mehnat faoliyati sabab bazan koʻz atrofida, pastki qovoqlarda qorayish kuzatiladi.

Bu holatda bodring parrak shaklda kesib, 3-5 daqiqa davomida muzlatkichda sovuting va 10 daqiqaga qoraygan joyga qo'ying. Xuddi shu usul yuzdagi husnbuzar va qora dog'larni ketkizishda, quyosh nuri sabab kuygan joylarni zararsizlantirishda ham samarali bo'ladi.

Taqdiqot ob'ekti va metodikasi. Taqdiqot ilmiy ishlari 2024-yili Nukus tumani Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari institutiga qarashli "Uchxo'z" o'quv tajriyba xo'jaligida olib borildi. V.F.Belikning "Методика опытного дела в овощеводстве и бахчеводстве", "Методические указания по экологическому испытанию овощных культур" nomli qo'llanmalarida keltirilgan uslublar asosida olib boriladi. Taqdiqot natijalarining statistik tahlili B.A.Dospexovning "Методика полевого опыта" dispersion uslubi asosida olib borildi.

Taqdiqot natijalari. Tajriybaning 1-muddati 20-mart, 2-muddati 1-aprel, 3-muddati 10-aprel, 4-muddati 20-aprel kunlari olib borildi, 1-muddatdagi yani $\frac{120 \times 70}{2}$ sm 20-mart kungi qo'yilgan tajriyba sxemasi puchtalar orasi $\frac{120 \times 70}{2}$ sm o'simliklar orasi 70x25 sm, 2-muddatda 1-aprel kungi tajriyba puchtalar orasi $\frac{120 \times 70}{2}$ sm, o'simliklar orasi 70x30 sm sxemada, 3-muddatdagi tajriyba ekish sxemasi puchtalar orasi $\frac{120 \times 70}{2}$ sm, o'simliklar orasi 70x35 sm sxemada, oqirgi 4-muddatda qo'yilgan tajriyba esa puchtalar orasi $\frac{120 \times 70}{2}$ sm o'simliklar orasi 70x40 sm sxemada bodring o'simligi urug'idan ekildi. Tajriybani olib borishda bodring o'simligining Nafis, Navruz, Zilol mahalliy navlari va Accent F₁, Sakata F₁, Lider F₁ duragaylari tanlab olindi.

Taqdiqotlarimiz natijalarida bodring o'simligining o'sib rivojlanishining fenologik bosqishlarini kuzatib eng oqirgi muddatda ekilgan tajriyba sxemasi oldingni muddatlarda ekilgan tajriyba sxemalariga taqqoslaganda 5 kunga tezlashdi.

O'simlikdagi barglar soni, unuvchanligi va o'simlik poyasining o'lchami esa ekish sxemasi puchtalar orasi $\frac{120 \times 70}{2}$ sm, o'simlik orasi 70x40 sm ekish sxemasida ko'proq bo'lishini ko'rsatdi.

O'simliklarda birinchi tajriybada puchtalar orasi $\frac{120 \times 70}{2}$ sm, o'simliklar orasi 70x25 sm sxemada ekilgan bodring o'simliging ko'karib chiqishi 15 kundi talab qilgan bo'lsa, ikkinchi tajriybada ekilgan puchtalar orasi $\frac{120 \times 70}{2}$ sm, o'simliklar orasi 70x30 sm sxemada bodring o'simligi urug'lari 10 kundi, uchunchi tajriyba puchtalar orasi $\frac{120 \times 70}{2}$ sm, o'simliklar orasi 70x35 sm sxemasi esa 7 kundi va oqirgi to'rtinchi tajriyba puchtalar orasi $\frac{120 \times 70}{2}$ sm, o'simliklar orasi 70x40 sm sxemasidagi bodring urug'lari 5 kundi talab qildi.

Tajriybadagi bodring o'simligining fenologik baholash natijalari.

Ekish sxemasi	Urug'larning ko'karib chiqishi, kun	Barglarning unuvchanligi, %	O'simlik poyasining o'lchami, sm	O'simlikdagi barglar soni, dona
70x25	5.04	5,9	14,8	9
70x30	10.04	6,3	17,1	14
70x35	17.04	7,0	21,6	19
70x40	25.04	7,9	23,9	21

Xulosa. Taqdiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, Qoraqalpog'iston Respublikasi tuproq iqlimi sharoitida erta bahorda bodring o'simligini etishtirish uchun eng qulay ekish sxemalari aniqlandi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi tuproq iqlimi sharoitida bodring o'simligining erta bahorgi muddatlarda qulay ekish sxemalarda ekish natijasida bodring o'simligidan yaxshi hosil olish mumkun. Olib borilgan tajriyba ekish

sxemalarida puchtalar orasi $\frac{120 \times 70}{2}$ sm, o'simliklar orasi 70x40 sm sxemalarida ekish tavsiya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdunazarov Ya.Ya, Zokirov , Q.G'. "Sabzavotchilik". Toshkent-2019. B.74-75.
2. Azimov B.J, Azimov B.B. "Sabzavotchilik polizchilik va kartoshkachilikda tajriybalar o'tkazish metodikasi. Toshkent-2002. B.217.
3. Belik V.F. "Методика опытного дела в овощеводстве и бахчеводстве". Moskva-1992. B.320.
4. Dospexov B.A. "Методика полевого опыта". Moskva-2011. B.648.
5. Ostanauqulov T.E, Zuyev V.I, Qodirxo'jaev O.Q. "Sabzavotchilik". Toshkent-2010. B.312.
6. Ostanauqulov T.E, Zuyev V.I, Qodirxo'jaev O.Q. "Sabzavotchilik". Toshkent-2010. B.77.

УДК 634.8:581.52

**ЖАМБЫЛ ОБЛЫСЫ ЖАҒДАЙЫНДА 2023-2024 ЖЫЛҒЫ
ҚЫСҚЫ СУЫҚТАН ЗАҚЫМДАЛҒАН ЖҮЗІМ БҰТАЛАРЫН
ЖЫЛДАМ ҚАЛПЫНА КЕЛТІРУ ЖӘНЕ ЖҮЗІМНІҢ ТОЛЫҚ ӨНІМІН
АЛУ**

Сейтбаев Қ.Ж.

Ауыл шаруашылығы ғылымдарының кандидаты, Ш.Мұртаза атындағы Халық аралық Тараз инновациялық университеті. Қазақстан Республикасы Жамбыл облысы.

Дильманова А.

Аннотация. Мақалада 2024 жылдың табиғи климаттық жағдайлардың өзгеру шегін толық қарастырады. 2023-2024 жылдың бірінші жартысында климаттың экстремальды көріністеріндегі жүзім дақылының күйлері, атап айтқанда Жамбыл облысы жағдайында жүзім өсіру үшін суыққа төзімді сорттарды анықтау болып табылады.

Кілт сөздер: жүзім шаруашылығы, климат, төзімді сорттар, суық, аяз.

Кіріспе. Жамбыл облысының климаттық жағдайлары жүзім дақылын өсіруге қолайлы деп санауға болады. Соңғы кездері климаттың жахандық өзгеру процестері, негізінен жылыну арқалы көрінеді, алайда Жамбыл облысы жағдайында жүзімнің өнеркәсіптік мәдениетін дамытудың бірден бір шектеуі - қыстың төмен температурасы жүзім плантацияларын қыста топырақпен көму қажеттілігін туындатады. 2022- 2024 жылдарда ауаның температурасы қыс айларында желтоқсан және қаңтар айларында 30 градусқа дейін төмендеді. Соңғы екі жылда пайда болған ерекшеліктер алдағы онжылдықтарда жүзім дақылдарын өндірістік мақсаттарда егу үшін аймақтың табиғий климат жағдайына бейімделген суыққа төзімді сорттарды таңдауды қажет етеді.

Жамбыл облысы жағдайында тұрақты оң температура бүкіл сәуір айында 10 градус болған болса ал күндізгі температурасы 18 градустан аспады. Жауын шашын мөлшері жылдық нормадан жоғары болды. Көктем бойы жауын шашынның жоғары деңгейі байқалды, мамырдың екінші бес күнінде көктемнің аяздары кеш мезгілде пайда болды.

2023-2024 жылдары көптеген егін алқаптарында жеміс ағаштары және жүзім сорттары суықтан зардап шекті.

Жамбыл облысында егілген қысқа бойылы қарқынды бақ шаруашылығында 500 гектар алама бағы суықтан набыт болды

Соңғы жылдары ауа райының көрінісері жаңа климаттық тепетеңдікке көшу процесінде климаттық құбылыстардың теңгерімсіздігі болып табылады. Сонымен, соңғы 40 жылда облыс аумағына суық ауаның пайда болуы нақты механизмдері айқын көрініс табуда. Сонымен қатар, көктемгі аяздарда жүзім үшін ең қауіпті құбылыстардың бірі болып табылады, бұл жүзім өнімділігінің күрт төмендетеді. Осындай қалыптан тыс ауа райының салдарынан жүзімдіктерде қалпына келтіруге артық қаражат жұмсалады, өзіндік құны артады және өнімнің бәсекеге қабілеттілігі төмендейді [1,2,3]

Зерттеу жұмысымыздың мақсаты 2023-2024 жылдың бірінші жартысында климаттың экстремальды көріністеріндегі жүзім дақылының күйлері, атап айтқанда Жамбыл облысы жағдайында жүзім өсіру үшін маңыздылығын анықтау болып табылады.

Зерттеу объектілері мен әдістері. Зерттеу жұмыстары 2022-2024 жылдары Жамбыл облысы Агробиологиялық ғылыми зерттеу орталығы

сортты жүзім колекциясы бойынша жүргізілді. Коллекция алаңының ауданы 1200 м кв. Дұрыс пішінді құрылған. Өртүрлі жүзім сорттарының мөлшері 7 дана үлгіге дейін мөлшерленген. Жүзім дақылының қысқы зақымдану дәрежесін 7 балдық шкаласы бойынша анықтадық.

1-балл- зақымданбаған;

2- балл- шамалы зақымданған;

3-балл- орташа зақымданған;

4-балл- бұталардың айтарлықтай зақымдануы 60 пайызға дейін;

5- балл - бұталардың қатты зақымдануы 90 пайызға дейін (өткен жылғы және одан да үлкен ағаш жүзімдерінің ішінара зақымдануы;

6-балл - вегетативті өркендердің толық зақымдануы, екі және көпжылдық жүзім жартылай немесе толығымен зақымданған, бұтаның жер үсті бөлігі іс жүзінде қалпына келетін өркендерді бермейді;

7-балл- толығымен жер үсті бөлігі зақымданған,

Қолайсыз қысқы жағдайлар, атап айтқанда аяздар жүзім өсімдігінің жекелеген бөліктерінің зақымдану сипаты мен дәрежесіне әртүрлі әсер етеді. көпжылдық ағаштанған бұталар, жеңдер ең үлкен деген аязға төзімді келеді. Ал бір жылдық бұталар аязға төзімділігі төмен. Жетілген өркендер негізгі өркендерге қарағанда аязға төзімді екені анықталды.

Жүзім бүршіктерін талдаумен бір мезгілде әрбір өсіндіде тіндердің зақымдануы анықталады. Осы мақсатта бұтаның әртүрлі жағынан пышақпен бойлық және көлденең кесулер жасалады және камбийдің, өзектің және диафрагманың зақымдану дәрежесі анықталды. Зақымданған жүзім бұтақтарында флоэма ашық жасыл түсті болады. Төмен температурада жүзім бұтағының зақымдануының 3 дәрежесі бар:

А) өзекке іргелес ағаш қабаттары ішінара қызарған аздап зақымдану бар;

Б) орташа зақымдану, көлденең қимада зақымдалған талшықтардың қызарған ішкі қабаттары анық көрініс табады;

В) өркеннің барлық көлденең қимасы қара қоңыр түске ие боған кезде ауыр зақымдану, яғни ағаш өзегіне дейін өледі. Зақым қатты болса, камбий өледі, бұл бүкіл бұтаның өліміне әкеледі. Жеңіл және орташа зақымдану кезінде жүзім бұтасының ұлпасы әдетте тірі, ашық жасыл болып қалады және жаңа флоэма мен ағаш тінін құра алады. Зақым қатты болса камбий өледі бұл бүкіл бұтаның өліміне әкеледі.

Бұтаның көпжылдық бөліктері аяздар өткеннен кейін жүзім түптерінде зерттеледі. Бұтаның көпжылдық бөліктерінде зақымданудың болуы бойлық бөлімдерімен де анықталады. Пышақтың көмегімен жеңнің, жер үсті діңнің және қажет болған жағдайда жер асты діңінің ұзындығы бойынша төрт жағынан жіңішке бойлық кесу жасап анықтауға болады.

Зақыманған тіндердің түсі қою қоңыр болады. Тексеру кезінде жер асты бөліктері қазып, зақымдану тереңдігі анықталады. Топырақтың терең мұздауы жүзім бұтасының тамыр жүйесіне елеулі зиян келтіруі мүмкін. Сараптама үшін тамыр жүйесін бірдей өсу жағдайлары бар бір сорттың 5 бұтасының учаскесінің әртүрлі жерлерінде таңдалады. Көктем айында

топырақ ерігеннен кейін бұта бір жағынан 30-40 см тереңдікте ашылып, тексеріледі. Бұзылмаған тамырлар сарғыш реңкпен таза ақ кесінді береді. Аяздан зақымдалған тамырлар кесілген кезде қою немесе қызғылт түсті болады.

Алынған мәліметтер мен талдау нәтижелері бойынша қысқы аяздан зақымданған бұталарды кесудің және қалпына келудің арнайы әдістеріне ұсыныстар әзірленеді.

Бұталардың зақымдану дәрежесіне қарамастан, кесу техникасын әзірлеу кезінде келесі принципті сақтау керек. Шаруашылықтағы жүзім екпелерінің бүкіл аумағы қысқы аяздың бұталардың зақымдану дәрежесіне қарай бірнеше топқа бөлінеді.

Зерттеу нәтижелері: Қысқы аяздар ең алдымен жүзім бұтасының бүршіктерін, содан кейін біржылдық өркендердің және көпжылдық ағаштардың өткізгіш ұлпаларын, ең соңында жер асты діңі мен тамырларын зақымдайды. Суықтың жылдық бұталарға әсері, ең алдымен, диафрагманың жоғарғы қабаттарының тіндеріне және өзекті қоршап тұрған ағаштың ең жақын бөліктеріне әсер етеді. Зақымданудың бұл түрі ешқандай зиянды әсер етпейді.

Кейіннен суық бүкіл диафрагманы және өзекке іргелес ағаш қабаттарын зақымдайды, бірақ бүршік зиянсыз қалады. Суықтың одан әрі әсер еткенде бүршіктер зардап шегеді және зақымдалады. Бүршікте гүлшоғыры бар орталық бүршік алдымен өледі. (қоңыр түске айналады).

Қалыпты піскен негізгі өсінділер мен стандартты қалыңдықтағы өркендердің бүршіктері мен тамыр тіндерінің аязға төзімділігі жоғары. Өскіннің негізінде орналасқан бүршіктер, әдетте аязға төзімді, бұл олардың ерте пісуі мен қалыптасуымен байланысты. Ұйқыдағы бүршіктер мен аязға ең төзімді келеді.

Бір жылдық бұталардың және көпжылдық бөліктерінің өткізгіш тінінің зақымдануы келесі суреттерді береді:

-өркендердегі ағашы балғын және жасыл. Бұл бұзылмаған бүршіктер болған кезде қалыпты өсу мен жеміс беруді қамтамасыз етеді;

-ағаш бөлігі тірі, бұл жағдайда аман қалған бүршіктері дамуы мүмкін;

-ағаштың толық қызаруы, бұл жағдайда бұтаны өлі деп санауға болады, өйткені мұздаған тін арқылы қалыпты шырын ағыны мүмкін емес.

Суықтың әсерінен жемісті орталық бүршік зақымданса, бүйірлік бүршіктердің күйі де ескеріледі, мұндай бұталарды кесу әдеттегідей жүргізілуі керек. Кесу міндеті үлкен жүктемені қалдыру арқылы мүмкін болады. Көктемден пайда болған артық бұталар сынған кезде жойылуы мүмкін көбірек зақымдалған болса, онда бұтаны ұзақынрақ кесуге болады.

Егер көздер жоғары бөлікте көбірек зақымдалған болса, онда кесу қысқа болуы керек және бүршіктер саны көп қалдыру керек. Бүршіктердің зақымдануы 10 пайыздан асса, кесу әдісін өзгерту қажет болады. Бүршіктердің өлуінен болған шығынның орнын толтыру үшін қалған бүршіктердің жалпы саны негізгі бүршіктердің өлу пайызына сәйкес көбейтіледі. Мұндай жерлерде кесу кезінде мүмкіндігінше көп жылдық бұтақ

пен жақсы дамыған бұтақтарды қалдыру керек. Бұл бұталардың жер үсті бөлігі мен олардың тамыр жүйесі арасындағы бұзылған қарым қатынасты жылдам қалпына келтіруге ықпал етеді. Біріншіден, алдын ала кесу жүргізіледі, оның барысында тек жетілмеген және піспеген бұталар алып тасталады, ал суықтан зақымданған бөліктер толығымен кесіп тасталынады. Соңғы кесу жұмыстары көктемде жас өскіндер пайда болған кезде басталады. Сонымен қатар өткен жылғы бұталар немесе олардың бүршіктері дамымаған бөліктері жойылады. Бұл операция гүлдену басталғанға дейін 10-12 күн бұрын аяқталуы керек. Кесу кезінде жемісті бұталардың қажетті саны қалады, егер олар жетіспесе, орынбасар бұталар мен толықтырылады. Егер жемісті бұталар болмаса, бұтаны қалпына келтіру үшін жеміссіздер қалдырылады.

Алдын ала кесу бұтаның барлық анық жарамсыз бөліктерін алып тастаудан тұрады, бұл ұйқыдағы бүршіктерден және ұйықтап жатқан бұтақтардың дамуын жеделдетеді. Бұталарды бұтаның көпжылдық бөліктерінен ұйықтап жатқан бүршіктерді ояту арқылы қалпына келтіруге болады.

Дамыған бұталар саны жеткіліксіз бұталарда, оларда 9-11 буын пайда болғаннан кейін, жапырақ бетін және тұтастай алғанда олардың күшін қалпына келтіру үшін 2-3 буынның үстіңгі жағын алып тастап, күшті өсінділерді кесу қажет. Бұл келесі жылы жеміс беруге жарамды өгей бұталардың дамуын қамтамасыз етеді. 10-20 күннен кейін әлсіз және артық өгей бұталарды алып тастау керек.

Жүзім бұталарын кесу кезінде қыстайтын көздердің бүршіктерінің зақымдану дәрежесін, сондай ақ коэффициенттерді ескеру қажет болады. Белгілі бір сорттың суыққа және аязға төзімділігін қандай екенін ғана емес, сонымен қатар оның қыстауға қолайыз жылдарда жеткілікті толыққанды өнім алу қабілеті қандай екенін білу маңызды. Бұл сорттың орынбасар бүршіктерден жемісті бұтақты қалпына келтіру арқылы қысқы қиындықтан туындаған егін жинаудағы шығындарды өтеу қабілетін анықтауды білдіреді. Жүзім өсімдігінің қалыпты жұмысын қалпына келтіру кезінде суыққа төзімділікпен және қысқы төзімділікпен бірге органдардың қалпына келу қабілетін есеру қажет.

Аннотация: Мазкур мақолада Тошкент вилояти шароитида ўстириладиган истиқболли ЎзПИТИ-103 ва Равнақ-1 ғўза навларининг фенологик кузатувлар асосидаги ўсиши, ривожланиши, ҳосил элементларининг шаклланиши ёритиб берилган. Шунингдек қўлланиладиган агротехник тадбирларни тўғри ва мақбул муддатларда ўтказишнинг юқори ҳосил тўпланишидаги самарадорлиги ўрганилган.

Калит сўзлар. Ғўзанинг ўрта толали ЎзПИТИ-103, Равнақ-1 навлари, ўсимлик бўйи, ҳосил шохи, шона, гул, кўсак, ҳарорат, ёғингарчилик миқдори

Кириш. Тажриба олиб борилган Тошкент воҳаси географик жойлашувига кўра, мамлакатимизнинг марказий минтақаси ҳисобланиб, табиий иқлим шароити кескин континентал ҳисобланади. Қиш ойларида иқлимнинг кескин ўзгарувчанлиги, ёз ойларида эса ҳароратнинг юқорилиги, тоғолди ва текислик қисмида қор қатламининг узоқ муддат сақланмаслиги ҳамда тупроқдан сувнинг буғланиши юқорилиги билан тавсифланади. Воҳанинг шимолий-шарқ йўналиши бўйлаб шамолнинг кўп эсиб туриши минтақанинг ўзига хос табиий хусусиятларидан биридир.


Тадқиқотнинг долзарблиги. Ғўза ўсимлигининг ўсиб ривожланишида, бир фазадан иккинчи фазага ўтишида табиий иқлим шароити, яъни ҳаво ҳарорати, намлиги, ёғингарчилик миқдори, эсаётган шамол тезликлари ва бир қатор табиий омиллар муҳим аҳамиятга эга. Чунки, ўсимлик танасида кечадиган ҳар қандай физиологик-биокимёвий жараёнлар, реакциялар маълум ҳарорат, намлик ва ёруғликда содир бўлади. Ҳар бир ҳудуднинг табиий иқлим ва тупроқ шароитлари, ғўзани парваришlashда ўтказиладиган агротехник тадбирлар етиштириладиган хом-ашёнинг миқдорига ва сифатига ўз таъсирини кўрсатади. Шу муносабат билан тажриба ўтказилган йилларда ҳудуднинг табиий иқлим шароитлари асосий омиллардан бири сифатида аниқланиб таҳлил қилиниши ҳар доим дозарб мавзу бўлиб келган.

Тадқиқот объекти ва усуллари. Тадқиқот объектисифатида Тошкент вилоятинингсуғориладиган типик бўз тупроқлари, ғўзанинг ўрта толали ЎзПИТИ-103 ва Равнақ-1 навлари, яганалаш муддати, кўчат қалинлиги, чилпиш муддатлари олинган. Илмий изланишларда дала тажрибалари, фенологик кузатувлар, лаборатория таҳлиллари эса “Методика полевых опытов с хлопчатником” Дала тажрибаларини ўтказиш услублари” қўлланмалари асосида ўтказилган. Ҳосилдорлик бўйича олинган маълумотларни Б.А.Доспеховнинг “Методика полевого опыта” қўлланмаси асосида Microsoft Excel (2013) компьютер дастури ёрдамида статистик таҳлил қилинган.

Тажриба давомида табиий иқлим шароитлари, яъни ҳаво ҳарорати ва ёғингарчилик миқдори, ҳавонинг нисбий намлиги, фойдали ҳарорат коэффициенти, шамол тезлиги ва тупроқ намлиги кузатиб борилди. Кузатувлар Пахта селекцияси, уруғчилиги ва етиштириш

агротехнологиялари илмий тадқиқот институт қошидаги Оқ-қовоқ агрометеорология станцияси орқали амалга оширилди (1-расм).

Маълумки, чигит экиш ва ниҳолларни бир текис ундириб олишда баҳорги ёғингарчилик миқдори ва ҳаво ҳароратига бевосита боғлиқдир. Агар уч йиллик маълумотларга назар солсак, юқори ёғингарчилик миқдори 2022 йилда март ойининг 2-декадасида кузатилди. Апрель ойида ёғингарчилик миқдори кам бўлди. Бу эса ўз навбатида апрель ойининг биринчи декадасидаёқ чигитни ерга қадаш учун яхшигина шароит яратди. Ўтган йилги муддатга нисбатан 2022 йилда чигитни ерга эрта экиш ҳолати қайд этилди. 2022 йил қишки мавсум яъни январь ойида ўртача ҳаво ҳарорати $4,6^{\circ}\text{C}$ ва февраль ойларида ўртача ҳаво ҳарорати $5,7^{\circ}\text{C}$ даражани ташкил этиб, кўп йилликка нисбатан январь ойи $+4,2^{\circ}\text{C}$ юқори (иссиқ), февраль ойи $+3,1^{\circ}\text{C}$ юқори бўлди. Январь феврал ойлардаги ёғингарчилик миқдори 50,5-50,2 мм бўлиб, кўп йилликда ёғингарчилик миқдори 62,5-73,6 мм бўлиб январ ойида ёғингарчилик миқдори кўп йилликка нисбатан 12,0 мм кам ва феврал ойи эса 23,4 ммга кўп бўлди.



1-расм. 2021-2023 йиллардаги ҳаво ҳарорати ($^{\circ}\text{C}$) ва ёғингарчилик миқдори (мм) тўғрисидаги маълумот

Май ойининг иккинчи ва учинчи декадаларида ёғингарчилик бўлган бўлсада, жуда кам миқдорни ташкил этди. Баҳор ойларда ёғингарчилик миқдори 196,3-12,2-45,6 мм бўлиб, кўп йилликда 87,2-71,9-40,0 мм да бўлди. Нисбатан март ойида 109,1 мм кўп бўлди ва апрел ойида -59,7 мм кам ва май ойида 5,6 мм га кўп ёғингарчилик бўлди. Бундан кўриниб турибдики, баҳор ойларининг март ойида кўп ва апрель-май ойларида эса кам ёғингарчилик бўлган.

Июн-июль ойларида ёғингарчилик деярли кузатилмади. Июнь ойининг биринчи декасида ёғингарчилик ўртача 11,7 мм ни ташкил этиб, кўп йилликка деярли тенг ҳолатда бўлганлиги қайд этилди. Шунингдек, пахта хом-ашёсининг пишиб етилиш даври, яъни август, сентябр ойларида ҳам ўртача ҳаво ҳарорати кўп йилликка яқин бўлиб, мос равишда 25,5-22,6⁰С ни ташкил этди. Бу эса кўп йиллик ҳаво ҳароратига нисбатан 2-2,5 ⁰С га юқори эканлиги қайд этилди. Август ва сентябрь ойларида ёғингарчилик умуман кузатилмаганлиги, июль ойининг охири 15 кунлигида ва август ойининг бошида чилпишнинг барча усулларини ўтказиш учун жуда қулай бўлганлиги билан изоҳланади.

Ёз фаслида ўртача ойлик ҳаво ҳарорати 27,2-28,7-25,5 ⁰С кўп йилликда 25,6-27,3-25,4 ⁰С бўлган бўлса кўп йилликка нисбатан фарқи июнь-июль ўйларида 3,2-3,1 ⁰С га иссиқ, август ойига нисбатан 1,7 ⁰С салқин келгани маълум бўлди. Ёз ойларида ёғингарчилик миқдори фақатгина июнь ойи учун 11,7 мм бўлиб, кўп йилликка нисбатан 0,1-3,8-2,6 мм кам бўлгани маълум бўлди.

Тадқиқот давомида ғўзанинг ўсиб ривожланиши услубномалар асосида кузатиб борилди. Яъни, ҳар ойда фенологик кузатувлар ўтказиш йўли билан ғўзаларнинг ўсиб-ривожланиши ҳисоб-китоб қилиб борилди. Ғўзанинг ўсиши ва ривожланиши бу мураккаб физиологик-биокимёвий жараёнлар таъсирида содир бўладиган табиий ҳодисадир. Шундай бўлсада, унинг ўсиб ривожланишига турли хил абиотик, биотик ва антропоген омиллар ўз таъсирини кўрсатади [1.14-16].

Қолаверса, ҳар бир ғўза навларининг ўзига хос биологик хусусиятлари маълум агротехник тадбирлар билан боғлиқ жиҳатлари борлиги билан характерланади. Яъни, ҳар бир ғўза нави ривожланиш фазаларининг давомийлиги бўйича бир-биридан фарқланади. Бу фенологик кузатувларда ўз аксини топади. Олиб борилган тадқиқотлар давомида ғўзанинг ўсиши ва ривожланишини кузатиш учун белгиланган ўсимликларда фенологик кузатувлар олиб борилиб аниқланди.

Чигит униб чиқиши учун зарур бўлган минимал ҳарорат 10-12, оптимал ҳарорат 25-30⁰С бўлади, 13-14 ⁰С да муртак ўса бошлайди, 14-16 ⁰С да чигит уна бошайди, бу вақтда улар ўз вазнига нисбатан 60% ва ундан ортиқ нам тўплаши керак бўлади [2. 66].

Олинган натижалар. Тошкент вилоятида олиб борилган тажрибаларимизда ўрта толали ЎзПТИ-103 ва Равнақ-1 ғўза навлари экилган бўлиб, июнь ойининг биринчи санасида 80-90 минг туп/га қалинликда парваришланган ўсимликларнинг бўйи мутаносиб равишда ўртача 12,9-13,5-14,3-14,9 см ни, чинбарглари сони 4,7-5,1-5,3-5,1 донани ташкил этган бўлса, кўчат қалинлиги 110-120 минг туп/га бўлган фонда ўсимликларнинг ўртача бўйи узунлиги 16,0-16,8-17,1-17,5 см ни, чинбарглари сони 5,6-5,9-5,8-6,1 донани ташкил қилганлиги аниқланди.

Мазкур ҳолат бўйича хулоса қилсак, агар далада кўчатлар қалинроқ бўлса, табиийки уларнинг ўртасидаги масофа камаяди ва шу билан бирга ҳар бир туп ўсимлик учун мавжуд бўлган истеъмол ресурсларининг миқдори ҳам

ўзгаради. Кўп ҳолларда, қалин кўчатлар бир-бирини кўпроқ тўсиб, ўзаро рақобатлашади, бу эса улар ўртасида ёруғликка бўлган интилма ҳаракатни (фототропизм) вужудга келтиради. Натижада кўчат қалин бўлсада, кўчат сийрак бўлган майдондаги ўсимликларга нисбатан бўй ўсиши ва чинбарглар сонининг ортишига сабаб бўлиши мумкин.

Июль ойи ҳосил шохлар, шоналар, гуллар ва тугунчалар пайдо бўлганлиги кузатилди. Олиб борилган тадқиқот натижаларига кўра, 2022 йилда ҳаво ҳароратининг баҳор ойларида бошқа йилларга нисбатан иссиқроқ келиши сабабли чигит анча эрта экилди. Бу эса ўз навбатида ўсимликларнинг ушбу йилда ўсиб ривожланишининг тезлашувига сабаб бўлди. Хусусан 2022 йилнинг июль ойида Равнақ-1 ғўза навининг 80-90 минг туп/га кўчат қолдирилиб 1-2 чинбаргда ягана қилинган фонда ўсимликлар бўйининг ўртача узунлиги 54,0-55,5 см гача, ҳосил шохлари 6,2-6,9 донагача, шоналари 5,6-7,5 донагача, гуллари 0,6-1,3 донагача, тугунчалари 0,5-0,9 донагача, кўсақлари эса 0,4-0,8 донагача мавжуд эканлиги фенологик кузатувларда маълум бўлди. Ҳудди шу кўчат қалинлигида 3-4 чинбаргда ягана қилинган фонда эса ўсимлик бўйининг узунлиги ўртача 52,3-54,0 см гача, ҳосил шохлари 5,8-6,4 донагача, шоналари 5,5-5,8 донагача, гуллари 0,7-0,9 донагача, тугунчалари 0,4-0,5 донагача, кўсақлар эса 0,3-0,4 донагача мавжуд эканлиги фенологик кузатувларда маълум бўлди.

110-120 минг туп/га кўчат қолдирилиб 1-2 чинбаргда ягана қилинган фонда ўсимлик бўйи узунлиги ўртача 59,3-61,7 см гача, ҳосил шохлари 6,4-7,0 донагача, шоналари 6,1-6,3 донагача, гуллари 1,0-3,3 донагача, тугунчалари 0,8-1,1 донагача, кўсақлар эса 0,7-0,8 донагача мавжуд эканлиги маълум бўлди. Ҳудди шу кўчат қалинлигида 3-4 чинбаргда ягана қилинган фонда эса ўсимликларнинг бўйи узунлиги ўртача 59,5-60,8 см гача, ҳосил шохлари 5,4-6,0 донагача, шоналари 4,5-5,0 донагача, гуллари 1,1-1,3 донагача, тугунчалари 0,7-1,4 донагача, кўсақлар эса 0,6-1,1 донагача мавжуд эканлиги аниқланди. Агар маълумотларга эътибор берсак, кўчат қалинлиги 110-120 минг туп/га бўлган фонда ўсимлик бўйи узунлиги ва ҳосил шохлари сони 80-90 минг/га кўчат қалинлигидан бироз юқори бўлганлиги сезилади.

ЎзПТИ-103 ғўза навининг 2022 йил июль ойидаги фенологик кузатувларида 80-90 минг туп/га кўчат қолдирилиб 1-2 чинбаргда ягана қилинган фонда ўсимлик бўйи узунлиги ўртача 55,6-58,2 см гача, ҳосил шохлари 5,8-7,5 донагача, шоналари 5,7-7,0 донагача, гуллари 1,1-1,5 донагача, тугунчалари эса 1,2-2,0 донагача, кўсақлар эса 1,1-1,5 донагача мавжуд эканлиги маълум бўлди. Ҳудди шу кўчат қалинлигида 3-4 чинбаргда ягана қилинган фонда эса ўсимлик бўйи узунлиги ўртача 52,3-55,6 см гача, ҳосил шохлари 5,7-6,3 донагача, шоналари 5,3-6,5 донагача, гуллари 0,9-1,4 донагача, тугунчалари 0,6-0,9 донагача, кўсақлар эса 0,0-0,7 донагача мавжуд эканлиги фенологик кузатувларда маълум бўлди.

110-120 минг туп/га кўчат қолдирилиб 1-2 чинбаргда ягана қилинган фонда ўсимлик бўйи узунлиги ўртача 60,9-58,4 см гача, ҳосил шохлари 6,3-7,3 донагача, шоналари 4,7-6,2 донагача, гуллари 1,2-2,5 донагача, тугунчалари 1,5-3,5 донагача, кўсақлар эса 1,2-1,6 донагача мавжуд эканлиги

фенологик кузатувларда маълум бўлди. Худди шу кўчат қалинлигида 3-4 чинбаргда ягана қилинган фонда эса ўсимлик бўйи ўртача 56,6-58,1 см гача, ҳосил шохлари 5,5-6,4 донагача, шоналари 5,2-6,5 донагача, гуллари 1,0-1,5 донагача, тугунчалари 0,6-0,9 донагача, кўсақлар эса 1,2-1,4 донагача мавжуд эканлиги фенологик кузатувларда маълум бўлди. 1-июль ойидаги фенологик кузатувларга хулоса қилиб айтиш мумкинки, 110-120 минг туп/га кўчат қалинлигида ўстирилган ўсимликлар 80-90 минг туп/га кўчат қалинлигида ўстирилган ўсимликлардан бўйининг бирмунча баландлиги, ҳосил шохлари ва кўсақлар сонининг ортиши билан фарқланади. Бунинг асосий сабаби табиийки, қалин кўчатлар бир-бирини кўпроқ тўсиб, ўзаро рақобатлашади, бу эса улар ўртасида ёруғликка бўлган интилма ҳаракатни вужудга келтиради. Натижада кўчат қалин бўлсада, кўчат сийрак бўлган майдондаги ўсимликларга нисбатан бўй ўсишида бирмунча ўзиб кетиш ва бўйга монанд ҳосил шохларининг ҳамда кўсақлар сонининг ортишига сабаб бўлиши мумкин.

Шуни таъкидлаш керакки, тадқиқот ўтказилган майдондаги агротехник тадбирлар бир хил муддат ва маромда олиб борилгани учун (токи чилпишгача) июль ойининг биринчи санасига қадар ғўзаларнинг ўсиб ривожланишида унчалик катта фарқлар кўзга ташланмади. Чилпиш ўтказилгандан сўнг эса вариантлар орасида ғўзаларнинг ўсиб ривожланишида бир-биридан фарқ сезила бошланди. Шу боис чилпишдан кейинги (01.09.2022) маълумотларнинг таҳлилларни хулоса сифатида келтириб ўтаемиз.

ЎзПИТИ-103 навида олиб борилган фенологик кузатувлар асосида шуни айтиш мумкинки, 80-90 минг туп/га кўчат қалинлигида парваришлаб, 1-2 чинбаргда ягана қилинганда, кимёвий чилпиш ўтказилган вариантларда кўсақлар сони бошқа вариантларга нисбатан кўп бўлганлиги, яъни ўсимлик бўйи 78,3 см ни, ҳосил шохлари сони 12,6 дона, кўсақлар сони 11,9 донани ташкил қилган. Лекин кўчат қалинлиги 110-120 минг туп/га бўлганда ва яганалаш 1-2 ёки 3-4 чинбарг даврида ўтказилганда, чилпишни фақат кимёвий усулда ўтказилган вариантларда ҳосил элементлари яхши тўпланганлиги қайд этилди. Бу вариантларда ўсимлик бўйи мос равишда 73,6-77,5 см, ҳосил шохлари 12,3-12,4 донани, кўсақлар сони 11,4-9,8 дона бўлганлиги ва назорат вариантыга нисбатан 2,2-0,9 донага кўп кўсақ бўлганлиги қайд этилди.

Равнақ-1 ғўза навида олиб борилган фенологик кузатувлар асосида шуни айтиш мумкинки, кўчат қалинлиги 80-90 минг туп/га қолдириб, 1-2 чинбаргда ягана қилинганда энг мақбул чилпиш муддати кимёвий усулда ва 13-14 ҳосил шохида қўлда ўтказилган вариантларда мос равишда ўсимлик бўйи 84,3-92,5 см ни, ҳосил шохлари сони 12,5-13,5 дона, кўсақлар сони 12,9-12,7 донани ташкил этган ҳолда, кўчат қалинлиги 110-120 минг туп/га қолдириб, яганалаш 1-2 ва 3-4 чинбаргда, чилпишни 11-12 ҳосил шохида қўлда ва кимёвий усулда ўтказилганда кўсақлар сони 9,8-10,1 ва 10,3-10,4 донани ташкил қилиб, назоратга нисбатан 0,4-0,7 ва 0,6-0,7 донага кўсақ кўп бўлганлиги қайд этилди.

Бошқа тадқиқот олиб борилган йилларда ҳам фенологик кузатувлар ўтказилди ва бу йилларда олинган натижаларда ҳам юқоридаги қонуният сақланиб қолганлиги маълум бўлди.

Хулоса. Ғўза навларининг ўсиши ва ривожланиши бўйича олиб борилган кузатувларнинг натижалари шуни кўрсатадики, Равнақ-1 ғўза нави ЎзПТИ-103 ғўза навига нисбатан бироз бўйчанроқ ва серҳосил бўлганлиги маълум бўлди. Ғўза навларининг биологик хусусиятларига хос бўлган бу фарқланишлар яганалаш ва чилпишнинг мақбул меъёрларида бўлганлиги ўз ифодасини топди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Назаров ва бошқалар. Пахтадан мўл ҳосил етиштириш омиллари. – Тошкент.: 2003. – Б 14-16.

2. Пахтачилик справочниги. Тошкент.: Меҳнат 1989 й. –Б.66-67

3. Ҳайдаров А. Андижон вилояти шароитида янги “Султон” ва “ЎзПТИ-201” ғўза навларини парваришлаш агротехникаси. //Агро Илм журнали. –Тошкент, 2018. -№6 (56).-Б.7-8

УДК 635.11: 635.12:

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ТУПРОҚ ИҚЛИМ ШАРОИТИДА САЛАТБОП ШОЛҒОМНИ БАҲОРГИ ЭКИШ МУДДАТЛАРИНИ ҲОСИЛДОРЛИККА ТАЪСИРИ

Джалимбетов Муса

Рахматов Анвар Маматович

Сабзавот, полиз экинлари ва картошкачилик илмий-тадқиқот институти

Аннотация. Ушбу мақолада Қорақалпоғистон Республикасида тупроқ иқлим шароитида салатбоп шолғомни баҳорги экиш муддатларини ҳосилдорликка таъсири бўйича олиб борилган тадқиқот натижаларини тахлилий маълумотлар келтирилган. Тадқиқот натижаларидан келиб чиқиб, салатбоп шолғомни баҳорги экиш муддатлари бўйича аниқ тавсиялар берилган.

Кириш. Республикамизда аҳоли озиқ-овқат ҳавфсизлигини таъминлаш, сабзавот маҳсулотларига бўлган эҳтиёжини тўла қондириш ва сабзавот маҳсулотлари ассортиментини кенгайтириш бўйича кенг қамровли чора-тадбирлар амалга оширилди.

Инсон организми учун зарур витаминлар, минерал тузлар ва табиий биологик фаол моддаларни ўзида сақлайдиган салатбоп шолғом етиштиришнинг замонавий ресурстежамкор технологияларини жорий этиш, экологик шароитларга мос келадиган наводорлиги юқори, ҳосилдор ва сифатли навларни етиштириш ва кўпайтириш масалалари бугунги кунда долзарб муаммолардан бўлиб турибди.

Сабзавотчиликда экиш муддатларини тўғри белгилаш катта аҳамиятга эга. Экиш муддатлари бир ҳафтага кечиктирилса ҳосилдорлик 20-25%

камаяди ва эртаги ҳосил 7-10 кунга кечикади.

Сабзаёт экинларининг биологик хусусиятлари, энг аввало ҳароратга бўлган талабчанлиги ва амал даврининг давомийлиги, тупроқ, иқлим, об-ҳаво шароитларига талабчанлиги, шунингдек ишлаб чиқариш режаси ва маҳсулотнинг қандай мақсадда етиштирилаётганлигига қараб уруғлар ҳар хил муддатларда сепилади. Бундан ташқари, маҳсулотни истеъмол қилиш даврini узайтириш учун ҳам уруғлар турли муддатларда экилади.

Салатбоп шолғомни вақтинчалик шаффоф плёнка остига ва очик майдонларга экиб юқори ва сифатли ҳосил олиш мумкинлиги тўғрисида маълумотлар бор (А.Раҳматов., М.Арамовлар. 2015). Аммо, Қорақалпоғистон шароитида бундай тадқиқотлар олиб борилмаган. Шундан келиб чиқиб салатбоп шолғомнинг Гулшод навини уруғи эрта баҳорда тўрт муддатда: 1-апрел; 10-апрел (назорат); 20-апрел; 1-май кунлар экилди. Бунда истисно таризда иккинчи (10-апрел) муддат олинди ва унга ўзоро таққосланди.

Экиш-майсаларнинг ёппасига униб чиқиши даврининг давомийлиги биринчи муддатда 25 кунни ташкил этди. Аммо, учинчи ва тўртинчи муддатларда бу давр бироз қисқариб, 13-11 кунни ташкил этди. Буни шу даврда ҳаво ҳароратининг бироз кутарилганлиги билан изоҳланади. Баҳорги турли муддатларда экилган шолғом ўсимлиги фенологик фазаларининг давомийлиги биринчи муддатдан тўртинчи муддатга қараб фенологик фазаларнинг давомийлиги об-ҳаво шароитига мувофиқ равишда ҳар хил бўлди.

Биринчи муддатда (10.04) майсаларни ёппасига униб чиққандан то биринчи чинбарг пайдо бўлишигача 15 кун талаб этилди. Майсалар ёппасига униб чиққандан беш-олтита барг пайдо бўлишигача эса 28 кун талаб этилди. Ёппасига униб чиққан кундан то илдизмеваларнинг ҳосил бўлиши биринчи муддатда 51 кунда амалга ошди.

Униб чиққан кундан бошлаб истеъмолга яроқли илдизмевалар биринчи муддат 66 кунда амалга ошди. Умумий ҳосилни йиғиштириш 68 кунда бошланди. Шундай қилиб, экиш муддатлари ўрганилган муддатларда фенологик фазалар амалга ошишига сезиларли даражада таъсир қилди. Майсаларни тўлиқ униб чиққандан бошлаб, муддатлар ўртасида фенологик фазаларни амалга ошишида фарқ жуда сезиларли даражада бўлди.

Фенологик фазаларнинг давомийлиги экиш муддатларига қараб турлича бўлди ва биринчи муддатдан тўртинчи муддатга қараб қисқариб борди. Назорат вариант (10.04) муддатда “экиш-ёппасига униб чиқиш” даврининг давомийлиги 22 кунни, учунчи (20.04) муддатда 13 кунни ташкил этди ва бу давр тўртинчи муддатга (01.05) келиб 11 кунга қисқарди.

Бу қонуният экиш муддатлар ўртасида барча фенологик фазаларнинг амалга ошишида сақланиб қолганлиги тажрибаларимизда кўзатилади.

Уруғларни бевосита очик далаларга баҳорги муддатларда сепиб шолғом етиштирилганда муддатлар ўртасида ҳосилдорлик турлича бўлганлиги кузатилади. Турли муддатларда экилган салатбоп шолғомнинг ҳосилдорлиги иккинчи назорат муддатда 2021-2023 йилларда ўртача умумий ҳосилдорлик 37,1 т/га ни ташкил этди. Ўрганиланилган биринчи муддатда

эса 34,6 т/га ни ва тўртинчи муддатда эса 33,5 т/га ни ташкил этиб, иккинчи муддатга нисбатан 6,7 ва 9,7 фоизга кам ҳосил олинди. Ўрганилаган баҳорги турли муддатлар ўртасида умумий ҳосилдорлик бўйича энг юқори ҳосилдорлик учинчи муддатда бўлиб, йиллар бўйича ўртача 38,7 т/га ни ташкил этди. Бу эса назорат муддатга нисбатан 1,7 т/га ёки 104,7 фоиз кўп демакдир. Баҳорги муддатлар ўртасида товарбоп ҳосилдорлик бўйича ҳамма муддатларда яхши кўрсаткичлар кузатилди ва умумий ҳосилнинг 96,8-98,6 фоизини ташкил этди. Умумий ҳосил бўйича кузатилган тенденция илдизмева вазнида ҳам кузатилди, иккинчи муддатда ўртача илдизмева вазни 129,9 г ни ташкил этган бўлса, биринчи ва тўртинчи муддатларда бу кўрсаткич 9,0-12,7 г га кам бўлди. Учинчи муддатда мувофиқ равишда назорат муддатга нисбатан илдизмева ўртача вазни 5,5 г га кўп бўлганлиги кўзатилди.

Тадқиқотлар натижасида маълум бўлдики, салатбоп шолғомдан баҳорги муддатларда экиб юқори ва сифатли ҳосил олиш учун Гулшод навини 10-20-апрелларда экиш мақсадга мувофиқ эканлиги аниқланди. Ушбу муддатда унинг умумий ҳосилдорлиги 37,1-38,7 т/га ни, товарбоп ҳосилдорлиги 36,6-38,0 т/га ни, илдизмевагининг вазни эса 129,9-135,6 г ни ташкил этади.

Хулосалар

1. Олиб борилган тадқиқотлардан салатбоп шолғомни баҳорги муддатларда экиб ундан юқори ва сифатли ҳосил олиш мумкинлигини кўрсатди. Ушбу мақсад учун об-ҳаво шароитига қараб, апрел ойини 10-20 куниларида майдонларда экиб етиштирилса, шунча кўп ҳосилдорликка эришиш мумкин.

2. Энг мақбул иккинчи ва учинчи экиш муддатларида ҳосилдорлиги 37,1-38,7 т/га ни ташкил этди. Ушбу муддатларда қолган муддатларга нисбатан 4,1-5,2 т/га юқори ҳосил олинди.

3. Салатбоп шолғомнинг Гулшод навини баҳорда экишнинг энг мақбул муддати 10-апрелдан 20-апрелгача ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Арамов М.Х. Кўкат сабзавотларнинг аҳамияти ва уларнинг янги навлари. // “Ўзбекистон сабзавотчилик, полизчилик ва картошкачиликни ривожлантиришда илм-фаннинг ҳиссаси”. Халқаро илмий-амалий конференция маърузалар тўплами. Тошкент, 2013. 24-26-б. Рахматов А.М. Рост развитие и урожайность репы салатной в зависимости от площади питания // “Агро илм” №1 (25) сон, 2013. 35-37-б.

2. Рахматов А.М. Салатбоп шолғомни ёзги муддатларда етиштириш. “Ўзбекистон сабзавотчилик, полизчилик ва картошкачиликни ривожлантиришда илм-фаннинг ҳиссаси” // Халқаро илмий-амалий конференция маърузалар тўплами. Тошкент, 2013. 85-88-б.

3. Raxmatov A.M. Influence of planting period on the biochemical composition of leaf turnip. Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress (JARSP). Vol. 2 No. 2 (2023): Page No 10-12. (Impact Factor: 8.1).

POREY PIYAZI NÁL JASLARINIŇ ÓSIW, RAWAJLANIW HÁM ZÚRÁÁTLILIKKE TÁSIRI

Nizanov Janibek Xummetullaevich

Qaraqalpaqstan awıl xojalıǵı hám agrotexnologiyalar institutı

Asatov Shuxrat Ismatovich

Tashkent mámleket agrar universiteti

Annotatsiya. Bul maqalada porey piyazınıń túrli jastaǵı nálleriniń ósiwi, rawajlanıwı hám zúráátliligine tásiri boyınsha 2023-2024 jıllarda alıp barılǵan tájiriybe nátiyjeleri jazılǵan. Ótkerilgen izertlew nátiyjelerine kóre porey piyazın 50 kúnlik nálinen jetistiriw 20, 30 hám 40 kúnlik nállerge salıstırǵanda 3,0-6,3 t/ga yamasa 13-34 % joqarı ónim toplǵan.

Gilt sózler. Porey piyazı tuqımları, nál jasları, topıraq aralaspası, japıraq uzınlıǵı, aq paqal uzınlıǵı, bir túp ósimliktiń salmaǵı, zúráátlilik.

Kirisiw. Hózirgi waqıtta mǵmleketimizde baw-baqsha eginleri tǵrlerin kem tarqalǵan baw-baqsha eginleri esabǵnan kybeytiwge ayrǵqsha bhmıyet qaratǵlep atǵr.

Yzbekstan Respublikasǵ Prezidentinic 2024-jǵl 16-fevraldaǵǵ “respublikada azǵq-awqat qawipsizligin tǵmiyinlewdic qosǵmsha is-iljlarǵ haqqǵnda”ǵǵ PF-36-sanǵ Pǵrmanǵnda respublikamǵzda azǵq-awqat qawipsizligin tǵmiyinlewde bhmıyetke iye bolǵan tiykarǵǵ baw-baqsha eginlerinen mol ynim jetistiriw, keselliklerge hǵm qurǵaqshǵlǵqqa shǵdamǵ jergilikli sortlarǵn jaratǵw, olardǵc tuqǵmgershiligin shylykemlestiriw hǵm de ishki bazardǵ jergilikli tuqǵmlǵqlar menen tǵmiyinlew boyǵnsha bhmıyetli wazǵypalar belgilep berilgen.

Tájiriybeniń aktuallıǵı hám óndiristegi áhmıyeti. Xalqımızdıń kúndelikli azıq-awqat racionında baw-baqsha eginlerinen piyaz ósimligi tiykarǵı baw-baqsha eginlerinen biri bolıp, onıń barlıq túrleri eń dáslep ishteydi ashıwshı hámde fitontsidlik qásiyetine iye baw-baqsha eginleri esaplanadı. Olardıń quramında efir mayları, sheker, belok, biriktiriwshı toqıma, mineral elementler hám insan organizmi ushin zárúr bolǵan basqa vitaminler bar. Ásirese porey piyazı quramında bul elementler júdá kóp muǵdarda ushraydı. Sol sebepli, respublikamız baw-baqshashılıǵında piyazdıń jańa, joqarı zúráátli hám túrli múddetlerde jetistiriwge qolaylı túr hám sortların tańlaw, zamanagóy texnologiyalardı qollǵan halda tuqımınan hám nálinen jetistiriw búgingi kúnniń sheshimin kútip turǵan máselelerinen biri bolıp esaplanadı.

Bunda piyazǵlar tuwǵsǵ (*Alliaceae*), piyaz (*Allium*) toparǵna tiyisli porey piyazǵ (*Allium porrum L.*) tǵrin jetistiriwdi jolǵa qoyǵw zǵrǵr esaplanadǵ [1].

Izertlew obiekti hám metodikası. Porey piyazı (*Allium porrum L.*) áyyemgi grekler, Rimlikler hám Egipetliklerge uzaq waqıtlardan berli belgili bolǵan. Ol azıq - awqatlıq hám dárilik baw-baqsha egini retinde keń qollanılǵan. Házirgi waqıtta porey piyazı Evropa mámleketlerinde keń tarqalǵan. Porey piyazı Orta jer

teńizine tutas mámlketlerde jabayı tábiyatta tabılǵan hám maǵlıwmatlarǵa qaraǵanda ol merwert piyazınan kelip shıqqan. Porey tek ǵana qısta emes, bálki erte báhárde, jańa baw-baqsha eginleri jetispeytuǵın dáwirde de qımbatlı baw-baqsha eginleri sıpatında tutınıladı [4].

Porey piyazé jǵdǵ paydalé - ol toýámlé hǵm bir qatar shépaléleq qǵsiyetlerge de iye. Usénéc sebebinen oné xaléq meditsinasında da dǵrilik baw-baqsha eginleri retinde kec qollanéládé. Ximiyaléq quramé boyénsha bas piyazǵa uqsaydá, béraq onnan nǵzik dǵmi hǵm yzine tǵn iyisi menen ajéralép turadé. Porey piyazé quraménda alténkǵkirtti yz ishine alǵan efir mayı - 37 mg % ke shekem boladé [3].

Ximiyaléq quraména qaray, porey piyazénéc aq paqalénda 83-85% suw, 1,8-2,2% beloklar, 0,2% maylar, 11,2 % uglevodlar, 15-30 mg % askorbin kislota, 40 mg % ke shekem karotin, sonéc menen birge, B₁, B₂, B₆, B₉, PP vitaminleri bar. Porey piyazénéc energetikaléq quwatlıléǵı 100 g ushén 52-65 kkal, bas piyazda bolsa tek 23-28 kkal. Porey piyazé quraméndaǵé mikroelementler arasénda kaliy, temir hǵm rux ǵstemlik etedi. Bunnan tésqaré, ol nikel, xrom, kobalt, vanadiy, magniy, fosfor, kaltsiy, molibden hǵm titandé yz ishine aladé [2].

Kaliydic joqaré muǵdaré sebepli bul baw-baqsha eginleri metabolizmdi aktivlestiriwge, aterosklerozdéc aldén aléwshé, organizmnen artéqsha xolesterindi alép shéǵéwǵa jǵrdem beredi, sonéc menen birge, denenic qorǵaw reakciyalarén kǵsheyttiredi hǵm jǵrek-qan tamér iskerligin jaqsélaydá.

Biraq, joqaré bioximiyaléq quraména hǵm insan organizmi ushén paydaléléǵé tǵrepinen ec qémbatlé piyaz tǵrlerinen biri boléwéna qaramastan, respublikamézda ele de kem tarqalǵan egin tǵri bolép tabéládé.

Qaraqalpaqstannéc topéraq-éqlém shǵbrayaténda porey piyazénéc nǵl jaslarén belgilew hǵm jetistiriw texnologiyasén islep shéǵéw aktual mǵselelerden esaplanadé.

Joqarédaǵélardé esapqa alǵan halda, porey piyazén nǵlden jetistiriwde olardé ysimliklerdic ysiwi, rawajlanéwé hǵm zǵrǵǵtliligine tǵsirin anéqlaw maqsetinde 2023-2024 jéllar dawaménda ilimiy-izertlew juméslar alép baréwdé yz aldémézǵa maqset etip qoydéq.

Ilimiy izertlew nátiyjeleri. Atéz tǵjiriybeleri 2023-2024 jéllarda Qaraqalpaqstan awél xojaléǵé hǵm agrotexnologiyalar instituténéc Nykis rayonénda jaylasqan tǵjiriybe atéz maydanénda ytkerildi.

Izertlewlerde porey piyazénéc Karantanskiy sorténéc 4 (20, 30, 40 hám de 50 kúnlik) jastaǵé nǵlleri egildi. Atéz tǵjiriybeleri tyrt qaytalamada, uzénléǵé 5 metr bolǵan qaréqlarda alép baréldé. Tǵjiriybelerde tymendegi baqlaw hǵm ylshewler ytkerildi; fenologiyaléq, biometrik baqlawlar, kesellik hǵm zéyankesleri xǵmde ynim muǵdarén anéqlaw boyénsha baqlawlar alép baréldé.

Bizge belgili, baw-baqsha eginlerin tuqımınan da nálinen de jetistiriw múmkin. Eginlerdi tuqımınan egiwde tuqımǵa, ósimliklerdi tárbiyalawǵa jumsalatuǵın qárejetler joqarı boladı. Bulardan tısqarı ósimliklerdiń vegetaciya dáwiri, tovarbap ónim muǵdarı azayadı. Nál arqalı jetistiriwde “ilgerilew” esabına erte hám joqarı ónim alıw múmkinshiligini beredi. Házirde ashıq maydanlarda jetistiriletuǵın baw-baqsha eginleriniń 60 procenti, qorshalǵan jerlerde bolsa 90 procenti nál arqalı jetistiriledi. Tayarlanǵan nál jasları da joqarı hám sapalı ónim

alıwda zárúrli áhmiyetke iye. Ásirese erte múddette jetistiriletuǵın baw-baqsha eginleri nálleri 45-60 kún dawamında ıssıxanalarda tayarlanadı. Erte múddetlerde egiletuǵın porey piyazın 20, 30, 40 hám de 50 kúnlik nállerin ósimliklerdiń ósiwi, rawajlanıwı hám zúraátliligine tásinin ótkerilgen atız tájiriybelerimizde sınap kórdik.

Porey piyazǵa ysimliginic ysiw hóm rawajlanǵana egilgen nóllic jasǵa yz tósinin tiygizedi. Ytkerilgen biometriyalıq baqlawlarda nól jasǵa qansha ıken bolsa olardaǵa jarǵaqlar sanı hóm de ylshepleri ıken bolǵanlıǵına anǵılandı. Sonada ayırqsha aytaw kerek, erta múddetlerde optimal temperaturanac saqlanıp turaw, topıraǵa aǵallǵınac joqarǵa dórejede bolawǵa sǵalǵan barlıq nól jaslarında turaqlı orǵına jaqsı iykemlese alaw baqlandı. Ec iri jarǵaqlar ylshepleri salǵıstırılǵanda ıken jastaǵa nóllec egilgen maydanlarda anǵılandı. Atap aytqanda, 50 kúnlik porey piyazınac ysimliklerinde basqa (20, 30 hóm 40 kúnlik) jastaǵılardı qaraǵanda 18-22 sm ge uzın jarǵaqlar qóliplesti. Ysimliklerdegi jarǵaqlar sanı boyınsha da 50 kúnlik nóllecden egilgen ysimlikler basqa jastaǵılardan 2-4 danaǵa ıstem boldı.

Porey piyazınac “aq paqalları” azıqlıq retinde jaca halında yamasa qayta islingen halda tutınaw usınac etiledi. Ysimliklerde qóliplesken jalǵan aq paqallardac ylshepi 11-18 sm di quradı.

Ec iri “aq paqallar” 50 kúnlik nóllecde qóliplesip, onac ylshepi 18,8 sm boldı (*1-keste*).

1-keste

Porey piyazınac tırlı jastaǵa nóllecnic ysimliklerdegi jarǵaqlar sanı hóm olardac ylshepi tósi (2023-2024 jj.)

№	Nál jasları (dana)	Ósimliklerde qáliplesken jarǵaqlar sanı (dana)	Eń iri jarǵaqlar uzınlıǵı, (sm)		Aq paqaldın uzınlıǵı (sm)
			2023	2024	
1	20	11	63	61	11,9
2	30	12	68	71	13,2
3	40	15	72	70	16,5
4	50	17	85	89	18,8

Porey piyazınan alǵatıǵın aq paqaldac uzınlıǵına bul kyp tórepten ysimliklerdi “qumlaw” (*dombıqlaw*) usılana baylanıslı boladı. Bıraq olardac qóliplesiwı óllette ysimliktegi jarǵaqlar sanına da baylanıslı.

Sınap kúrilgen nól jaslarǵa bir tıp ysimliktic ortasha salmaǵına da tósir kúrsetedi. Jas 20 kúnlik nóllecden jetistirilgen ysimliktic ortasha salmaǵına 50 kúnlik nóllecge qaraǵanda 73 gr ǵa yamasa 31,6 procentke jecil bolǵanlıǵına unim muǵdarın anıqlaw boyınsha ytkerilgen ylsheplerde anıqlandı.

Sınap kúrilgen nól jaslarǵa arasında ec joqarǵa unim 50 kúnlik nóllec egilgen maydanlarda qóliplesti.

Tójiriybeler ytkerilgen 2023-2024 jıllar dawamındaǵa ortasha zırbót 50 kúnlik nóllecde ec joqarǵa 24,7 t/ga, 20 kúnlik nóllecde bolsa ec kem, yaǵnayı 18,4

t/ga ynim qōlipleskenligin kyrsetti (2-keste). 30 hōm de 40 kōnlik nōller egilgen maydanlarda 19,3-21,8 t/ga ynim qōliplesti.

2-keste

Porey piyazınıń túrli jastaǵı nálleriniń hasıdarlıqǵa tásiri (2023-2024 jj.)

№	Nál jasları (kún)	Bir top ósimliktiń ortasha salmaǵı (gr)	Zúráátlilik t/ga		
			2023	2024	Ortasha zúráát 2021-2022
1	20	231	18,6	18,3	18,4
2	25	259	19,2	19,5	19,3
3	30	287	21,7	22,0	21,8
4	40	304	24,5	24,8	24,7
	HCP 0,5				1,2

Porey piyazı ósiw dáwiri dawamında piyaz shıbını hám de shire menen zıyanlanıwı 20 kúnlik náller egilgen maydanlarda kóp baqlandı. Zıyankeslerge qarsı Provanto Vernal insekticidi menen islew berildi.

Juwmaqlaw

- porey piyazın tuqımınan hám de nálinen jetistiriw múmkin. Bıraq erte hám sapalı ónim alıw ushın onı nálinen egiw gerek.
- porey piyazınıń 50 kúnlik nálleri basqa jastaǵı nállerge salıstırǵanda 30 -6,3 t/ga joqarı ónim beredi.
- eń iri japıraqlar 50 kúnlik náller egilgen maydanlardaǵı ósimliklerden alınadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Asatov Sh.I., Qodirxo‘jayev O., Mirzasoliyev M.M. Piyozni takroriy ekin sifatida ko‘chatidan yetishtirish texnologiyasi. // Tavsiyanoma. – Toshkent, «Navro‘z», 2018-b.22.
2. Агафонов А.Ф Дубова М.В., “Селекция лука порея для средней полосы России при выращивании безрассадным способом” //Москва с.47.
3. Бакиев А., Махкамов.С. Зеленные и малораспространенные овощные культуры. // Ташкент : Мехнат, 1987. – с.29.
4. Василенко Н.Г.; “Малораспространенные овощи и пряные растения”; //Изд-во: М.: Селхозиздат, 1962. 115. с.

III- SEKCIYA. LANDSHAFT ZONALARDA TOĞAYSHILIQ HÁM DÁRILIK ÓSIMLIKLERDI JETISTIRIW MAQSETLERINDE PAYDALANIW

NUKUS SHAHRI AXOLI YASHASH JOYLARINI KÓKALAMZORLASHTIRISH VA LANDSHAFT QURILISH UCHUN EKILGAN SURIYA GIBISKUS, FORZISIYA, YAPON BEHISI, AMORFA, LIGUSTRUM, JIMOLOST, PERIKANTA MANZARALI BUTALARINING GULLASH MUDDATLARI

Kaypov Timur Alibaevich

Qoraqolpogiston qishloq xójaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotaciya. Nukus shahri sharoitida hozirgi kungacha ósib rivojlanayotgan manzarali gullovchi butalar assortimentlari órganilib chiqildi va ulardan suriya gibiskus, forzisiya, yapon behisi, amorfa, lugistrum, jimolost, perikanta manzarali butalarining fenologik nazorat ishlari olib borildi. Bunda erta bahorda gullaydiganlar, yozda gullaydiganlari, kech kuzda gullaydigan manzarali gullovchi butalar aniqlandi. Ya`ni 2022 yil va 2023 yilgi fenologik nazorat ishlari.

Kalit sózlar: Manzarali butalar, landshaftli qórilish, kókalamzorlashtirish, sanitar gigienik, assortimentlar, arxitekturaviy, mikroiklim, introdukciya, biologik chidamli, kompoziciya.

Kirish. Shaharlarda aholini yashash sharoitlarini komfort darajaga kótarish, dam olishini ta`minlash, shahardagi sanitar holatni yaxshilash, mikroiklimni yuzaga keltirish va soğlomashtiruvchi yashil xududlar maydonlarini kengaytirishda manzarali yashil daraxtzorlarning roli baland hisoblanadi. Kókalamzorlashtirish uchun qóllanilayotgan manzarali daraxt-buta turlari assortimentini boyitish ham muhim ahamiyatga ega.

Kókalamzorlashtirish maqsadida tavsiya etilayotgan daraxt-buta turlari manzarali kórinishga ega bólishi bilan bir paytda shaharning tutunli-gazli va changli muhitiga biologik chidamli bólishi, arxitekturaviy va sanitar-gigienik talablarga ham javob berishi lozim [1].

Tajriba maqsadi. Nukus shahrini kókalamzorlashtirish uchun manzarali butalarning urni juda katta sababi avtomobil xalqa yul aylanbalari er maydonlariga va bekatlar atrofiga, piyodalar yulaklari buylariga va boğ-parklarga manzarali butalar juda mos keladi sababi butalarning buyiga baland bulmaganligi va juda manzarabopligi, gullash davomiyligi katta ahamiyatga ega.

Manzarali gullovchi butalarni uzoq muddat va kurkam gullaydiganlarini tanlashdan iborat. Shu bilan birga Nukus shahri iqlimi va tuproq sharoitlariga biologik chidamli turlarni tanlab ekishdan iborat.

Tajriba natijasi. Kuzatishlar natijalariga kóra, 2022 yilgi fenologik nazoratlarda vegetatsiya davrining boshlanishi ancha erta, mart oyining ikkinchi ón kunligida tugri keldi. Ob-havo sharoiti turlarning gullash boshlanishiga tásir kórsatdi. Issiq ob-havo bólgan yillarda ósimliklar erta gulladi va aksincha, sovuq havoda keyinroq. Forzisiy va yapon behisi manzarali góllovchi butalari eng erta

































baxorda gullashi kuzatildi, keyin kech bahorda ligustrum, barbaris, amorfa, perikanta, jimolost manzarali gullovchi butalari qayd etilgan. Faqatgina suriya gibiskusi yozda gullab boshlab to kuzgacha davom etdi. Lekin 2023 yilgi fenologik nazoratlarda havo-xarorati va temperaturaning yuqoriligi sababli vegetatciya davrining ertaroq boshlanishiga sabab buldi. 1-jadvalda órganilayotgan manzarali gullovchi butalarni fenologik nazorati yani gullash muddatlari kórsatilgan.

1-jadval

Manzarali butalar turlari	Gullash muddatlari (2022 y.)	Gullash davomiyligi, kunlar	Gullash davomiyligi (2023 y.)	Gullash davomiyligi, kunlar
Forzisiya	18.03-16.04	29	15.03-3.04	19
Yapon behisi	26.03-24.04	29	23.03-20.04	28
Jimolost	9.04-25.04	16	4.04-27.04	23
Perikanta	26.04-10.05	15	19.04-6.05	18
Amorfa	1.05-23.05	23	24.04-16.05	24
Ligustrum	2.05-28.05	26	29.04-21.05	23
Suriya gibiskus	16.06-15.10	117	9.06-19.10	109

Nukus shahri sharoytida fenologik nazorat natijalari gullovchi butalarning spektri buyicha órtacha gullashi 24 kundan 130 kungacha davom etishi qayd etildi. Erta bahorda gullovchi manzarali butalar 4 ta, kech bahorda esa 3 ta, faqatgina 1 buta –suriya gibiskusi iyun oyidan gullashni boshlab, toki kuzgi sovuqlar boshlangunga qadar gullashni davom ettirdi. Avgust oyida ayniqsa ularning qiygós gullashi kuzatildi. 2-jadvalda órganilayotgan ósimliklarning fenologik fazalarining fenologik spektrlari kórsatilgan [3].

2-jadval

Ligustrum (Biryuchina)	Forziciya	Barbaris	Amorfa	Perikanta	Gibiskus	Yaponskiy ayva	Jimolost	Mavsumlar
								Erta baxorda
								Kech baxorda
								Yozda
								Kuzda

Xulosalar: Nukus shahrida landshaft dizayn usulida manzarali gullovchi butalarning ahamiyati juda katta sababi shahar sharoytida avtomobil aylanmalari va imoratlar fasadlarini tusib quymaslik uchun butalar tanlanadi. Butalarning buyi past va juda manzaraviyligi bilan ahamiyatli. Shaharga turistlarning jalb qilishda ham roli katta sababi shahar ishkarisida landshaft dizayn asosida kompozitsiyalar yaratilsa yanayam shaharning kurkiga kurk qushiladi. Asosan shahar sharoytida mavsumiy gullaydigan manzarali gullovchi butalardan tanlanib ekilsa maqsadga muvofiq buladi. Fenologik nazorat davomida shahar sharoytida kompozitsiya yaratish maqsadida erta bahorda gullaydigan forzitsiya, yapon behisi, kech bahorda esa ligustrum, barbaris, jimolost, perikanta, amorfa butalarini tavsiya etilsa maqsadga muvofiq buladi. Keyingi urindi yozda gullab boshlaydigan, eng uzoq gullaydigan suriya gibiskus manzarali butasi xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. Qayimov A.Q., Dj. Turok. Aholi yashash joylarini kóklamzorlashtirish (darslik). – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2012. – 124 b.
2. Berdiev E.T. Manzarali daraxt-buta ósimliklar (uslubiy qóllanma). – Toshkent, ToshDAU Tahririyat-nashriyot bólimi, 2021. –111 b.
3. Berdiev E.T., Xolmurotov M.Z., Chorshanbiev F.M. Landshaft dizayn uchun manzarali gullovchi butalar – Toshkent, 2019.– 82 b.

AVTOMOBIL YO‘L BO‘YLARIGA EKILGAN NINABARGLI DARAXT-BUTALARNING O‘SISH KO‘RSATKISHLARI

Kamalova Nargiza Bekturganovna

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Nukus shahri va Mo‘ynoq tumani avtomobil yo‘l bo‘ylarini ko‘klamzorlashtirishda ninabargli daraxt-buta turlarini tanlash, yo‘l bo‘ylariga ekilgan ko‘chatlarning o‘sishi, rivojlanishi va saqlanib qolishi haqida so‘z boradi. Maqolada, shuningdek, 2021-2023 yillar oralig‘ida Nukus shahri va Mo‘ynoq tumanida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Nukus shahri, Mo‘ynoq tumani, ko‘klamzorlashtirish, avtomobil yo‘l bo‘ylari, ninabargli daraxt turari, ko‘chat, o‘sishi, rivojlanishi.

Kirish. Qoraqalpog‘iston hududida 100 ga yaqin turdagi daraxt-buta va yarim buta o‘simliklari yovvoyi va madaniy holda o‘sadi, bu butun floraning taxminan 10% ni tashkil qiladi. Bu hududdagi daraxt-buta va yarim butalarga kiradi. Ularning ko‘pchiligi mayda bargli, ba‘zan deyarli yaproqsiz, past bo‘yli bo‘ladi. Ekologik jihatdan galofitlar va psammofitlar ustunlik qiladi. Qoraqalpog‘iston dendroflorasining ushbu umumiy xususiyatlari ninabargli daraxt o‘simliklarini etishtirish uchun kam yaroqli bo‘lgan tuproq-iqlim va o‘rmon sharoitlarini aks ettiradi [5].

Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqlimi keskin kontinental bo‘lib, yozi uzun, kam bulutli va issiq, qishi esa quruq, yumshoq, qor yog‘ishi va namlikning kamligi bilan ajralib turadi. O‘rtacha yoz aprel oyining uchinchi dekadasi boshlanadi, kunning o‘rtacha harorati +15°C dan yuqori ko‘tariladi va oktyabr oyining birinchi dekadasi tugaydi. Eng issiq davr odatda 14-iyundan 13-avgustgacha davom etadi. O‘rtacha kunlik harorat +15°C dan yuqori bo‘lgan kunlar soni 165 ta, issiq kunlar soni esa (o‘rtacha kunlik harorat +25°C dan yuqori bo‘lgan) 70 tani tashkil etadi [1, 3].

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida mahalliy va introduksiya qilingan manzarali daraxt-butalarni tanlashdan avval joyning tabiiy va geografik sharoitlarini e‘tiborga olishimiz zarur. Sababi har bir hududning sharoitlari har xildir (kuchli sho‘rlangan, o‘rtacha va kuchsiz sho‘rlangan, tekisliklar va notekislar). Bunday erlarda ko‘kalamzorlashtirish uchun mahalliy va introduksiya qilingan daraxtlarni tanlash chuqur bilim va tajribalarni talab qiladi [2, 6].

Avtomobil yo‘l bo‘yiga ekilgan manzarali daraxt-butalarni ko‘chatlari yo‘llarni changlardan, qor va qumlardan himoya qilish uchun hamda piyoda yo‘laklarida harakat qilayotgan insonlarning kayfiyatini oshirish, mikro iqlimni yaxshilash va badiiy bezatish uchun barpo etiladi.

Ko‘chatlar yo‘llarni yuvilishdan va emirilishidan, qum uyumlaridan, kuchli shamol va chang bo‘ronlaridan himoya qilish uchun ham ishlatiladi. Yo‘llarni ko‘kalamzorlashtirish, shovqindan himoyalovchi maxsus katta shox-shabbali daraxtlarni barpo etish, ko‘chatxonalarni tashkil etish, parvarishlash, ularni hisobga olish va muhofaza qilish tadbirlarini ham o‘z ichiga oladi [1, 4].

Tadqiqot uslubi. Daraxt va butalarning bo‘yini va rivojlanishini o‘rganish, sinov maydonlari tashkil etish orqali olib borildi. Daraxt turlarining mavsumiy rivojlanishi N.E.Buligin (1979), daraxt-butalardagi fenologik kuzatuvlar I.N.Beydeman (1974), manzaraviylik xususiyatlarini o‘rganish va baholash N.I.Shtonda (2012), sho‘rlanish sharoitida o‘sayotgan daraxtlar holatini baholash V.S.Nikolavskiy (1999), ko‘kalamzorlashtirish uchun tavsiya etilgan daraxt-butalarning samaradorligi V.M.Kan (1989) uslubiga asosan amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari. Ilmiy tadqiqot ishimiz 2021-2023 yillar davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahri va Mo‘ynoq tumanidagi asosiy avtomobil yo‘l bo‘ylarida ekilgan daraxt ko‘chatlarida va mavjud o‘sib turgan daraxt va buta turlari ustida olib borildi. Ekilgan daraxt ko‘chatlarining tutib ketishi, ildiz, novdalarining o‘sishi aniqlandi, mavjud turlar ustida fenologik kuzatishlar olib borildi. Tadqiqot ob‘ekti sifatida Qoraqalpog‘iston sharoitiga introduksiya qilingan hozirda holati qoniqarli bo‘lgan ninabargli Sharq biotasi - *Platigladus orientalis* S. va Virgin archasi - *Juniperus virginiana* L. turlari tanlab olindi. Ko‘chatlar avtomobil yo‘l bo‘yidan 3-5 metr oralig‘ida 2,0x2,0 sxemada ekildi. Olingan natijalar jadvallarda qayd etildi (1-jadval).

1-jadval

**Avtomobil yo‘l bo‘ylariga ekilgan ko‘chatlarning o‘sish holati
(Nukus shahri)**

№	Turlar	dona	yoshi	Balandlikka o‘sishi, sm		
				2021 y.	2022 y.	2023 y.

1.	<i>Platigladus orientalis</i> S.	100	5	102,6±3,3	143,9±2,9	195,7±3,7
2.	<i>Juniperus virginiana</i> L.	100	5	124,2±4,1	169,1±4,1	228,5±4,4

Ekilgan ninabargli ko'chatlarning umumiy holati qoniqarli. Ammo Virgin archasi parvarishni talab qiladi. Ushbu archa turida so'ngi 2-3 yil ishida zararkunandalar bilan zararlanish holati kuzatildi. Mavjud o'sib turgan archaning shox-shabbasida, barg qo'ltiqlarida ninabargli unsimon qurt zararkunandasi zararlagani aniqlandi (1-rasm). Ninabargli unsimon zararkunandasining lichinka va urg'ochilari archaning novdalari va barglarini so'rib zarar etkazadi. Uning lichinka va urg'ochilari barcha er ustki qismlari bilan oziqlanadi. Ayniqsa, barglar kuchli darajada zararlanadi. Ushbu hasharot xayoti davomida daraxt tanasidagi suyuqlikni so'rib oziqlanishi va o'zidan suyuqlik chiqarishi natijasida daraxtning rivojlanishi uchun zarur bo'ladigan fotosintez jarayonini buzilishi, hamda daraxtning kasalliklarga chalinishi va sovuq haroratga chidamliligi pasayib igna barglari qorayib qurish holatlari kuzatildi. Virgin archasi ko'chatining saqlanib qolish ko'rsatkishi 88% ni, Sharq biotasi ko'chatida 90% ni tashkil qildi. Mo'ynoq tumani iqlim sharoiti daraxt turlarini assortimentini sheklab qo'yadi va bu hududga ninabarglilardan saqlanib qolish darajasi qoniqarli darajada kechdi. Archa turida 72% ni Biota turida esa 78%ni tashkil qildi.



1-rasm. Vergin archasining zararlangan holati

2021-yil ekilgan archa ko'chati birinchi yili o'rtacha 44,9 sm, qayd etilgan bo'lsa ikkinchi yili 59,4 sm, qayd etildi va umumiy balandligi o'rtacha 228,5 sm, ga o'skani qayd etildi. Biota ko'chatida birinchi yili 41,3 sm, ikkinchi yili 51,8 sm, ga va umumiy balandligi o'rtacha 195,7 sm, ga o'skani qayd etildi. Ninabarglilardan eng yuqori ko'rsatkish vergin archasida kuzatilgan bo'lsa biota turida ham o'sish yomon kuzatilmadi.

Ekilgan yildan so'ng o'sishining o'rtacha 3 yillik ko'rsatkishi qo'yidagi diagrammada aks ettirilgan (2-rasm).



2-rasm: Ninabargli ko‘chatlarining o‘rtacha balandlikka o‘shish ko‘rsatkislari

Tadqiqot davomida Mo‘ynoq tumani asosiy avtomagistral yo‘l bo‘ylarida ham ko‘chatlar ekildi, taksatsion ko‘rsatkichlari aniqlandi va jadvallarda qayd etildi (2-jadval).

2-jadval

Avtomobil yo‘l bo‘ylariga ekilgan ko‘chatlarning o‘shish holati (Mo‘ynoq tumani)

№	Turlar	dona	yoshi	Balandlikka o‘shishi, sm		
				2021 y.	2022 y.	2023 y.
3.	<i>Platigladus orientalis</i> S.	50	5	104,4±2,6	144,5±3,3	193,4±2,2
4.	<i>Juniperus virginiana</i> L.	50	5	133,1±2,8	179,8±4,3	232,5±3,8

2021-yil ekilgan Biota ko‘chati birinchi yili 40,1 sm,ga ikkinchi yili 48,9 sm,ga o‘skani aniqlandi. Vergin archasi ko‘chatida birinchi yili 46,7 sm, ikkinchi yili 52, 7 sm, o‘skani qayd etildi. Ikkala turning ham saqlanib qolish darajasi qoniqarli ya‘ni 75-80 %. Ekilgan yildan so‘ng o‘shishining o‘rtacha 3 yillik ko‘rsatkishi qo‘yidagi diagrammada aks ettirilgan (3-rasm).

■ *Platigladus orientalis* ■ *Juniperus virginiana*



3-rasm: Ko‘chatlarining o‘rtacha balandlikka o‘shish ko‘rsatkislari

Xulosa. Nukus shahri va Mo‘ynoq tumanlarida ko‘kalamzorlashtirish ishlarini olib borishning o‘zi mashaqatli bo‘lib, yuqoridagi turlarning o‘shishi va

rivojlanishida iqlim omillari tarafidan muammolar mavjud. Mo‘ynoq tumanida kuchli shamol eskan paytida havoga zaharli tuzlarning ko‘tarilishi shu hududdagi o‘simlik turlarining stressga tushib qolishi yoki qurib qolishi sababli ushbu hududlarga o‘simlik turlarini tanlash muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Исмонов А.Ж. ва бошқ. Орол денгизи қуриган тубида ихота ўрмонзорларини барпо этиш мақсадида тупроқ қопламларини тадқиқ этиш // International scientific journal «Science and innovation» Special issue: «Sustainable forestry», November, 2023. – 396-401 б.

2. Qayumov A., Boltaniyozov J.S. Dust-Holding Properties Of Wood And Shrub Species In The Conditions Of The Republic Of Karakalpakstan // The American Journal of Applied sciences. - 2020. - T. 2. - №. 09. - S. 170-174.

3. Baltaniyazov J.S., Kamalovoy N.B. Как выращивать казацкий можжевельник (*Juniperus sabina*) // Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования. - 2017. - S. 819-820.

4. Baltaniyazov J.S., Kamalova N.B. Growing and developing of maple (Acer) tree in Karakalpakstan // Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономическое обеспечение сельскохозяйственного производства. - 2017. - S. 609-611.

5. Baltaniyazov J.S., Kamalova N.B. Growing and cutting of dolls pharmacy // Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономическое обеспечение сельскохозяйственного производства. - 2017. - S. 607-608.

6. Baltaniyazov J.S., Kamalova N.B. Environmental and decorative properties linden leaved (*Tilia cordata*) under Karakalpakstan // Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования. - 2017. - S. 820-821.

AVTOMOBIL YO‘L BO‘YLARIGA EKILGAN YAPROQBARGLI DARAXTLARNING O‘SISH KO‘RSATKISHLARI

Kamalova Nargiza Bekturganovna

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Nukus shahri va Mo‘ynoq tumani avtomobil yo‘l bo‘ylarini ko‘kalamzorlashtirishda yaproq bargli daraxt turlarini tanlash, ekilgan ko‘chatlarning o‘sishi, rivojlanishi va saqlanib qolishi haqida so‘z boradi. Maqolada, shuningdek, 2021-2023 yillar oralig‘ida Nukus shahri va Mo‘ynoq tumanida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Nukus shahri, Mo‘ynoq tumani, ko‘kalamzorlashtirish, avtomobil yo‘li, daraxt, ko‘chat, o‘sishi, rivojlanishi.

Kirish. Bugungi kunda shahar va qishloqlarda yashil hududlar barpo etishga katta e‘tibor berilmoqda. Bizning issiq va quruq iqlimli sharotimizda manzarali daraxt-buta turlarini tanlash, ekish va parvarishlash usullarini bilish talab etadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasini ko‘kalamzorlashtirish uchun daraxt-buta turlari assortimenti cheklangan bo‘lib, uni ko‘paytirish va yaxshilash muhimdir [2, 4].

Avtomobil yo‘l bo‘yiga ekilgan manzarali daraxt-buta ko‘chatlari yo‘llarni changlardan, qor va qumlardan himoya qilish uchun hamda piyoda yo‘laklarida harakat qilayotgan insonlarning kayfiyatini oshirish, mikro iqlimni yaxshilash va badiiy bezatish uchun barpo etiladi. Ko‘chatlar yo‘llarni yuvilishdan va emirilishidan, qum uyumlaridan, kuchli shamol va chang bo‘ronlaridan himoya qilish uchun ham ishlatiladi. Yo‘llarni ko‘kalamzorlashtirish, shovqindan himoyalovchi maxsus katta shox-shabbali daraxtlarni barpo etish, ko‘chatxonalarni tashkil etish, parvarishlash, ularni hisobga olish va muhofaza qilish tadbirlarini ham o‘z ichiga oladi [1, 5].

1-kestedegi maǵlıwmatlardan kórinip turıptı, tereńliktiń asıwı menen topıraqtıń ıǵallıǵı, tıǵızlıǵı hám qattılıǵı artıp barǵan. Topıraqtıń 0-5, 5-10, 10-15, 15-20 sm qatlamlarında sáykes túrde ıǵarlıǵı 15,4; 17,1; 19,4 hám 20,6 %, tıǵızlıǵı 1,11; 1,16; 1,23 hám 1,26 g/cm³ di, qattılıǵı bolsa 0,51; 0,65; 0,78 hám 0,91 MPa boldı. Bul pıyaz tuxımların egiw ushın agrotexnikalıq talaplarǵa juwap beredi.

Seyalkaniń jumısshı organların tańlaw hám ólshemlerin anıqlawda topıraqtıń tábiyiy tógiliw múyeshide úlken áhmiyetke iye. Qarıq algısh hám tegislegish islep atırǵanda topıraq tábiyiy tógiliw múyesh astında jaylasıp, qarıqtıń tómeni bólegindegi ol payda etgen qarıq ultanına túsedı, bul bolsa tuxımlardıń jaylasıw tereńligine tásir etedi. Egiwge tayarlanǵan atız topıraǵınıń tábiyiy tógiliw múyeshin anıqlaw ushın voronka 1, tutqısh 2, ústin 3 hám tayanısh taxta 4 ten ibarat ásbaptan paydalandıq (súwret). Voronka arqalı túsetuǵın topıraq diametri 20 mm bolǵan tesikten ótip, konus formasındaǵı úyin payda etedi, bul úyin tiykarınıń diametri d hám biyikligi h olshenedi [5, 6].

Topıraqtıń tábiyiy tógiliw múyeshi onıń ıǵallıǵına baylanıslılıǵın inabatqa alıp, onıń mánisi hár túrli 5,0 den 18, 9% ge shekem bolǵan ıǵallıqqa iye topraqlar ushın anıqlandı. Bunda úlgiler 0-10 sm topıraq qatlamınan alındı. Tájiriybeler 15 ret tákirarlıqta alıp barılıp, olardıń nátiyjeleri 2-kestede keltirilgen.

2-kestedegi maǵlıwmatlardan kórinip turıptı, topıraq tábiyiy qıyalıq múyeshiniń minimal mánisi 7-8% átirapındaǵı topıraq ıǵallıǵında baqlanadı. Topıraq ıǵallıǵınıń bul mánisten artıwı yamasa azayıwı menen tábiyiy qıyalıq



1-voronka; 2-tutqish ; 3-stoyka; 4-tayanish taxta
Súwret. Topiraqtín tábiyiy tógiliw múyeshin anıqlaw qurılıması

2-keste

Topiraqtín túrli ıgallıqtağı tabiyiy qıyalıq múyeshi

Topıraq ıgallıǵı, %	5,0	6,9	7,8	10,4	13,6	17,0	18,9
Tabiyiy qıyalıq múyeshi, °	33	30	31	33	38	39	41

múyeshi úlkenlesdi. Bul 7-8% ıgallıqta topıraq bólekleriniń óz-ara súykelisiw múyeshi minimal dárejede bolıwı menen baylanıslı. Topıraq ıgallıǵınıń azayıwı menen kesek bekkemligi asıwı nátiyjesinde topıraq bólekleriniń súykelisiw múyeshi artıp baradı.

Juwmaqlaw. Topiraqtın 0-5, 5-10, 10-15, 15-20 sm qatlamlarında sáykes túrde ıgallıǵı 15,4; 17,1; 19,4 hám 20,6 %, tıǵızlıǵı 1,11; 1,16; 1,23 hám 1,26 g/sm³ di, qattılıǵı bolsa 0,51; 0,65; 0,78 hám 0,91 MPa, topıraq ıgallıǵınıń bul mánisten artıwı yamasa azayıwı menen tábiyiy qıyalıq múyeshi úlkenlesdi. Bul 7-8% ıgallıqta topıraq bólekleriniń óz-ara súykelisiw múyeshi minimal dárejede bolıwı menen baylanıslı. Topıraq ıgallıǵınıń azayıwı menen kesek bekkemligi asıwı nátiyjesinde topıraq bólekleriniń súykelisiw múyeshi artıp baradı. Topiraqtın tabiyiy tógiliw múyeshi 38-41° di hám ólshemi 25 mm den kishi frakciyalar muǵdarı 96,8 payızdı quradı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar dizimi

1. Тўхтақўзиев А., Ибрагимов А.А., Хамидов Н.М. Бир йўла пушта олиб майда уруғли сабзаёт экинлари уруғларини экадиган сеялка пуштаолгичи текислагичининг параметрларини назарий асослаш// Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Қорақалпоғистон бўлими ахборотномаси. – Нукус, 2021. – №2. Б. 18-23.

2. Патент на полезную модель РУз. FAP № 01663. Устройство для посева семян овощных культур // Караханов А., Ибрагимов А.А.,

Абдурахманов А.А., Эшдавлатов А.Э., Хамидов Н.М.// Расмий ахборотнома. – 2021. – № 8.

3. ГОСТ-20915-2011. Испытания сельскохозяйственной техники. Методы определения условий испытаний. – Москва, 2013. – 28 с.

4. Эшдавлатов А.Э., Хамидов Н.М. Сабзавот экинларини экишга тайёрланган дала тупроғининг физик-механик хоссаларини ўрганиш// Плим ҳам жамият. – Нукус, 2021. – №2 – Б. 6-7.

5. Бахтин П.У. Физико-механические и технологические свойства почв. – Москва: Знание, 1971. – 64 с.

6. Сергиенко В.А., Байметов Р.И., Мансуров К.М. Основная обработка почвы зоны Каршинской степи. – Ташкент: Фан, 1982. – 64 с.

VIRTUAL TA'LIM MUHITIDA TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASI HAQIDA

*Sultanov Elimbet Kalimbetovich,
Ramazanov Baxitbay Nietbaevich*

Qaraqalpaqstan awil xojaligi ham agrotexnologiyalar instituti

Annotaciya. Maqolada talim sifatini ta'minlash, o'quv jarayonida talim olish natijalari o'zlashtirilishi zarur kompetensiyalarni aniqlash bilan boshlanishi yoritildi. Kompetensiyaviy yondoshuv zamonaviy talim tizimida talimning sifatini taminlaydi. Kompetensiyaviy yondoshuv talabalarning faolligini oshirishga xizmat qiladi. Bunda pedagog faoliyati muhim ahamiyatga ega.

Kalt so'zlar. Oliy ta'lim, kompetensiyaviy yondoshuv, kompetensiya, kompetentlik, qishloq xo'jaligi, kognitiv, motivasion, kreativ, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim.

Kirish. O'zbekiston agrar sohasini rivojlantirish strategiyasida "...qishloq xo'jaligini rivojlantirishning muhim ustuvor yo'nalishlarini o'z ichiga olib, xususan, tarmoq boshqaruvida davlatning ishtirokini qisqartirish va bozor mexanizmlarining rolini kuchaytirish, tarmoqning investitsion jozibadorligini ta'minlaydigan, malakali mutaxassislar tayyorlashni ko'zda tutadi" deb ta'kidlangan. Bu vazifa bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodlarini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish orqali malakali kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratadi. Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "Ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish" muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish zarurati, kompetentli kadrlar tayyorlash, bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda virtual texnologiyalaridan foydalanish metodikalarini takomillashtirish ta'lim natijasiga erishishda katta ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan virtual o'qitish texnologiyalari, pedagogik kompetensiyasi nazariy konseptual asoslari muayyan darajada o'rganilgan bo'lsa-da, bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish, kasbiy faoliyatga tayyorlashda simulyatsiya va virtual (grafik vizualizatsiya va 3D model), Personalized Learning texnologiyalaridan samarali foydalanishning nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqish va amalga tadbqiq etish zarurligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Adabiyotlar taxlili va metodologiya. O'zbekistonda bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining nazariy-metodologik hamda ishlab chiqarish xodimlarining kasbiy faoliyatini nazorat qilishning nazariy, konseptual va texnologik asoslari R.X.Djuraev, Sh.E.Qurbanov, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, O.X.To'raqulov, E.S.Seytxalilov, J.A.Hamidov, B.B.Ergashov, D.Ximmatalievlar tomonidan tadqiq etilgan. Ta'lim jarayoniga yangi metodikalarni qo'llashning ilmiy-metodik asoslari, professional ta'lim sohasi o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda uslubiy ta'minotini yaratishga doir tadqiqot ishlari A.R.Xodjabaev, Z.K.Ismoilova, H.F.Rashidov, S.Yu.Ashurova, Sh.S.Sharipov, H.Sh.Qodirov, M.B.Urazova va O.A.Qo'ysinovlar tomonidan o'rganilgan.

Natijalar. Tadqiqot ishida ilmiy-pedagogik yondashuv asosida, kasbiy kompetensiyani shakllantirish mezonlari asosida kasbiy kompetensiya darajalari aniqlandi, simulyatsiya, virtual texnologiya (grafik vizualizatsiya va 3D model), Personalized Learning (shaxsga yo'naltirilgan ta'lim) texnologiyalaridan foydalanildi. Virtual ta'lim texnologiyalarining shaxsni rivojlantirishga qaratilganligi Personalized Learningni qo'llash asosida qishloq xo'jaligi mashinalarini samarali foydalanish va sohada bu mashinalarni qo'llashning texnik tayyorligiga erishildi. Bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini simulyatsiya, virtual va Personalized Learning texnologiyalari asosida takomillashtirishda foydalanilgan metodikaga tayanib, ularni foydalanish metodikasi takomillashtirildi.

Muhokama. Qishloq xo'jaligi ning bugungi taraqqiyoti shu soha uchun tayyorlanayotgan mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligiga bog'liq hisoblanadi. Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirishni nazarda tutadi. Buning uchun ta'lim jarayoniga simulyatsiya va virtual, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari va zamonaviy usullarni joriy etish orqali oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilish va raqobatbardoshligini ta'minlash maqsad qilingan.

Virtual ta'lim muhiti ta'lim jarayoni sifatini oshirishga, uni innovatsion mazmun bilan to'ldirishga, talabalarda mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash ko'nikmasini shakllantirishga imkon yaratadi. IT texnologiyalarini qishloq xo'jaligi da qo'llash sohalariga quyidagilar kiradi: "aqli dehqonchilik", "aqli fermalar", "aqli issiqxonalar va xom ashyoni boshqarish", qishloq xo'jaligi

mahsulotlarini saqlash, qishloq xo'jaligi texnikalarini samarali foydalanish, "Big Data" va boshqalar. Qishloq xo'jaligi mutaxassislari ta'lim jarayonida majburiy fanlar negizida raqamli texnologiyalarni qo'llash ko'nikmasiga ham ega bo'lib, amaliyot jarayonida ushbu texnologiyalarni qo'llash va yangi loyihalar yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Asosiy e'tibor virtual muhitda qishloq xo'jaligi mutaxassislari o'qitish faoliyatiga qaratilgan. Shu maqsadda xorijiy davlatlar AQSh, Yevropa davlatlarida qishloq xo'jaligi mutaxassislari kasbiy faoliyatga tayyorlash tendensiyalari aniqlandi.

AQShda bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislari ma'lum talablar birinchi o'ringa qo'yiladi: odamlarning ijtimoiy oqibatlar va ekologik xavfsizligini hisobga olgan holda murakkab qishloq xo'jaligi mutaxassislari muammolari yechimini loyihalash kompetensiyasi, individual a'zolar bilan jamoada ishlash kompetensiyasi, kasbiy muammolarni hal qilish uchun hamkasblar guruhi va h.k.

Yevropada bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislari kasbiy faoliyati davomida quyidagi talablar qo'yiladi: qishloq xo'jaligi mutaxassislari muammolarini hal qilish uchun ijodiy g'oyalarni ishlab chiqish kompetensiyasi, inson hayoti uchun xavfsiz muhit yaratishda qishloq xo'jaligi mutaxassislari tafakkuridan foydalanishi, professional qishloq xo'jaligi mutaxassislari agrar sohasi muammolarini hal qilishning yangi shakllari va usullarini ishlab chiqishga tayyorligi, maqsadlar va ularga erishish uchun strategiyalarni ishlab chiqish kompetensiyasi va boshqalar.

O'zbekistonda bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislari quyidagi talablar quyiladi: fanlararo bilimlarni to'plash kompetensiyasi, kompyuter texnologiyalari va boshqa aloqa va axborot vositalaridan, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanish kompetensiyasi, professional qishloq xo'jaligi mutaxassislari muammolarini ijodiy hal qilish kompetensiyasi, hayot davomida o'rganish kompetensiyasi va virtual texnologiyalari asosida kasbiy muammolarni hal eta oladigan bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislari mehnat bozori talablari asosida tayyorlash.

Qishloq va suv xo'jaligi sohalarini jadal rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri qishloq xo'jaligi texnikalaridan samarali va to'g'ri foydalanish, ularni modernizatsiyalash va ilmiy-texnik taraqqiyot tavsiyalariga asoslangan holda yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etish hisoblanadi. Shu sababdan pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda qishloq xo'jalik mutaxassislari tayyorlash ilmiy-uslubiy didaktik ta'minotni yaratishni taqozo etadi.

Ushbu jarayonni hisoblash, axborot vositalari va axborot savodxonligini asosiy ko'nikmalari axborot provayderlari (masalan, kutubxonalar) funksiyalarini tushunishlari kasbiy kompetentlikni ta'minlaydi

Xulosa. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan didaktik materiallarning sifatini oshirish, uchun grafik ma'lumotlarni idrok etishni yaxshilash maqsadida Kompas-3D uch o'lchovli modellashtirish dasturidan foydalanildi. Kompas-3D chizmalar, eskizlar, diagrammalar, qismlar va mexanizmlarning modellarini yaratish,

shuningdek ularni ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida taqdim etish imkonini beradi.

Oldingi usullardan farqli o'laroq, tasvir imkon qadar ma'lumotli va batafsil olinadi. Bunga tizim vositalari va obyekt haqidagi ma'lumotlarni uch o'lchovli modeldan planetar chizmaga o'tkazish, shuningdek, tekis chizish va tahrirlash vositalaridan (mahalliy kesmalar va kesmalar, assotsiativ ko'rinishlar, aksonometriya va boshqalar) foydalanish orqali erishildi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislari uchun muallif tomonidan taklif etilgan simulyatsiya, virtual ta'lim texnologiyalari va shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan Personalized Learning texnologiyasi kasbiy faoliyat jarayonida texnik vaziyatda axborot texnik tayyorgarligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5853-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" PF-5847-son Farmoni.

3. Sultanov E.K., Bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislari kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi. Monografiya. Toshkent. "Afzalzoda books". 2023. 252 b.

4. Sultanov E.K., Preparing Future Agricultural Specialists for Professional Activities Based On a Competency-Based Approach. European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE). Volume 4/Issue 11/Nov-2024 ISSN: 2795-8612. 280-283 p. <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/4484>.

5. Sultanov E.K., On the Issues of Preparing Agricultural Specialists for Professional Activities. International Journal Of Formal Education. Volume:3 Issue: 11 / Nov-2024. ISSN"-2720-6874. <https://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/3924>.

QOTGAN MINERAL O'G'ITLARNI MAYDALAGICH BARABANIGA ME'YORLAB UZATADIGAN ҚИСМИНИНГ ИШ JARAYONINI ASOSLASH


**Auyezov Ongarbay Pirlshovich,
Orinbayeva Sayyora Maxsetbayevna**

Qaraqalpaqstan awil xojalığı hám agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya: Maqolada qotgan mineral o'g'itlarni meyorlab beradigan qismiga ega maydalagich ishlab chiqilgan va uning asosiy parametrlari aniqlangan.

Kalit suzlar: Qotgan mineral o'g'it, bunker, meyorlab beruvchi barabanlar, maydalagich, deka, tishlar, elektrodvigatel.

Maydalagichning bunkeriga qotgan mineral o'g'itlarni solmasdan oldin qotgan mineral o'g'itlarni me'yorlab beruvchi barabanlar muvozanat holatida bo'ladi. Bunkerga qotgan mineral o'g'itlar solinishi bilan ularning bo'laklari me'yorlab buruvchi barabanlar ustiga tusha boshlaydi [1]. Natijada me'yorlab beruvchi barabanlarga o'g'it bo'laklarining og'irlik kuchi R_g va ishqalanish kuchi F ta'sir etadi. Bu kuchlar ordinata o'qi Y ga nisbatan α burchagi ostida ta'sir etadi deb olsak, unda kuchlarning ta'sir yo'nalishi 1-rasmdagidek bo'ladi.



1-bunker devori; 2-o'g'itlarni me'yorlovchi barabanlar o'rnatiladigan bunker cho'ntagi (karmani); 3-me'yorlovchi barabanlarning biri riflyon bo'rtiklari bilan; 4-maydalash kamerasing devori.

1-rasm. Me'yorlovchi barabanlarning biriga tushadigan kuchlar sxemasi

R_g va F kuchlari me'yorlab beruvchi barabanlarni aylantiruvchi moment M ni hosil qiladi, uni quyidagicha ifodalash mumkin.

$$M_{ayl} = R(P_g \sin \alpha - F), \quad (1)$$

bunda R – me'yorlovchi baraban radiusi, m;

F – ishqalanish kuchi, N;

P_g – og'irlik kuchi, N.

1 - ifodada keltirilganidek, me'yorlovchi barabanlarni aylantiruvchi moment barabanlar radiusiga va o'g'itlarning og'irlik kuchiga bog'liq.

Qotgan mineral o'g'itlarni uzluksiz (blokirovkasiz) maydalash uchun vaqt birligida maydalovchi barabanning o'g'itlarni maydalash hajmi me'yorlovchi barabanlarning orasidan o'tadigan mineral o'g'itlarning hajmiga teng yoki ortiq bo'lishi lozim, ya'ni quyidagi shart bajarilishi kerak:

$$V_{me'yor} \leq V_{mayd} \quad (2)$$

bunda $V_{me'yor}$ – vaqt birligida me'yorlovchi barabanlar orasidan o'tadigan mineral o'g'itlarning hajmi, m^3 ;

V_{mayd} – vaqt birligida maydalovchi barabanlar tomonidan maydalanadigan mineral o'g'itlarining hajmi, m^3 .

1. ЎзР патенти № IAP 05646. Минерал ўғитни майдалагич / Хаджиев А.Х., Ауезов О.П., Утениязов П.А., Оринбаева С.М. // Расмий ахборотнома, 2018. – № 9.

2. Бать М.И., Джанелидзе Г.Ю., Кельзон А.С – Теоретическая механика в примерах и задачах. Т. II: Динамика (7-е изд. Перераб.). – Москва: Наука, 1985. – 560 с.

ЎЎТ 631.314.6

КОМБИНАЦИЯЛАШГАН АГРЕГАТ ТИШЛАРИ ПАРАМЕТРЛАРИНИ УНИНГ ИШ КЎРСАТКИЧЛАРГА ТАЪСИРИ

А.С. Курбаниязов

Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти

Кириш. Республикамизда ерларни баҳорда экишга тайёрлаш алоҳида-алоҳида агрегатлар билан бажариладиган бороналаш, чизеллаш ва молалаш каби агротехника тадбирларидан ташкил топган. Бу ерларни экишга тайёрлашда кўп меҳнат, ёнилғи ва бошқа харажатларни сарфланишига, тупроқдаги намни йўқатишига, унинг структурасини бузилишига ва ортиқча зичланишига олиб келади. Ушбу таъкидланганлардан келиб чиққан ҳолда даладан бир ўтишда тупроқни экишга тайёрлайдиган комбинациялашган агрегат ишлаб чиқилди [1, 2].

Тадқиқот вазифасини қўйилиши. У кетма-кет уч қатор ўрнатилган иш органларидан иборат бўлиб, биринчи қаторда ясси кесувчи пичоқлар, иккинчи қаторга тишлар ва учинчи қаторга текислагич-зичлагич ўрнатилган. Унинг иш жараёни қўйидагича амалга ошади: агрегат далада ҳаракатланганда унинг ясси кесувчи пичоқлари тупроқни белгиланган чуқурликка юмшатади ҳамда йўилида учрайдиган дўнгликларни кесиб, пастликларга суриш ҳисобига ишлов берилаётган майдоннинг юзасини текислайди, тишлар ясси кесувчи пичоқлар таъсири остида дала юзасида ҳосил бўлган йирик кесакларни майдалайди, текислагич-зичлагич эса дала юзасини якуний текислайди ва зичлайди.

Тадқиқот объекти ва методикаси. Ушбу мақолада ишлаб чиқилган комбинациялашган агрегат тишлари узунлиги ва улар изларининг кенглиги, яъни улар орасидаги кўндаланг масофани унинг иш кўрсаткичларига таъсирини ўрганиш бўйича ўтказилган тажрибавий тадқиқотларнинг натижалари келтирилган.

Тажрибалар Қорақалпоғистон дехқончилик илмий-тадқиқот институтининг тажриба хўжалиги далаларида ерларни чигит экишга тайёрлаш даврида шўри ювилган ва эрта баҳорда бороналанган фонда ўтказилди. Тажрибалар ўтказилишдан олдин тупроқнинг 0-10 ва 10-20 см қатламидаги намлиги, қаттиқлиги ва зичлиги мос равишда 13,5 ва 17,1 фоизни, қаттиқлиги 0,89 ва 1,87 МРни ва зичлиги 1,08 ва 1,26 g/cm³ ни ташкил этди.

Тажрибаларни ўтказиш учун комбинациялашган агрегат ишчи органларининг параметрларини кенг ораликда ўзгартириш имконига эга бўлган махсус лаборатория-дала қурилмаси ишлаб чиқилди. Тажрибаларда лаборатория-дала қурилмаси ТТЗ-812 трактори билан агрегатланиб 6,0 ва 8,0 km/h тезликларда ишлатилди.

Илмий-тадқиқот натижалари. Тажрибаларда комбинациялашган агрегат тишларининг узунлиги ва улар изларининг кенглигини, тупроқнинг уваланиш сифати ва лаборатория-дала қурилмасининг тортишга қаршилигига таъсири ўрганилди. Бу кўрсаткичлар O‘z Dst 3415: 2019 “Қишлоқ хўжалиги техникасини синаш. Тупроқ юзасига ишлов берувчи машиналар ва қуроллар. Синов дастури ва усуллари” ва O‘zDSt 3193:2017 “Қишлоқ хўжалиги техникасини синаш. Машиналарни энергетик баҳолаш усули” бўйича аниқланди [3, 4].

Комбинациялашган агрегат тишларининг узунлигини унинг иш кўрсаткичларига таъсири. Бу тажрибаларни ўтказишда тишларнинг узунлиги 20 mm интервал билан 140 mm дан 200 mm гача ўзгартирилди.

Тажрибаларда олинган натижалар 1-жадвалда келтирилган. Улардан кўришиб турибдики, комбинациялашган агрегат тишларининг узунлиги ортиши билан тупроқнинг уваланиш даражаси қавариқ парабола қонунияти билан ўзгарган, яъни тишлар узунлиги 140 mm дан 180 mm га ортганда 6 km/h ҳаракат тезлигида бу кўрсаткич 84,2 % дан 86,7 % га, 8 km/h ҳаракат тезлигида 85,6 % дан 89,4 % га ортган. Тишлар узунлиги

1-жадвал

Комбинациялашган агрегат тишлари узунлигини унинг иш кўрсаткичларига таъсири

Тиш узунлиги, mm	Тупроқнинг қуйидаги ўлчамли (mm) фракциялари миқдори, %			Қурилманинг тортишга қаршилиги, kN
	>50	50-25	<25	
Ҳаракат тезлиги 6 km/h				
140	5,7	10,1	84,2	4,27
160	4,6	9,7	85,7	4,46
180	5,7	7,6	86,7	4,51
200	5,9	11,3	82,8	4,59
Ҳаракат тезлиги 8 km/h				
140	4,7	9,7	85,6	4,41
160	3,4	7,3	89,3	4,62
180	4,5	6,1	89,4	4,69
200	6,8	7,2	86	4,71

180 mm дан 200 mm гача ортганда тупроқнинг уваланиш даражаси кўрсатилган тезликларда мос равишда 86,7 % дан 82,8 % га ва 89,4 % дан 86,00 % га камайган. Лаборатори-дала курилмасининг тортишга қаршилиги тиш узунлиги 140 mm дан 200 mm ортиши билан ҳар иккала тезликда ҳам ортган, яъни ҳаракат тезлиги 6 km/h бўлганда 4,27 kN дан 4,59 kN га, 8 km/h да 4,41 kN дан 4,71 kN га ортган. Бу асосан тишларнинг тупроққа ботиш чуқурлиги ортиши билан изоҳланади.

Комбинациялашган агрегат тишлари излари кенглигини унинг иш кўрсаткичларига таъсири. Бу тажрибаларда тишлар изларининг кенглиги 10 mm интервал билан 100 mm дан 140 mm гача ўзгартирилди. Тажрибаларда олинган маълумотлардан кўришиб турибдики (2-жадвал), тишлар изларининг кенглиги ортиши билан ҳар иккала тезликда ҳам тупроқнинг уваланиш сифати ёмонлашган, курилманинг тортишга қаршилиги камайган. 6 km/h ҳаракат тезлигида тишлар изларининг кенглиги 100 mm дан 140 mm гача ортганда ўлчами 50 mm дан катта бўлган тупроқ фракцияларининг миқдори 3,2 % га ортган, ўлчами 25 mm дан кичик бўлган тупроқ фракциялари 7,8 % га камайган, тортишга қаршилик 0,28 kN га камайган, 8 km/h ҳаракат тезлигида бу ўзгаришлар мос равишда 3,0 %, 7,2 % ва 0,31 kN ни ташкил этган. Буни тишлар излари орасидаги масофа ортиши билан уларнинг орасида ишлов берилмай қолган зоналар ортиши билан изоҳлаш мумкин.

2-жадвал

Комбинациялашган агрегат тишлари изларининг кенглиги унинг иш кўрсаткичларига таъсири

Тишлар изларининг кенглиги, mm	Тупроқнинг куйидаги ўлчамли (mm) фракциялари миқдори, %			Курилманинг тортишга қаршилиги, kN
	>50	50-25	<25	
Ҳаракат тезлиги 6 km/h				
100	5,3	6,2	88,5	4,65
110	6,2	8,6	85,2	4,45
120	6,8	10,1	83,1	4,41
130	8,2	10,4	81,4	4,38
140	8,5	10,8	80,7	4,37
Ҳаракат тезлиги 8 km/h				
100	4,9	5,7	89,4	4,79
110	5,7	7,8	86,5	4,56
120	6,4	9,4	84,2	4,54
130	7,6	9,6	82,8	4,49
140	7,9	9,9	82,2	4,48

Ҳар иккала тажрибаларда ҳам агрегат ҳаракат тезлиги 6 km/h дан 8 km/h гача ортиши билан тупроқнинг уваланиш сифати яхшиланган, қурилманинг тортишга қаршилиги ортган. Чунки тезлик ортиши билан тишлар томонидан тупроққа бериладиган зарба кучи ва тупроқнинг тишга қаршилиқ кучи ортади.

Хулоса: Ўтказилган тажрибавий тадқиқотларнинг натижалари бўйича ишлаб чиқилган комбинациялашган агрегат тишларининг узунлиги 160-180 mm, улар изларининг кенглиги кўпи билан 120 mm бўлиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Тўхтақўзиев А., Артикбаев Б., Қурбаниязов А. Комбинациялашган агрегат// Иновацион техника ва технологияларнинг қишлоқ хўжалиги – озиқ-овқат тармоғидаги муаммо ва истиқболлари мавзусидаги Халқора илмий-техник анжумани илмий ишлар тўплами. Т.1. – ТДТУ, Тошкент: 20-21 апрел, 2023. – Б. 45-46.

2. Тўхтақўзиев А., Артикбаев Б., Қурбаниязов А., Дланова Г. Комбинациялашган агрегатнинг юмшатувчи тишлари параметрларини асослаш// Юқори самарали қишлоқ хўжалиқ машиналарини яратиш ва техника воситаларидан фойдаланиш даражасини оширишнинг инновацион ечимлари: Халқора илмий-техник конференцияси илмий мақолалар тўплами. – ҚХМИТИ, Гулбаҳор: 29 сентябр, 2023. – Б. 73-77.

3. O‘z Dst 3415: 2019 “Қишлоқ хўжалиги техникасини синаш. Тупроқ юзасига ишлов берувчи машиналар ва қуроллар. Синов дастури ва усуллари” – Тошкент, 2019. – 52 Б.

4. O‘zDSt 3193:2017 “Қишлоқ хўжалиги техникасини синаш. Машиналари энергетик баҳолаш усули” – Тошкент, 2017. – 21 Б.

ЎЎТ 631.314.6

КОМБИНАЦИЯЛАШГАН АГРЕГАТ ЯССИ КЕСУВЧИ ПИЧОҚЛАРИНИНГ ПАРАМЕТРЛАРИНИ УНИНГ ИШ КЎРСАТКИЧЛАРГА ТАЪСИРИ

А.С. Қурбаниязов

Қишлоқ хўжалигини механизациялаш илмий-тадқиқот институти

Кириш. Ушбу мақолада ерларни бир ўтишда экишга тайёрлашда қуллаш учун ишлаб чиқилган комбинациялашган агрегат [1,2] ясси кесувчи пичоқларининг ҳаракат йўналишига нисбатан ўрнатилиш ва увалаш бурчакларини унинг иш кўрсаткичларига таъсирини ўрганиш ва бунда олинган натижалар асосида уларнинг мақбул қийматларини асослаш бўйича ўтказилган тажрибавий тадқиқотларнинг натижалари келтирилган.

Тадқиқот вазифасининг қуйилиши. Тажрибалар Қорақалпоғистон дехқончилик илмий-тадқиқот институтининг тажриба хўжалиги далаларида ерларни чигит экишга тайёрлаш даврида шўри ювилган ва эрта баҳорда бороналанган фонда ўтказилди.

Тадқиқот объекти ва методикаси. Таҷрибалар ўтказилишидан олдин тупроқнинг 0-10 ва 10-20 см қатламлардаги намлиги, қаттиқлиги ва зичлиги мос равишда 13,5 ва 17,1 фоизни, 0,89 ва 1,87 МПа ни ва 1,08 ва 1,26 g/cm³ ни ташкил этди. Таҷрибалар махсус ишлаб чиқилган ва тайёрланган лаборатория-дала қурилмасидан фойдаланиб ўтказилди. Бунда қурилма ТТЗ-812 трактори билан агрегатланди.


Илмий-тадқиқот натижалари. Таҷрибаларда комбинациялашган агрегат ясси кесувчи пичоқларининг ҳаракат йўналишига нисбатан ўрнатилиш ва увалаш бурчакларини тупроқнинг уваланиш даражаси, яъни ўлчами 25 mm дан кичик бўлган тупроқ фракциялари миқдори ва лаборатория-дала қурилмасининг тортишга қаршилигига таъсири ўрганилди. Бу кўрсаткичлар O‘z Dst 3415: 2019 “Қишлоқ хўжалиги техникасини синаш. Тупроқ юзасига ишлов берувчи машиналар ва қуроллар. Синов дастури ва усуллари” ва O‘zDSt 3193:2017 “Қишлоқ хўжалиги техникасини синаш. Машиналарни энергетик баҳолаш усули” бўйича аниқланди[3,4].

Комбинациялашган агрегат ясси кесувчи пичоқларининг ҳаракат йўналишига нисбатан ўрнатилиш бурчагини унинг иш кўрсаткичларига таъсири. Бу таҷрибаларни ўтказишда ясси кесувчи пичоқларининг ҳаракат йўналишига нисбатан ўрнатилиш бурчаги 5° интервал билан 30° дан 45° гача ўзгартирилди. Бунда ясси кесувчи пичоқларининг увалаш бурчаги 30°, ҳаракат тезлиги 6 ва 8 km/h этиб белгиланди.


Таҷрибаларнинг натижалари 1-расмда келтирилган. Улардан кўришиб турибдики, комбинациялашган агрегат ясси кесувчи пичоқларининг ҳаракат йўналишига нисбатан ўрнатилиш бурчагини 30° дан 40° гача ортиши билан ҳар иккала тезликда ҳам тупроқнинг уваланиш даражаси жадал ортган, 40°-45° оралиғида деярли ўзгармаган, яъни тадқиқ этилаётган бурчак 30° дан 40° ортганда бу кўрсаткич, яъни ўлчами 25 мм кичик бўлган фракциялар миқдори 6 km/h тезликда 48,3 % дан 68,5 % гача, 8 km/h тезликда эса 55,1% дан 74,5 % гача ортган бўлса, 40° дан 45° ўзгарганда эса мос равишда 68,5 % дан 69,3 % га ва 74,5% дан 75,9 % га ортган холос.

Ясси кесувчи пичоқларнинг ҳаракат йўналишига нисбатан ўрнатилиш бурчаги 30°дан 45° ортганда қурилманинг тортишга қаршилиги ортган, яъни агрегат ҳаракат тезлиги 6 km/h бўлгандан 4,00 кН дан 4,50 кН гача, 8 km/h да 4,41 кН дан 5,09 кН гача ортган. Буни ушбу бурчакни ортиши ясси кесувчи пичоқлар томонидан тупроқнинг ҳаракат йўналиши бўйича сиқилиш даражасини ортишига олиб келиши билан изохлаш мумкин, яъни ясси кесувчи пичоқларни ҳаракат йўналишига нисбатан ўрнатиш бурчаги ортиши билан тупроқни ҳаракат йўналиши бўйича сиқувчи куч ортади.

Ҳаракат тезлигини 6 km/h дан 8 km/h гача ортиши тупроқнинг уваланиш даражаси ва қурилманинг тортишга қаршилигини ортишига олиб келган. Ўтказилган тадқиқотларнинг натижалари бўйича кам энергия сарфлаган холда тупроқни юқори даражада уваланишини таъминлаш учун ясси кесувчи пичоқнинг ҳаракат йўналишига нисбатан ўрнатилиш бурчаги 40° атрофида бўлиши лозим.



а)




б)


1,2-мос равишда ҳаракат тезлиги 6 ва 8 km/h бўлганда
1-расм. Тупроқнинг уваланиш даражаси (а) ва қурилманинг тортишга қаршилиги (б) ни ясси кесувчи пичоқларнинг ҳаракат йўналишига нисбатан ўрнатилиш бурчагига боғлиқ равишда ўзгариш графиклари

Комбинациялашган агрегат ясси кесувчи пичоғининг увалаш бурчагини унинг иш кўрсаткичларига таъсири. Бу тажрибаларни ўтказишда ясси кесувчи пичоқларнинг увалаш бурчаги 5° интервал билан 25° дан 40° гача ўзгартирилди. Бунда ясси кесувчи пичоқларнинг ҳаракат йўналишига нисбатан ўрнатилиш бурчаги 40° ва ҳаракат тезлиги 6 ва 8 km/h этиб белгиланди.

Тажрибаларда олинган маълумотлар 2-расмда келтирилган. Улар шуни кўрсатадики, қурилманинг ҳар иккала ҳаракат тезлигида ҳам ясси кесувчи пичоқларнинг увалаш бурчагини 25° дан 35° гача ортиши тупроқнинг уваланиш даражаси ортишига, 35° дан 40° гача ортиши эса бу кўрсаткични пасайишига олиб келган. Буни иш органи таъсири остида тупроқдан ажралаётган кесаклар ўлчамларини кўп жиҳатдан унинг ҳаракат йўналишига нисбатан ўрнатилиш бурчагига боғлиқ равишда ўзгариш қонунияти билан боғлаш мумкин. $\alpha=30-35^\circ$ бўлганда кесакларнинг ўлчамлари минимал қийматга эга бўлган.



а)



б)

1,2-мос равишда ҳаракат тезлиги 6 ва 8 km/h бўлганда
**2-расм. Тупроқнинг уваланиш даражаси (а) ва қурилманинг
тортишга қаршилиги (б) ни ясси кесувчи пичоқларнинг увалаш
бурчагига боғлиқ равишда ўзгариш графиклари**

Тезлик 6 km/h дан 8 km/h гача ортганда тупроқнинг уваланиш даражаси ортган.

Қурилманинг тортишга қаршилиги ясси кесувчи пичоқларнинг увалаш бурчагига боғлиқ равишда ботик парабола кўринишида ўзгарди, яъни у 25°-30° бурчак оралиғида камайди, 30°-40° бурчак оралиғида ортди.

Буни ҳам юқорида таъкидланган сабаблар билан тушунтириш мумкин, чунки иш органи таъсири остида тупроқдан ажралаётган кесаклар ўлчамларини камайиши уни парчалаш учун сарфланаётган энергия миқдорини камайишига олиб келади.

Демак, ўтказилган тадқиқотларнинг натижалари асосида ясси кесувчи пичоқларнинг увалаш бурчагини 30° қабул қиламиз. Бунда тупроқни кам энергия сарфлаган ҳолда сифатли уваланиши таъминланади.

Хулоса: Ўтказилган тажрибавий тадқиқотларнинг натижалари бўйича тупроқни кам энергия сарфлаб юқори даражада уваланиши таъминлаш учун комбинациялашган агрегат ясси кесувчи пичоқларининг ҳаракат йўналишига нисбатан ўрнатилиш ва увалаш бурчаклари мос равишда 40° ва 30° бўлиши лозим.

Фойданилган адабиётлар

1. Тўхтақўзиев А., Артикбаев Б., Қурбаниязов А. Комбинациялашган агрегат// Иноовацион техника ва технологияларнинг қишлоқ хўжалиги – озиқ-овқат тармоғидаги муаммо ва истиқболлари мавзусидаги Халқора илмий-техник анжумани илмий ишлар тўплами. Т.1. – ТДТУ, Тошкент: 20-21 апрел, 2023. – Б. 45-46.

2. Тўхтақўзиев А., Артикбаев Б., Қурбаниязов А., Дланова Г. Комбинациялашган агрегатнинг юмшатувчи тишлари параметрларини асослаш// Юқори самарали қишлоқ хўжалик машиналарини яратиш ва техника воситаларидан фойдаланиш даражасини оширишнинг инновацион ечимлари: Халқора илмий-техник конференцияси илмий мақолалар тўплами. – ҚХМИТИ, Гулбаҳор: 29 сентябр, 2023. – Б. 73-77.

3. O‘z Dst 3415: 2019 “Қишлоқ хўжалиги техникасини синаш. Тупроқ юзасига ишлов берувчи машиналар ва қуроллар. Синов дастури ва усуллари” – Тошкент, 2019. – 52 Б.

4. O‘zDSt 3193:2017 “Қишлоқ хўжалиги техникасини синаш. Машиналари энергетик баҳолаш усули” – Тошкент, 2017. – 21 Б.

**V-SEKCIYA. ZOOTEKNIYA, VETERINARIYA, BALIQSHILIQ,
JIPEKSHILIK HÁM EKOLOGIYA TARAWLARIN RAWAJLANDIRIW**

UDK: 636.1.637.5.

**XALÍQ XOJALÍQLARÍNDÁ JÍLQÍSHÍLÍQTÍ RAWAJLANDÍRÍWDÍN
ÁXMIYETIN HÁM RAWAJLANÍWÍNA TÁSIRIN ÚYRENIW**

Eshmuratova Suliwxan To'legenovna

Qaraqalpaqstan awil xojaligi ha'm agrotexnologiyalar instituti

Ajiniyazov Baxitbay Kenesbaevich

«Zooinjeneriya hám veterinariya» kafedrasi dotsentI, a.x.i.d.(PhD).

Turdimuratova Gulida No'kisbay qizi

Na'silshilik qa'niygeligi magistranti

Annotatsiya. Maqalada jergilikli xaliq xojaliqlarında jilqilardin basi sanin kobeytiw ham bagiliw sharayatlari, orshitiw sharayatlari uyreniw natijeleri keltirilgen.

Gilt sozler: Jetiliwsheñligi, Qarabayır porodası, salt miniliwshi, Atxana sharayati, milliy at oynları.

Kirisiw, Qaraqalpaqstan Respublikasında sharwashılıq tarawların jetilistiriw, awıl xojalığında islep shıgariw kólemin asırıw hámde qayta islew texnologiyaların modernizaciyalaw maqsetinde Ózbekstan Respublikası Prezidenti tárepinen 2020-jıl 11-noyabrdegi “2020-2023-jıllarda Qaraqalpaqstan Respublikasın kompleks sociallıq-ekonomikalıq rawajlandırıw is-ilajları haqqında”ğı PQ-4889-sanlı, 2019-jıl 7-noyabrdegi “Qaraqalpaqstan Respublikasında sharwashılıq tarawların jedel rawajlandırıw is-ilajları haqqında”ğı PQ-4512-sanlı qararları qabıl etildi.

Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2021-jıl 11-martdağı “Jılqıshılıq hám at sportın jáne de rawajlandırıw hám de zamanagóy bes gúres hám polo sport túrin galabalastırıw boyınsha qosımsha ilajlar tuwrısında” ği PQ-5024-san qararına muwapıq, bul sport túrleri rawajlanıwınıń jaqın hám uzaq múddetli kelesheklerin belgilew hám galabalastırıw belgilengen.

Joqarıdağı qararlarda atap ótilgenindey, Qaraqalpaqstan Respublikasında sharwashılıq tarawların ilim-pán jetiskenlikleri, jetekshi shet-el mámleketleriniń tájriybeleri hám de innovacion texnologiyalardı engizgen halda awıl xojalığı hám sharwashılıqtı jedel rawajlandırıw, sharwashılıq infradúzilmesin hám xalıqtıń jasaw sharaytların jaqsılaw, aylanıstan shıqqan jerlerdi qayta ózlestiriw, zooveterinariya servis xizmetlerin, násilshilik hám jasalma urıqlandıırıw jumısların jaqsılaw boyınsha bir qatar wazıypalar belgilep ótilgen.

Jılqıshılıqtı ja'ne de rawajlandiriw faktorlardan biri o'nimdarlig'i joqari bolg'an jaña at parodaların jaratiwdi ha'm jergilikli sharayatqa maslasqan at parodaların jetilistiriwdi talap etti. Sonday-aq, atlardıń jil dawamında sag'lam

rawajlaniwin ta'minlew ushin olardi ha'r qiyli ot jemler menen jeterli mug'darda ta'minlew talap etiledi.

Jumistin` maqseti – Xaliq xojaliqlarında jilqishiliqti rawajlandiriwdin ahmiyetin ham rawajlaniwina ta'sirin u'yreniw. Sol maxsetten kelip shiqqan jag'dayda to'mendegi waziypalardi islewdi o'z aldimizg'a qoyamiz.

- Xojalig'ında jilqilardi bagiw sharayatlarin u'yreniw;
- Xojaliqta nasilli atlardi tiri salmag'in salistiriw;
- Nasilli jas tayinshaqlar rawajlaniwin u'yreniw;
- Islengen tájiriybeler boyinsha juwmaqlar shig'ariw;

Qaraqalpaqstan respublikasi Nókis rayoni Baqanshaqlı APJ, Darsan massivi «**Er Ziywar**» sharwa fermer xojalığı sharayatında «Xaliq xojaliqlarında jilqishiliqti rawajlandiriwdin ahmiyetin ham rawajlaniwina ta'sirin u'yreniw» bolip tabiladi.

Jetiliwshenligi boyinsha turli parodalar bir birinen keskin pariqladi. Normal aziqlandiriw sharayatında sap qanli salt miniliwshi, awir ju'k tartiwshi, rus ham orlov uyir parodalari basqa parodalardan salistirg'anda tez jetiledi. 3-5 jasqa jetkende olar u'ken jastag'i atlardıñ salmag'in iyeleydi. Sol da'wirde olardıñ is qa'bileti eñ joqari biyikke jetedi. Lekin soni aytiw kerek, bul paroda atlariniñ organizmi aziqa ham sirtqi sharayati qarab tez o'zgeredi. Aziq sharayati ham asiraw sharayati jaman bolsa, olar o'siw ham rawajlaniwda arqada qaladi, xojaliq ham na'sildarlıq qa'siyetin jog'altadi. [1]

Usi tarawdi rawajlandiriwda respublika ilimiy tadqiqat institut alimlari jilqishiliq boyinsha atshiliq zavodlari, ekanomikalastiriw shirket xojaliqlarında ha'm jan`adan sho'lkemlestiriw ushin parodalar na`silin jaqsilaw, ot - jem bazasin ko`beytiw aziqlandiriw, saqlaw qag`iydalarinada itibar beriw joli menen jilqishiliqti keleshekte respublikamızda ja`nede rawajlandiriw mumkin.

Atxana sharayatında biyeler qolay, quriq, jaqsi samallatilatugin ham jariq binalarda saqlanadi. Biyelerdin racionina har turli paydali aziqlar kiritiledi, bul racion quramında jeterli mug'darda aziq zatlarin, mako ham mikroelementler, vitaminler boliwi, sol menen birge biyelerdi normadan artiq semirip ketiwine jol qoymaslıq kerek. Jazda racionnin tiykargi jaylaw aziqalari, atxanada saqlangan waqtında joqari sipatli pishen quraydi. [2]

Alıp barılğan ilimiy-izertlewler nátiyjesinde bul porodalar salt minilip, jeñil júk tartiwshi tipine ham sport oyınlarına qatnasiwshilarına kiritilgen. Bul poroda Ózbekistanniñ ayirim wálayat hám rayonlarında orshitilmekte. Házirgi waqıtta Qarabayır porodası – bul talay gana biologiyalıq abzallıqlarğa iye bolğan universal at porodası. Bul atlar miniwge, sport jarislarına, júk artıwğa hám, arbağa qosıw hám awıl xojalıq jumıslarında paydalanıwğa hám jaramlı, armıyanıñ hám qızıqlı milliy at oyınları talaplarına hám juwap beredi.

Qarabayır hátte kem ónim maydanlarında etliligin saqlap qaladı, azıqtı tañlamaydı. Qarabayır porodasına tán atlar júdá shıdamlılıǵı, Orta Aziyanıñ jazıyrama ıssısına, taw aldı hám tawlı rayonlarda qollanıwğa oǵada maslasqanlıǵı menen ajıralıp turadı. Tómen-biyik jerlerde erkin júre beredi, tawlarda oǵan teñ keletuǵın at porodaları kem jol háreketleri abaylı, shaqqan, tosıqlardan jaqsı ótedi.

Júk kóteriw sınaqlarında eń jaqsı mádeniy porodalarǵan qalıspaydı. Ózbekistanda áyyem zamanlardan berli «Kokpar», «Alaman baygi», «Qiz-wdarıw» sıyaqlı milliy at oynıları oǵada massalasqan. Áne usı oynılarda jeńip shıqqan atlardı jergilikli xalıq júdá qádirlegen.

Qarabayırlardıń sırtqı dúzilisine tán qásiyetleri: bası ortasha úlkenlikte, kórkem, kózleri ziyrek, kóbinese tumsıǵı dún, moynı ádewir juwan hám qısqaraq, yagrisi pástek, omırtqa ústi qısqa lekin keń hám geyde egriroq, bel bulshıq etleri jaqsı bórtip turadı, sagrisi kóbinese túklirek boladı. Barlıq bulshıq etleri jaqsı rawajlanǵan. Quyrıǵı qoyıw emes. Kókiregi ádewir keń, biqini adil. Aldıńǵı tárepi arqasına qaraǵanda ádewir kúshli. Aldıńǵı ayaqları ádetde tuwrı, lekin zahira buwını jaqsı sáwlelenbegen. Arqa ayaqlarında geyde sekiriw buwınlarında jaqınlıq hám tiklengenlik seziledi. Jelke astı súyeginiń ózegine salıstırmalı qısqa. Baltırı hám onsha uzın emes. Ayaqları xipcha, pısıq, paydor. Tuyagi bekkem. Tuyaqı ortasha úlkenlikte. [1]

Jaylaw jilqishilig‘i qa‘dimgi usullardan esaplanib, atlardıń jabayi ajdadları ta‘biyiy sharayatda jasag‘an da‘wirlerge mas keledi. Atlardı jil boyi jaylawda asıraw juda arzag‘a tu‘sip, sahra, yarım sahra ham taw jerlerin o‘zlestiriw ushin jaqsı faktor esaplanadı, sebebi bul jaylawlardı basqa tu‘rdegi awıl xojalıq haywanları diyerli o‘zlestire almaydı.

Usinislar: Xalıq xojalıǵında jilqılardıń o‘nimdarlıǵı, jaqsı porodalar jaratiw menen bir qatar, konstitutsiya tipine, interer ham ekstererine baylanisli porodalar jaratiw. Soni na‘zerde tutip, padada, bekkem tipke iye bolg‘an jilqılar o‘nimdarlıǵı ha‘r qiyli qolaysız sharayatqa maslasqanlıǵı, turli keselliklerge shidamlilig‘i menen basqa tiplerden ustin turadı. Xalıq xojalıqlarında qalaberse, at federatsiyalarında jaqsı korsetkishke iye jilqılardı tanlaw tiykarında bagiw, aziq sharayatların jaqsılaw.

Paydalanılǵan adebiyatlar:

1. Д. Холмирзаев. Ўилқичилик – амалий машғулотлар. Тошкент «МЕХНАТ» 1988.
2. 100 китоб тўплами “Ўилқичилик” 80-китоб Нашриёт уйи “Тасвир” Тошкент – 2021 26 б.

UDK: 636.39.034

JERGILIKLI ESHKILERDİŃ ÓNIMDARLIQ HÁM SÚTLI PORODALARINÍN SÚRIWLERIN JARATIW

**Ajiniyazov Baxıtbay Kenesbaevich
Ańsatbaev Paraxat Azatbaevich**

Qaraqalpaqstan awıl xojalıǵı hám agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya. Respublikamızda sharwashiliqti rawajlandırıwdıń házirgi jagdayında, eshki ónimlerin islep shıǵarıwdı kóbeytiwde mámleket kóleminde júdá úlken kólemde ilajlar ámelge asırılıp atır. Qimbatlı genofondqa iye bolǵan eshki

porodaları alıp kelinip atır, nátiyjede joqarı ónimli eshkiler bas sanınıń kóbeyiwine hám eshki ónimleri islep shıǵarıwdı kóbeytiwge erisilmekte.

Gilt sózler. Jún, teri, azıq, ratsion, suriw, azıqlandıraw.

Kirisiw. Búgingi kúnde jáhánde túrli ónim baǵdarıdaǵı 400 eshki porodaları bolıp olardıń bas sanı 750 mln. bastı quraydı. Jámi eshki porodalarınıń 40 % júń, 25% sút, 25% gósh hám qalǵan bólegin universal baǵdardaǵı jergilikli eshki porodaları quraydı. Jáhánde ulıwma islep shıǵılǵan suttıń 3 payızın eshki suti quraydı. Eshki suti islep shıǵarıw boyınsha: Gollandiya, Frantsiya, AQSh hám Kanada; gósh islep shıǵarıw boyınsha: Avstraliya, Efiopiya, Qıtay, Indiya, Pakistan hám Iran, júń islep shıǵarıw boyınsha: Turkiya, AQSh, Qubla Afrika mámleketleri jetekshilik etedi.

Jáhánde jılına 100 mın tonnadan zıyatlaw eshki góshi eksport etiledi. Ulıwma eksport etilgen eshki góshning yarımınan kóplegenin Avstraliya, sherek bólegin Efiopiya eksport etedi. Búgingi kúnde eshkiler jónelisi boyınsha qánigelesken porodalarga bólinedi. Sút baǵdarıdaǵı porodalarga Totenberg, Zaanen, Alpiy, Nubiy, Anglo Nubiy, Shex, Marseana - Grandiona, Aq orıs eshkileri, gósh baǵdarıdaǵı zatlarǵa Bur, Grek, Kiko zatları, túbit baǵdarıdaǵı zatlarǵa Orenburg, Pridon, Sovet, Sıyaq, Kashmir hám basqa zatlar qánigelesken. Áyne waqıtta barlıq jónelistegi eshki porodalarınan sherim hám sherim ónimleri de alınadı. Bul bolsa respublikamızda eshkishilik jónelisin jedel rawajlandırıw, sút, gósh hám júń-túbit, násilli eshkiler bas sanın kóbeytiw hám mámleketimizdiń ıssıqlım sharayatına maslasqan jańa poroda hám poroda toparların jaratıw aktual áhmiyetke iye bolıwın kórsetedi. Respublikamızda sharwashılıqtı rawajlandırıwdıń házirgi basqıshında, eshkishilik ónimlerin islep shıǵarıwdı kóbeytiwde mámleket kóleminde júdá úlken kólemde ilajlar ámelge asırılıp atır.

Qımbatlı genofondga iye bolǵan eshki porodaları alıp kelinip atır, nátiyjede joqarı ónimli eshkiler bas sanınıń asıwına hám eshkishilik ónimleri islep shıǵarıwdı kóbeytiwge erisilmekte. Ózbekstan Respublikasınıń 2017-2021 jıllarda jáne de rawajlandırıwǵa arnalǵan Háreketler strategiyasında awıl xojalıǵın, ásirese sharwashılıqtı rawajlandırıwǵa bólek itibar berilgen hám óndiriske intensiv metodlardı engiziw wazıypaları belgilep berilgen. Buǵan baylanıslı eshkichilikti rawajlandırıw hám eshki ónimlerin islep shıǵarıwdı kóbeytiwde eshkilerdiń biologiyalıq potencialınan paydalanıwǵa baǵdarlanǵan ilimiy izertlewler bolsa júdá zárúrli ilimiy-ámeliy áhmiyetke iye boladı.

Maqseti Qaraqalpaqstan Respublikasınıń Nókis rayonındaǵı “**Kerder-Alligator**” MSHJ da jergilikli tuqım eshkilerdiń adaptacijalanıw hám ónimdarlıq qásiyetleri uyreniledi.-Jergilikli ónimdar eshkilerdi Qaraqalpaqstan sharayatında saqlaw hám azıqlandırdıdıń texnologiyalıq processleri uyreniledi.- Jergilikli nimdar eshkilerdiń sut beriwshenligin asırıw boyınsha selektsiya jumısları alıp barıladı. Qaraqalpaqstanda sudor selektsion gruppası jaratıladı hám jergilikli sharayatqa maslasqan jergilikli tuqım eshkiler bas sanı kóbeytiriledi.

Material hám metodlar. Sút baǵdarıdaǵı eshkiler bas sanın kóbeytiw respublikamızda barlıq múlkshilik formasındaǵı hám xalıq xojalıqlarında sút islep shıǵarıwdı kópeytedi hám xalıq bantlıǵın támiyinlew múmkinshiligi payda boladı.

Qaraqalpaqstan sharayatına maslasıwshılıgın asırıw, túrli múlkshilik formasındaǵı xojalıqlardı násilli ónimler menen támiyinlew hám de eshkishilik ónimlerin kóbeytiwge qaratıladı.

Nátıyjelerdi sınaqtan ótkeriw hám engiziw. Jergilikli tuqım eshkilerdiń seleksion gruppaların jaratıwdıń seleksion-texnologiyalıq usılları fermer hám xalıq xojalıqlarında sutli eshkilerdi órshitiw, bas sanın kóbeytiw múmkinshiligin beredi. Bul bolsa xalıq bantlıgın támiyinlew menen bir qatarda xalıqtı azıq-awqat ónimleri menen támiyinlewde zárúr.

Nátıyjeler. 2025 jılda Qaraqalpaqstan Respublikası Nókis rayonındaǵı **“Kerder- Alligator”** MSHJ da jergilikli tuqım eshkilerdiń adaptaciyalanıw hám ónimdarlıq qásiyetleri uyreniledi. 2025 jılda Jergilikli tuqım eshkilerdi Qaraqalpaqstan sharayatında saqlaw hám azıqlandıriwdıń texnologiyalıq processleri hám jergilikli tuqım eshkilerdiń sutliligın asırıw boyınsha seleksiya jumısları alıp barıladı. 2025 jılda. Jergilikli tuqım eshkilerdiń ónimdarlıgın asırıw boyınsha seleksiya jumısları alıp barıladı. Qaraqalpaqstanda eshki sutshiligi boyınsha seleksion gruppası jaratıladı hám jergilikli sharayatqa maslasqan jergilikli tuqım eshkiler bas sanı kóbeytiriledi.

Sheshiletuǵın ilimiy máseleler. Eshkilerdiń sút ónimdarlıgı onı kóbeytiwdiń seleksion-texnologiyalıq faktorları S. F. Andrusenko (2008), S. M Kúnijev (2004), P. A. Omel'chenko, I. F. Gorlov, (2006), I. F. Gorlov, N. I. Sáykesolova, A. A. Korotkova (2012), G. M. Les', I. V. Xovanova, S. V. Simonenko (2009), D. G. Masterskix, A. S. Shuvarikov (2004), D. G. Pratosova (2001, 2003), S. V. Simonenko (2010), Ye. L. Revyakin, L. T. Mexradze, I. S. Novopashina (2010) hám basqalardıń ilimiy izertlewlerinde izertlew etilgen. Qımbatlı genofondqa iye bolǵan jergilikli tuqım eshkilerdi Respublikamızdıń keskin kontinental ıqlım sharayatına maslastırıw, olardı órshitiw hám bas sanın kóbeytiw, basqa eshkishilik xojalıqların joqarı násilshilik potencialǵa iye bolǵan násilli resurs penen támiyinlew, eshkilerdiń ónimdarlıgın asırıw, eshkishilik ónimlerin islep shıǵarıwdı kóbeytiw bazar ekonomikası sharayatında tarmaqtı rawajlandırıwda zárúrli áhmiyetke iye boladı.

Jergilikli násilli eshkilerdiń biologiyalıq potencialınan paydalanıp olardı ıssı ıqlım sharayatına maslastırıw, sutli eshkiler bas sanın kóbeytiwdi támiyinleytuǵın ilimiy tiykarlangan seleksion-texnologiyalıq usıllarınan paydalanıp, eshkishilik ónimlerin islep shıǵarıwdı kóbeytiw aktual wazıypa esaplanadı. Ózbekstan Respublikasınıń «Násilshilik tuwrısında»gi Nızamı, Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2017 jıl 16 martdaǵı PQ-2841- san «Sharwashılıqta ekonomikalıq islohatlarnı tereńlestiriwge tiyisli qosımsha ilajlar tuwrısında» gi qararı hám de usı iskerlikke tiyisli basqa normativ-xuquqiy hújjetlerde belgilengen wazıypalardı ámelge asırıwda bul ilimiy izertlewler arawlı bir dárejede xızmet etedi.

Qaraqalpaqstan sharayatında jergilikli tuqım eshkilerdi órshitiwdiń ekonomikalıq natıyjeliligın anıqlaw. Izertlewdiń ilimiy jańalıǵı, qoyılǵan wazıypa (lar) di sheshiw hám rejlestirilgen nátıyjelerdi alıw múmkinshiliklerin tiykarlaw, dáslepki márte Qaraqalpaqstannıń keskin kontinental ıqlım sharayatında jergilikli tuqım eshkilerdi órshitiw múmkinshilikleri, joqarı sapalı sút ónimi islep shıǵarıw hám eshkishilik xojalıqların jergilikli násilli eshkiler menen

támiyinlewdiń maqsetke muwapıqlıǵı kórsetiledi hám ekonomikalıq nátiyjeler anıqlanadı.

Izertlew mashqalasınıń házirgi úyreniliw jaǵdayı, jáhán ilimindegi ilimiy-izertlew baǵdarları hám ilimiy básekilesiw Jergilikli tuqım eshkilerdiń biologiyalıq potencialınan paydalanıp Qaraqalpaqstanniń keskin kontinental ıqlım sharayatında sanaat tiykarında órshitiwge maslasqan sutli eshkiler suruwın jaratıw,

Izertlewlerde ulıwma qabıl etilgen fiziologialıq, bioximiyalıq, zootexnikalıq hám statistikalıq analiz usıllarınan paydalaniladi. Maǵlıwmatlardıń anıqlıǵı hám isenimliliǵı spss (Statistical Paskage for Social Science) kompyuter programması tiykarında analiz etiledi.

Izertlewler Qaraqalpaqstan Respublikası Nókis rayonındaǵı “**Kerder-Alligator**” MSHJ da jergilikli tuqım eshkilerde ótkeriledi. Eshkiler jergilikli texnologiyası tiykarında úskenelestirilgen eshki xanalarda birdey azıqlandıırıw hám saqlaw sharayatında kútimlenedi. Jergilikli tuqım eshkilerdiń iykemlesiw jagdaylari hám ónimdarlıq qásiyetlerin úyreniw ushın fermer xojalıǵındaǵı ana eshkilerden konstitutsiya tipi (bekkem, turpayı hám názik) boyınsha ush tájiriye toparları qalıplestirledi.

Juwmaq: Ekonomikalıq nátiyjelilik kórsetkishleri; bir bas ana eshkiden alınatuǵın ónim muǵdarı boyınsha anıqlanadı. Ekonomikalıq nátiyje kórsetkishleri som birliginde ańlatıladi hám bazar bahalarında esaplanadı. Alınǵan barlıq maǵlıwmatlar P. N. Ploxinskiy (1969) boyınsha variatsion statistika usıllarında qayta islew beriledi. Túrli kórsetkishlerdiń ortasha shamaları óz-ara salıstırıladi, isenimlilik koefficiyenti hám itimallıq dárejeleri anıqlanadı.

Paydalangan ádebiyatlar.

1. Зелинский Г.С. «Козоводство» Москва. 1986.
2. Николаев А.И., Ерохин А.И. «Овцеводство» Москва. 1987.
3. Юсупов С.Ю «Овцы и козы Узбекистана». Т. 2002.
4. Yusupov S.Yu.. “Qorakólchilik” amaliy mashgulot. Toshkent 1989

УДК 636/639

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА НАСЛЛИ ВА МАҲАЛЛИЙ ҚЎЙ-ЭЧКИЛАРНИНГ ФАСЦИОЛЁЗ БИЛАН КАСАЛЛАНИШ ТАҲЛИЛИ КЎРСАТКИЧЛАРИ ВА ДАВОЛАШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ

*Джумамуратов Арыслан Баймуратович
Кутбаев Бақберген Умарович
Алланиязов Орынбай Утениязович*

Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиғи ва агротехнологиялар институти.

Аннотация: Мақолада майда шохли молларнинг наслли ва маҳаллий зотларида фасциолёз касаллиғи, мавсумга қараб касалликларнинг пайдо бўлиши ва тарқалишининг олдини олиш бўйича профилактик чоралари ҳақида маълумотлар батафсил баён этилган. Касалланиш, шунингдек, майда

шоҳли молларнинг зарарланишининг олдини олиш бўйича профилактика чоралари самарадорлиги таҳлил қилинди.

Калит сўзлар: *наследор, заанен, фасциолез, гельминтоз, гельминт, антгельминтик, альбет, альбендазол, роленол, клозатрем, левамизол, моллюска, риказол, метсалбен.*

Кириш. Қорақалпоғистон Республикаси худудида апрел-май, июнь ойларида қўй эчкиларнинг гельминтоз паразитар касалликларининг келиб чиқишига сабаб бўлади. Қўй-эчкиларнинг фасциолёз касалликлари республикамизнинг барча туман худудларида кенг тарқалган бўлиб, чорвачиликда маҳсулдор молларни ривожлантиришда катта иқтисодий зарар етказди. Майда шоҳли молларнинг фасциолёз касалликларидан келадиган иқтисодий зарар касалланган молларнинг ўлими, мажбурий сўйилиши, ҳамда касалланиб соғайган моллар узоқ вақт давомида касаллик қўзғатувчи паразитларни ташувчилик хусусиятини ўзида сақлаб қолиши, маҳсулдорлиги пасайиб кетиши, ишлаб чиқаришда яроқсиз бўлиб қолиши ва ветеринария-санитария тадбирларига кетган харажатлардан иборат бўлади.

Фасциолёз кишлоқ хўжалик ҳайвонлари орасида Қорақалпоғистонда кенг тарқалган ва касалланиш даражаси юқори, жуда ҳавфли трематодоз касалликлари гуруҳига киради. Республикамизнинг шимолий зоналарида асосан Бўзатов, Мўйноқ, Қўнғирот, Кегейли, Тахтақўпир, Чимбой туманларида фасциолёзнинг ўткир, сурункали формаларида учраб туради. Фасциолёз барча турдаги қўйчилик, эчкичилик, хўжаликларига катта иқтисодий зарар етказувчи гельминтоздир. Ундан айниқса қорақўлчилик қўйчилик хўжаликлари катта талофатга учрайди. 1990 йилларда Қорақалпоғистон худудида фасциолёздан қўйларнинг оммавий равишда нобуд бўлиб кетганлиги кўзатишга учради. Ушбу муаммоларни илмий асосида бартараб этиш мақсатида фасциолёз касаллигини тарқалишини аниқлаш, эмлаш ва олдини олиш чора тадбирларини урганиш учун тадқиқотлар олиб борилди.

Адабиётлар таҳлили. Фасциолёзлар-ветеринария ва медицина паразитологиясидаги энг долзарб муаммоларидан ҳисобланади. Касаллик юқишидан унинг ташхиси аниқлангунича яъни 5-20 йилгача касалликнинг латент яширин даври кузатилади (фасциолёз тухумининг 75 йилгача яширин даври маълумотларда келтирилган). Қўйларни текширганимизда 30 та қўйлардан 22 тасида (73%) фасциолёз билан касалланганлиги аниқланди. Қўйларда фасциолёзни учраши йил мавсумига қараб фарқ қилди. Касаллик билан зарарланиш баҳорда 33%. Ёз ва кузда қўйларнинг зарарланиши 24% ва 27% ташкил қилган бўлса. Қишда зарарланиш анча юқори 40,% эканлиги кузатишга учради. Қўйларнинг ўртача зарарланиш даражаси 27,5-35% ни ташкил этди. Қўйлар ички органларида фасциолёз билан зарарланиши 73 % фақат жигар зарарланган. Паразитар касалликларнинг кенг тарқалганлиги туфайли қушхона ва сўйиш корхоналарида гўштга сўйилган молларнинг кўплаб ички органлари истъеомолга яроқсиз деб топилади. Сўйиш

корхоналарида рўйхатга олинган барча касалликларнинг тахминан 68,6 % гельминтоз касалликларига тўғри келади.

Натижалар. Тадқиқотлар Қорақалпоғистон Республикасининг 2023 йилнинг август-сентябр ойларида Бўзатов, Кегейли, Тахтақўпир, Чимбой туманларининг фасциолёзга носоғлом худудларида аҳоли ва эчкичилик фермер хўжаликлари қўй-эчкиларидан намуналар олиниб текширилди. Ушбу туман худудларида кўллар, кўлчалар, яйловлар, ҳовузлар, ариқлар ва ариқчалар бошқа худудларга нисбатан анча кўплиги инобатга олинди, худудларда яйловлар кўплиги сабабли, қўй-эчкиларнинг ҳаммаси деярли яйловларда боқилади.

Тадқиқот натижалари. Майда шоҳли моллар эчки гуруҳга ажратилди. Гуруҳлардаги ҳайвонларга таҳлил ишлари олиб борилди. Ушбу моллардан лаборатор текшириш учун намуналар олинди. Олинган намуналар лабораторияда гельминтокапрологик услубда текширилди.

1-гуруҳдаги - катта ёшдаги 30 бош маҳаллий қўй-эчкиларнинг тезак намуналари кетма-кет ювиш усули билан текширилиб, уларнинг 73 фоизида фасциолалар топилганлиги, улардан 22 бош қўй-эчкиларда фасциолёз касаллиги аниқланди. Кичик ёшдаги 30 бош қўй-эчкиларнинг тезак намуналари кетма-кет ювиш усули билан текширилиб, улардан 36 фоизида фасциолалар топилганлиги, яъни 11 бош қўй-эчкиларда фасциолёз касаллиги аниқланди.

2-гуруҳдаги - катта ёшдаги 20 бош наслдор қўй-эчкиларнинг тезак намуналари олиниб, кетма кет ювиш усули текширилди ва уларнинг 40 фоизида фасциолалар топилганлиги, яъни 8 бош қўй-эчкиларда фасциолёз касаллиги аниқланди. Кичик ёшдаги 20 бош қўй-эчкиларнинг тезак намуналари олиниб, кетма-кет ювиш усули билан текширилиб, уларнинг 25 фоизида фасциолалар топилганлиги, улардан 5 бош майда молларда фасциолёз касаллиги аниқланди.

Таҳлил натижаларига кўра, ҳайвонларда ўтказилган гелминто-овоскопик текшириш натижалари шуни кўрсатдики, республикага четдан келтирилган наслдор қўй-эчкиларда ва маҳаллий майда шоҳли молларда ҳам ёшларидан қатъий назар касалланиш даражаси юқори бўлганлиги кўзатилди.

Изланишлар шуни кўрсатдики, яйловларда, молхоналарда боқилаётган қўй-эчкиларнинг насли ва маҳаллийлигидан қатъий назар бари-бир касалланади.

1- жадвал

Қорақалпоғистон Республикаси худудида наслдор ва маҳаллий қўй-эчкиларнинг фасциолёз билан касалланиши ҳамда даволаш чоратадбирлари бўйича тадқиқот натижалари

№	Моллар гуруҳи	Текширилган мол бош	Касаллик аниқлан	Касалланиш даражаси	Аниқланган касаллик	Қўлланилган препаратлар	Даволаш усуллари

		сони	гани	(%)			
1-Гуруҳ Маҳаллий қўй-эчкилар (маҳаллий моллар).							
1	Ёши катта моллар	30	22	73	Сурун кали фасциоле з	Клозатрем инъекция	Ҳар 10 кг тирик вазнига 1 мл ҳисобиги, тери остига юбарилади. Бир марта, натижа яхши
2	Ёши кичик моллар	30	11	36	фасциоле з	Клозатрем инъекция	Ҳар 10 кг тирик вазнига 1 мл ҳисобиги, тери остига юбарилади. Бир марта, натижа яхши
2-Гуруҳ Наслдор қўй-эчкилар (Заанен).							
1	Ёши катта моллар	20	8	40	фасциоле з	Клозатрем инъекция	Ҳар 10 кг тирик вазнига 1 мл ҳисобиги, тери остига юбарилади. Бир марта, натижа яхши
2	Ёши кичик моллар	20	5	25	фасциоле з	Клозатрем инъекция	Ҳар 10 кг тирик вазнига 1 мл ҳисобиги, тери остига юбарилади. Бир марта, натижа яхши

Мухокама. Ушбу олиб борилган тадқиқот натижалари Қорақалпоғистон Республикасининг барча ҳудудлари гелминтоз касалликларига насоғлом ҳудудлар ҳисобланади. Гелминтозларнинг ривожланиши, мавсумлилиги, касаллик қўзғатувчисининг биологик цикли, замановий дори воситаларини қўлланиши, таъсир қилиш даражалари ҳисобга олиниб ўрганилди. Бунда четдан наслдор молларнинг олиб келиниб, иқлим шароитга адаптация бўлиши, гелминтоз касалликларга зарарланиши, бизнинг маҳаллий молларга нисбатан таққослаб ҳудудлар кесимида ўрганиш ишлари олиб борилди. Фасциолез қарши курашишнинг энг асосий тадбири-бу дегельминтизация ишлари ҳисобланади.

Носоғлом ҳудудларда йил давомида 2 маротаба баҳор ва кўз ойларида дегельминтизация қилиниши лозим. Биринчи дегельминтизация - март-апрель ойларида қуйидагилардан бири (альбен, альбет 10% ли. альбендазол, клозантел, роленол) қўлланилади. Екинши дегельминтизация октябрь-ноябрь ойларида ўтказилиши лозим. Кўзги ва қишки дегельминтизация ишларига роленол, риказол, клозатрем, фазинекс билан ўтказилиши лозим.

Фасциолёз билан касалланган ҳайвонларни замановий қуйидаги антигельминтиклар билан олдини олади ва эмланади: Инъекцияли антигельминтиклар, бошқа таблетка ва суспензия дори воситаларига нисбатан таъсир этиши эффеќти анча юқори ҳисобланади. Клозатрем-10 кг тирик вазнига 1 мл ҳисобига мускул орасига ва тери остига бир маротаба, майда шоҳли молларга 10 мл дан кўп юборилмаслиги керак. Ўткир формасига: Роленол - (синоними прозонтекс) қўйларга 1 мл/10 кг тери остига ёки мускул орасига (бир неча жойга) юборилади.

Хулоса.

1. Қорақолпоғистон Республикаси шароитида яйловларда, молхоналарда боқилаётган қўй-эчкиларнинг наслигидан қаътий назар касалланиш даражаси юқори, яъни инвазия интенсивлиги юқори даражада бўлганлигини кўрсатти.

2. Республикага чет мамлакатлардан олиб келтирилган насли қўй-эчкиларда фасциолёз касаллигига чалиниши ўрта даражада бўлганлиги тадқиќотлар натижалари тасдиќлади.

3. Қорақолпоғистон Республикаси шароитида маҳаллий ва насли майда шоҳли молларда учрайдиган фасциолёз касалликларини эмлаш ва олдини олишда энг самарали янги замонавий антигельминтиклардан фойдаланиш яхши натижа беради.

4. Республикага чет мамлакатлардан олиб келтирилган насли қўй-эчкилар гелминтоз касалликларга қарши дегельминтизация олиб борилиши шарт. Давомли профилактик даволаш ишларини йилига эки маротаба баҳор ва кўз ойларида мунтазам олиб борилиши тавсия этилади.

Адабиётлар рўйхати.

1. Абуладзе К.И., Демидов Н., Непоклонов А.А., Никольский С.Н., Павлова Н.В., Степанов А.В. Паразитология и инвазионные болезни сельскохозяйственных животных, // М: ВО "Агропромиздат", 1990 г

2. Алиќеев Б., Алиќулов А., Ибадуллаев Г., Отабоев Х., Турли регионларда қўйлар орасида гелминтларнинг тарқалиши. // СамҚХИ илмий тўплами, Самарқанд, 2004 йил, 46-47- бетлар.

3. М.Ш.Аќбаева. Паразитология и инвазионные болезни животных. Учебник Москва Колос 2009 год.

4. Эргашев У. Х., Абдурахмонов Е. А. Чорва молларининг гелминтозлари. Тошкент 1992 йил.

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА ЭХИНОКОККОЗ ВА ФАСЦИОЛЁЗ КАСАЛЛИКЛАРИНИНГ ҚОРАМОЛЛАРНИ СЎЙИШДАН ОЛИНАДИГАН МАҲСУЛОТЛАРИГА СОЛБИЙ ТАЪСИРИ

Ажиниязов Бахытбай Кенесбаевич

Қутбаев Бақберген Умарович

Алланиязов Орынбай Утениязович

Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти

Аннотация. Мақолада Қорақалпоғистон Республикасида сўнгги йилларда йирик ва майда шохли қорамолларнинг эхинококкоз ва фасциолёзининг пайдо бўлиши тўғрисидаги маълумотлар, шунингдек, чет элда гелминтоз билан боғлиқ баъзи маълумотлар, ички органларнинг шикастланиши, иқтисодий зарар, шунингдек, сўйиш маҳсулотларини озиқ-овқатга фойдаланиш учун инвазияга боғлиқ яроқсизлигига бўлган сабаблар тавсифланган. Баъзи аъзолар ва тўқималарни гелминтологик ёриб кўриш усули билан йирик шохли қорамолларнинг ўпкаси ва жигарининг фасциолалар ва эхинококк пуфакчалари, яъни ларвал эхинококклари билан зарарланиш даражаси аниқланди. Йирик шохли қорамолларнинг тезак намуналарини кетма-кет ювиш ва Фюллеборн усуллари бўйича ўрганиш натижалари, тухумнинг миқдори, ўлчами ва ранги бўйича фасциола қайси турга тааллуқли эканлигини аниқлаш тавсифланган. Эхинококкоз ва фасциолёз инвазияларининг даволаш-профилактика чора-тадбирлари бўйича яқуний тавсиялар чиқарилди.

Таяныш сөзлер: Гелминт, өкпе, баўыр, фасциола, эхинококк торсықлари, личинка.

Калит сўзлар. Гельминт, ўпка, жигар, фасциола, эхинококк пуфаклари, личинка.

Чорвачиликни ривожлантиришда, ижобий ишларни амалга оширишда соҳа ривожланишига тўсқинлик қилувчи омиллар мавжуд. Яъни қишлоқ хўжалик ҳайвонлари паразитар касалликлари. Паразитар касалликлардан эхинококкоз ва фасциолёз гелминтозлари муҳим ўринда туради.

Қорақалпоғистонда қорамоллар орасида эхинококкоз ва фасциолёз касалликлари тарқалишини ўрганиш мақсадида тадқиқотлар олиб борилди. Аввало сўнгги 5 йил яъни 2019-2023 йиллардаги маълумотларда ўз аксини топганлиги, яъни уларнинг тарқалиши, зарарланган органларнинг фойдаланишга яроқсиз деб топилганлиги ҳақидаги ҳодисалар ўрганилди. Ушбу маълумотларни аниқлаш мақсадида республиканинг 3 та туманида 22 бош турли ёшдаги қорамоллар жигар ва ўпкаларини эхинококк пуфаклари ва фасциолёз кўзгатувчилари билан зарарланганлиги аниқланди. Топилган эхинококк ва фасциолаларнинг тури, сони, ҳажми ва жойлашиши аниқланди.

Сўйиш корхоналарида касал моллар айрим орган ва тўқималарини

тўлик гельминтологик ёриб кўриш усулида ва лаборатория шароитида ҳайвонлардан олинган тезак намуналари кетма-кет ювиш ва фюллеборн усулида текширилди. Туманларида фасциолёзнинг тарқалишини аниқлаш мақсадида копрологик текширишлар ўтказилди. Бунинг учун 3 та туман ва Нукус шаҳрида 69 бош қорамол тезак намуналари кетма-кет ювиш, фюллеборн усулида текширилди. Ҳар бир текширилган намуналарда фасциолалар тухумлари ҳажми, шакли, рангига кўра *Fasciola gigantika* турига оид эканлиги аниқланди. Айрим орган ва тўқималарни тўлиқ гельминтологик ёриб кўриш усули билан сўйилган молларнинг асосан ўпка ва жигарларида ёнғоқ катталигидан диаметри 7,5-8,0 см. эхинокок пуфақлари аниқланди.

Биринчи жадвалда республиканинг барча шаҳар ва туманларида қушхоналарда гўшт учун сўйилган қорамоллар орасида фасциолёз оқибатида истеъмолга яроқсиз жигар миқдори келтирилган. Рақамлар бўйича республикада ҳар йил 6365 бошдан 24548 бошгача жами 5 йилда 90653 бош қорамол гўштга сўйилган, ўртача 18130 бошга тенг. Уларда ҳар йил 40 бошдан 1126 бошгача бўлган ҳайвонлар жигарида фасциолалар билан зарарланиш ҳар йил 0,45-5,25 % сўйилган қорамолларда фасциолёзга чалиниши кузатилган.

1-жадвал

2019-2023 йиллар даврида Қорақалпоғистонда қорамол фасциолёзининг тарқалишидан истеъмолга яроқсиз маҳсулотлар ҳақида маълумот.

№	Текширишлар ўтказилган давр йили	Текширилган қорамоллар бош сони	Фасциолёз билан касалланганлари		Истеъмолга яроқсиз, асосан жигар ҳисобидан (тонна)
			бош сони	Фоизда	
1	2019 йил	19594	89	0,45	0,306
2	2020 йил	6365	40	0,63	0,112
3	2021 йил	21428	1126	5,25	0,450
4	2022 йил	18718	113	0,60	0,350
5	2023 йил	24548	74	0,30	0,872
	Жами	90653	1442	7,24	2,090

Молларнинг юқори даражада фасциолёзга чалиниши 2021-йил 5,25 % ташқил қилган. Қолган йилларда фасциолёзга чалиниш 2019-йил 0,45. 2020-йил 0,63. 2022-йил 0,6. 2023-йил 0,3 % атрофида аниқланган.

Сўнги 5 йилда барча сўйилган қорамолларнинг ўртача 1,6 фоизида фасциолалар билан зарарланиши кузатилган ва фасциолёз сабабли 2 тонна 90 кг жигар истеъмолга яроқсиз деб топилган. Агар ҳар бир кг жигарини бозор нарҳида 50000 сўм деб ҳисобланса, Қорақалпоғистонда қорамоллар фасциолёзидан фақат жигар ҳисобидан истеъмолга яроқсиз деб топилган маҳсулот 104 млн. 500 минг сўм иқтисодий зарар кўрилган. Фасциолёз энг кам миқдорда тарқалган 2020 йил энг кам миқдорда жигар истеъмолга яроқсиз деб топилган. Шу йили ҳар бир фасциолёзга чалинган қорамолнинг ўртача 300 гр жигари истеъмолга яроқсиз деб топилган бўлса, 2023 йил бу рақам 3 баробарга ошган ва ўртача 872 граммни ташқил қилган. 2021 йил

1126 бош фасциолёзга чалинган қорамолларнинг ҳар биридан ўртача 450 граммдан жигар истеъмолга яроқсиз деб топилган. Қорақалпоғистон Республикаси шароитида қорамоллар орасида эхинококкознинг тарқалиши ўрганилганда 2-жадвалда Қорақалпоғистон Республикасида сўнги 2019-2023 йилларда қорамоллар орасида эхинококкознинг тарқалиши тўғрисидаги маълумот келтирилган. Республикада қушхоналарда гўштга сўйилган қорамоллар сони ҳар йил 6765 бошдан 34505 бошни ташкил қилган. Уларни жигар ва ўпкаларини ветеринария санитария экспертизасидан ўтказилганда қорамолларнинг 0,42 фоиздан 0,52 фоизгача эхинококкозга чалиниши, сўнги 5 йил давомида ўртача 0,78 фоизни ташкил қилиши кузатилган. Эхинококкознинг энг авжга чиққан йили 2020-йил бўлиб, унда 0,55 фоиз сўйилган ҳайвонларда эхинококкоз аниқланган. Эхинококкоз оқибатида, ҳар йили 300 кг. дан 800 кг. гача қорамолларнинг жигар ва ўпкалари истеъмолга яроқсиз деб топилган. Агарда қорамолларнинг жигар ва ўпкалари бозор нархида ўртача 50 минг сўмни ташкил қилса, республикада эхинококкозга чалинган қорамолларнинг жигар ва ўпкалари ҳисобига келтириладиган иқтисодий зарар 40 млн. сўмни ташкил қилади.

2-жадвал

Қорақалпоғистонда эхинококкоз касаллигининг аниқланиши.

№	Текширилган йиллар	Текширилган қорамоллар бош сони жами	шундан эхинококкоз	
			Сонда	Фоизда
1	2019 йил	6765	35	0,52
2	2020 йил	7812	43	0,55
3	2021 йил	12650	61	0,48
4	2022 йил	30621	130	0,42
5	2023 йил	34505	453	1,31
	Жами	92353	722	0,78

Яъна бир муҳим томони, эхинококкоз тиббиёт ва ветеринария соҳасига оид бўлиб, ижтимоий жиҳатдан жаҳон, БМТнинг ва Бутун жаҳон соғлиқни сақлаш кўмитасининг биринчи навбатда йўқотилишни зарур бўлган антропозооноз касалликлари рўйхатига киритилган. Республиканинг барча шаҳар ва туманлар қушхоналарида гўшт учун сўйилган йирик ва майда шохли моллар орасида фасциолёз касаллиги оқибатида кўплаб жигарлари истеъмолга яроқсиз ҳолга келган.

Хулоса сифатида: Агар вақтида олди олиниб даволанмаса фасциолёз оқибатида кўплаб моллар мажбурий сўйилади ёки нобуд бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. А.О.Орипов “Гельминтозларга қарши курашишнинг замонавий стратегияси, услуб ва воситалари” ж. Ветеринария медицинаси Тошкент: 2021 й. №11. Б. 17-19.

2. Абуладзе К.И. Демидов Н и др.”Паразитология и инвазионные болезни сельскохозяйственных животных”, М:ВО “Агропромиздат”, 1990. 464 с.

QO'CHQORLARNI SAQLASH VA OZIQLANTIRISHDAGI GIGIYENIK TALABLARNI O'RGANISH

T.Q.Naurizov

B.Q.Allebekov

S.J.Shernazarov

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada qorako'lchilik xo'jaliklarida yil davomida qo'yxonalarda saqlash usuli yaylovi bo'lmagan, mavjud erning ko'p qismi haydaladigan xo'jaliklarda qo'llaniladi. Qo'chqorlar to'yimli oziqalar bilan qishda to'liq qo'yxonalarda ta'minlanib, yozda esa yaylovga chiqariladi. Yaylov-qo'yxona usulida saqlash yozgi va qishqi yaylovi bo'lgan hamma xo'jaliklarda foydalaniladi. Bu xo'jaliklarda sovliqlarning qo'zilash davrida hamda qish va erta bahorda qo'ylarni oziqlantirish uchun etarli darajada ehtiyot oziqa bo'lishi kerakligi haqida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. saqlash, quchqor, gigiena, o'sish, tabiiy, yaylov, ozuqa.

Kirish. Respublikamizda qorako'lchilikni rivojlantirishda zoogigiyenik talablarga javob beradigan sharoitda saqlash, to'liq qiymatli oziqlantirish natijasida qo'zilarning o'sish va rivojlanishini yaxshilash natijasida qorako'l qo'chqorlarining tabiiy chidamlilik qobiliyatini oshirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Qorako'lchilikni rivojlantirning asosiy yo'li yuqori maxsuldorlik va tabiiy chidamlilik qobiliyatiga ega bo'lgan sovliqlar bilan to'ldirish hisoblanadi.

Hayvonlar organizmining tabiiy himoyalani qobiliyati murakkab himoya vositalarining kompleks yig'indisi bilan ta'minlanadi. Hozirgi paytda keng qo'llaniladigan usullar – bu hayvon organizmining himoya qobiliyatida hujayra va gumoral faktorlarni aniqlash bo'lib hisoblanadi.

Himoyaning hujayra faktorlarini aniqlashda qon tarkibidagi leykotsitlarning fagotsitar holatini ya'ni umumiy fagotsitar sig'imi, fagotsitar soni va indeksi hamda tugatilgan fagotsitozni aniqlash zarurdir.

Tabiiy himoyalani qobiliyatining gumoral faktorlaridan - qon zardobining bakteritsid va lizotsim aktivligi, komplementar aktivligi, getero gemaglyutinlar titri, qonda normal aglyutinlarning to'planishi hamda qon zardobida properdin miqdorini tabiiy himoyalani qobiliyatiga ta'sirini o'rganish asosiy muammolardan hisoblanadi.

Asosiy qism. Qo'chqorlar gigiyenasida tasl olish uchun qo'zilarni embrion davridan boshlab sovliqlarga yaxshi qarash, oziqlantirish, yayratish va parvarish qilishning ahamiyati katta. Qo'zilar onasidan 4 oyligida ajratilib, voyaga etguncha (1,5-2 yosh) yaxshi boqiladi va kelgusida nasl olishga ishlatiladi. Qochirish mavsumiga 1-2 oy qolganda qo'chqorlar kecha-kunduz yaxshi boqilib urug' olishga tayyorlanadi. Ulardan foydalanishda birinchi yillari zo'riqtirmaslik, charchatmaslik zarur. Nasllik qo'chqorlarni 1,5-2 yoshga etgandan keyin ishlatish kerak.

Agar vaqti o'tib ketsa jinsiy aktivligi pasayadi, impotensiyaga uchraydi. Ortiqcha semirish yoki oriqlik urug' sifatini, jinsiy aktivlikni pasaytirib, ko'pgina sovliqlarni qisir qolishiga sabab bo'ladi. Qo'chqorlarga beriladigan ozuqa ratsionida protein, aminakislotalar, mineral moddalar, mikroelementlar va vitaminlar talab darajasida bo'lishi lozim. Qochirish davrida doimo yayratilib, sug'orilib, sifatli, to'yimli ozuqalarga qo'shib sabzi tuxum qo'shib beriladi. Qo'chqorlar doimo mutaxassislar nazoratida bo'ladi.

Kutilgan natija. Hozirgi vaqtda chorvachilikni rivojlantirishning samaradorligi 60 foizi oziqlantirish sharoiti, 20 foizi hayvonlarning yoshi va zotiga, hamda hayvonlarni saqlash va mikroiklim sharoitiga esa 20 foiz bog'liq hisoblanadi.

Hayvonlarga yaxshi oziqlantirish sharoitini yaratish bilan yil davomida mikroiklim sharoiti talabga javob bermasa ulardan yuqori mahsulot olishga erishib bo'lmaydi. Ikkinchi tomondan mo'tadil mikroiklim sharoitini yaratish, oziqlantirish darajasi va hayvonlarning zoti yuqori mahsulot olish uchun asos bo'la oladi. Mikroiklim ko'rsatgichlari chorvachilik binolari va asbob jihozlarning xizmat qilish muddatiga kuchli ta'sir qiladi.

Chorvachilik binolarida mikroiklimni hosil bo'lishiga bir qancha faktorlar ta'sir ko'rsatadi. Bu faktorlar hayvonlarning turi, yoshi, joylashish zichligi, havo harorati, uning namligi, havo harakatining tezligi va yunalishi, molxonani go'ngdan tozalash usullari, oziqa tarqatish hamda oziqlantirish tipiga bog'liq bo'ladi.

Zoogigiyenik me'yor qoidalari buyicha qo'yxonalarda mikroiklim ko'rsatgichlari quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiqdir (1-jadval).

1 - jadval

Qo'yxonalarda mikroiklim ko'rsatgichlari

Ko'rsatgichlar	Qo'chqorlar	Issiq-xona	Bo'rdoqi qo'chqorlar
Harorat °S	5 (4-6)	15 (12-18)	18 (16-20)
Nisbiy namlik, %	75 (50-85)	70 (50-85)	70 (50-85)
Bir boshga havo almashinish miqdori, m ³ /s	25	30	20
Havoning harakat tezligi, m/sek.	0,2	0,3	0,2
1 m ³ havodagi zararli gazlar			
Karbonat angidrid, %	0,3	0,25	0,2
Ammiak, mg / m ³	20.0	20.0	15.0
Vodorod sulfid, mg/m ³	10,0	10.0	10,0
Mikroblar soni, ming/ m ³	70	50	50

Hayvonlar organizmiga mikroiklim ta'siri kompleks holatda kuzatilib, asosiy zoogigiyenik ta'siri harorat, namlik, harakat tezligi, zaharli gazlarning konsentratsiyasi, yorug'lik va ishlab chiqarish shovqinlari orqali amalga oshiriladi.

Havo haroratining ta'siri organizm va tashqi muhit orasidagi issiqlik almashinuvida ma'lum bo'ladi.

Turli hayvonlar guruhi uchun issiqlikka e'tiborsizlik hududi mavjud bo'lib, bunda organizmdagi moddalar almashinuvi doimiy holatda saqlanib qoladi. Qo'chqorlar uchun bu hudud ularning yoshi, zoti, iqlimlashtirish holati, oziqlantirish intensivligi va boshqa holatlarga bog'liq bo'lib $+4^{\circ} - 6^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etadi.

Harorat juda yuqori bo'lganda organizmda issiqlik boshqarilish mexanizmi buzilib, ortiqcha issiqlik to'planishi natijasida organizmning qizib ketishi kuzatiladi. Bunday jarayonga gipertermiya deyiladi. Hayvonlarning qizib ketishiga bundan tashqari namlikning yuqori bo'lishi va molxonalarda havo harakatining etarli bo'lmasligi sababchi bo'ladi. Organizmning qizib ketishi asosan hayvonlarning tez harakat qilishi. Me'yordan ortiq zich saqlash, semipib ketish hamda nafas olish a'zolarining kasalliklarida chuqurroq o'tishi amaliyotda isbotlangan.

Qorako'lchilik xo'jaliklari naslli va tovar xo'jaliklariga, yo'nalishi va mahsulotiga qarab esa mayin junli va yarim mayin junli, po'stinbop, go'sht- jun- sut, qorako'l va go'sht-yog' etkazuvchi xo'jaliklariga bo'linadi. Qo'tonlarda qo'chqorlar yiliga 1 - 2 marta almashtiriladigan qalin poxol to'shamada saqlanadi. Maydonlardagi yig'ilib qolgan go'nglarni chiqarish uchun buldozerlardan foydalaniladi.

Xulosa: Har xil turdagi qo'yxonalarga qo'chqorlarni joylashtirishda har bir bosh qo'chqorga yopiq qo'yxonalarda guruh hoida saqlanadigan naslli qo'chqorlarga $1,8 - 2 \text{ m}^2$, yakka saqlanadiganlarga $3 - 4 \text{ m}^2$, bir yoshgacha bo'lgan qo'zilarga $0,7 - 0,8 \text{ m}^2$ joy ajratilishi zarur [6]. Ochiq bostirmalarda har bir bosh qo'chqor uchun yopiq binolarga nisbatan 2,5 barovar joy ajratiladi. U erdan qo'chqorlar xuddi oziqlantirish maydonlaridek foydalanadi. Chunki havo yaxshi paytlarida qo'chqorlar kunning ko'p vaqtida asosiy oziqalarni o'sha erda oladi va sug'oriladi. Ochiq bostirmalarning eri mustahkam betonlangan, asfaltlangan, shag'al yoki zichlangan tuproq bilan qoplangan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Isamuxamedov S., Kuchchiev O., Xojaev U., Yusupov B., Tajixanova S., Karimkulova R. Donador oziqalarni tayyorlash texnologiyasi. J.Zooveterinariya, 2013, №6. 44 b.

2. Qo'ldoshev O.O'. Ferma va fermer xo'jaliklarida veterinariya - sanitariya va zoogigiyenik shart - sharoitlarini yaratish. J. Zooveterinariya 2010 yil № 1 25-26 s.

3. Maxmudov M.M., Haydarov Q. YAylovshunoslik. Toshkent, 2010, 78, 148, 176 b.

4. Mamatiminov SH.K., 3. Tulaganova, K. Nazirov, YO. Karimova. Qishloq xo'jaligi hayvonlarining oziqlanishdan zararlanishi, mikotoksikozlar J.Zooveterinariya, 2013, №12. 32 b.

5. Nasimov e., CHalabaev A.J., Inoyatov A. Qora rangli qorako'l qo'zilarida ranginingpigmentatsiyasini boshqa xususiyatlar bilan aloqadorligi. Sam

QXI professor-o'qituvchilar ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. II – qism. Samarqand, 2015 B. 102-105.

6. Suvanqulov Y.A. Qishloq xo'jaligi hayvonlari gigienasi. Darslik Toshkent, 1994 y.

УДК: 636.057.087.

QORAQALPOG`ISTON SHAROYITIDA IKKI URKACHLI TUYALARNING FIZIOLOGIK KO`RSATKICHLARI

Esemuratov Perdebay Tursinovich.

Ospanov Asemxan Kadirxanovich.

Karimov Rashid Paraxatovich.

Zooinjeneriya va veterinariya kafedrasi assistentlari

Annotatsiya. Mazkur maqolada ikki urkachli tuyalarning yil mavsumi bo'yicha erkak va urg'ochi hayvonlar orasida tana harorati, yurak urushi va nafas olish chastotasi ko'rsatkichlari va tuyalarning yoshi dinamikasida qon tarkibi ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Kalt so'zlar. Tana harorati. yurak urishi. nafas olish tezligi. yil fasllari. qon tarkibini o'rganishi. yoshi dinamikasi. leykotsitlar va gemoglobin. eritrotsitlar miqdori. meyor darajasi.

Kirish. Ikki o'rkachli tuyalarning anotomik va fiziologik xususiyatlari suvsizlikka chidamliligini, qurg'oq iqlim sharoitlariga moslashuvchanligini va dag'al ozuqalar bilan oziqlanishga imkon yaratadi. Ikki o'rkachli tuyalarning tashqi ko'rinishi va tuzilishi bo'yicha bir o'rkachli tualardan keskin farqli ravishda ajralib turadi. Ikki o'rkachli tuyalarining gavdasi tig'iz, dumaloq joylashgan, oyoqlari uzun va bo'yni uzun va pastga egilgan bo'lib, U-shakldagi ko'rinishga ega. Shuningdek, yaxshi semizlikdagi tualarda o'rkach tik turishi bilan tavsiflanadi. Semizlik darajasi o'rtadan past hayvonlarda esa o'rkach pastga egilgan ko'rinishda bo'ladi. Ushbu holatga qarab tualar semizlik darajasi to'g'risida fikr yuritishga imkon beradi. Ikki o'rkachli tualari juda yirik hayvonlar qatoriga kiradi. Uning yag'rin balandligi ayrim rekordlarida 2 metrdan oshadi. O'rkach balandligi esa, 2 metr 70 sm ga yetishi kuzatilgan. Katta yoshdagi ikki o'rkachli erkak tualarning tirik vazni o'rtacha 500 kg atrofida bo'lib, ayrimlari 600-650 kg ga etadi. Bu holat ularning saqlash va urchitish hududlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shimoliy Kavkaz sharoitida urchitiluvchi ikki o'rkachli tualar yarim cho'l va cho'l hududlarida urchitiladigan tualarga nisbatan gavdasining yirikligi va mahsuldorligi yuqoriligi bilan farqlanadi. Ushbu hududlarda urchitadigan ikki o'rkachli erkak tualarda tirik vazni o'rtacha 600-800 kg ni tashkil qilsa, urg'ochilarida esa 350-450 kg ni tashkil qiladi. Ularning balog'at yoshi 7 yilgacha davom etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ayirim olimlarning takidlashicha tualarning tashqi muhitga moslashuvida tuya terisi qalinligi zarur ahamiyatga ega,

va uning pigmentatsiyasi tengsizligi boshqa qishloq xo'jalik hayvonlariga nisbatan kuchliroq ekanligini ta'kidlaydi.

Ko'pchilik olimlar tuya junining son va sifat ko'rsatkichlari ularning yoshiga, jinsiga, semizlik darajasiga, hayvonlarning fiziologik holatiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

Bir qator olimlarning tajriybalarida, bir o'rkachli (dromedar) tuyalar biologik xususiyatlari bo'yicha ikki o'rkachli (bactriyan) tualardan farqlanishi kuzatilgan. Asosiy farqlanishlar bir o'rkachli tualarning bo'g'ozlik davri ikki o'rkachlilarnikiga nisbatan 25-30 kun qisqa, bir o'rkachli tualarning jun qoplami biroz dag'al ya'ni ularda qiltiq jun tolalari miqdorining ko'pligi bilan ajralib turadi.

Xulosa. Ikki urkachli tualarning biologik xususiyatlari, o'sib rivojlanishini ta'minlovchi asosiy ko'rsatkichlar bo'lib hisoblanadi. Tualarning me'yor darajasida o'sib rivojlanishi oziqlanish darajasiga, saqlash usullariga, yoshi va konstitutsiya tiplariga bevosita bog'liqdir. Tualarning tirik vazni, ekster'er, tana tuzilish indeklari va qon tarkibi ko'rsatkichlarini o'rganish ularning biologik imkoniyatlarini to'liq ochib beradi va bu imkoniyatlarni tuyalar mahsuldorligini oshirishga yo'naltirilgan seleksiya ishlarida foydalanish mumkin Tualarning fiziologik ko'rsatkichlari me'yor chegarasida bo'lib, jinslar orasida farqlanishlar ($0,3^{\circ}\text{C}$) kuzatilmadi. Yangi tug'ilgan erkak bo'taloqlarda yurak urishi, minutiga 45,3 marta bo'lgan bo'lsa, 42 oylik davriga kelib bu ko'rsatkich 39,9 martani tashkil qildi. Tuyalar yoshi ulg'ayishi bilan yurak urishi va nafas olish tezligi pasayishi kuzatildi. Qonining morfologik tarkibi bo'yicha erkak tualarda urg'ochi tualarga nisbatan eritrotsitlar $0,2-0,5 \text{ mln/mm}^3$ ga yuqori, leykotsitlar esa $0,2-0,3 \text{ ming/mm}^3$ gemoglobin miqdori $0,3 \text{ g, \%}$ ga kam ekanligi kuzatildi.

Natijalar va ularning tahlili. Tualarning fiziologik ko'rsatkichlari bu asosan, ularning sog'ligidan dalolat beruvchi asosiy ko'rsatkichlar bo'lib, ular me'yor darajasini nazarot qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tana harorati, yurak urishi va nafas olish tezligi bu ko'rsatkichlar hayvonlarning sog'lom holatini saqlashda muhim ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Ikki o'rkachli tualarning yoshi va jinsi kesimida tana harorati, yurak urishi va nafas olish tezligini aniqlash bo'yicha olib borgan tadqiqot ishimizning natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, bo'taloqlarning jinsi kesimida tana harorati ko'rsatkichlarida farqlanishlar kuzatiladi. Yangi tug'ilagan davrida tana harorati erkak bo'taloqlarda $37,9^{\circ}\text{C}$ bo'lgan bo'lsa, urg'ochi tengqurlarida esa $-37,6^{\circ}\text{C}$ bo'lgan. Jinslar orasida farqlar ($0,3^{\circ}\text{C}$) kuzatilmadi.

1-jadval

Tuyalar fiziologik ko'rsatkichlarining yoshi va jinsiga bog'liqligi, n=5

Tuyalar yoshi	Jinsi	Fiziologik ko'rsatkichlari		
		Tana harorati, $^{\circ}\text{C}$	Yurak urishi, min	Nafas olishi min
Tug'ilgan davrda	♂	37,9	45,3	13,3
	♀	37,6	44,8	12,7
6 oylik davrda	♂	37,5	43,7	12,3

18 oylik	♀	37,4	42,6	11,8
	♂	37,1	41,7	10,9
30 oylik	♀	37,0	41,8	10,7
	♂	36,8	40,3	9,8
42 oylik	♀	37,0	39,8	9,6
	♂	36,3	39,9	8,7
	♀	36,1	39,5	8,5

Yurak urishi ko'rsatkichlari bo'yicha bo'taloqlarning yoshi dinamikasida farqlanishlar kuzatilib, yangi tug'ilgan erkak bo'taloqlarda yurak urishi, minutiga 45,3 marta bo'lgan bo'lsa, 42 oylik davriga kelib bu ko'rsatkich 39,9 ni tashkil qildi. Shunga mos ravishda urg'ochi tengqurlarida 44,8 va 39,5 ga teng bo'ldi.

Bizning fikrimizcha, bu fiziologik ko'rsatkichlar yil fasllari davomida o'zgarib turishi ko'pchilik fiziologlar tomonidan aytib o'tilgan. Bizning tadqiqot ishimiz natijalarida keltirilgan yillar fasli bo'yicha fiziologik ko'rsatkichlar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

**Tuyalar fiziologik ko'rsatkichlarining yil fasllari bo'yicha farqlanishi
(42 oylik davrida, n=5)**


№	Yil mavsumi	Fiziologik ko'rsatkichlari		
		Tana harorati, °C	Yurak urishi, min	Nafas olishi, min
1	Bahor	37,9	39,9	10,4
2	Yoz	38,3	41,6	10,9
3	Kuz	37,6	39,4	9,6
4	Qish	36,4	38,7	8,9
5	O'rtacha yil bo'yicha	37,5	39,9	9,9

2-jadval ma'lumotlari tahlili shuni tasdiqlaydiki, yil fasllari bo'yicha 42 oylik davrida (n=5) farqlanishlarni kuzatish mumkin.


Tana harorati, yurak urishi, nafas olish tezligi (38,3°C, 41,6 min va 10,9 min) qish oylariga nisbatan yuqori (37,5°C, 39,9 min va 9,9 min) bo'lishi kuzatildi. Xulosa qilib aytsak, tashqi muhit haroratida 0,8°C ga, yurak urishi esa 2,5 minutga, nafas olish tezligi esa, 1,0 minutga tezlashishi kuzatildi.

Chorvachilikda qon tarkibini o'rganish, fiziologik jarayonlarni chuqur bilish, bu hayvonlarning sog'lomligini ta'minlaydi va ularning mahsuldorligining oshishiga zamin yaratadi.

Bizning tadqiqot ishlarimizda ikki o'rkachli bo'taloqlarning yoshi dinamikasida qonining morfologik tarkibini aniqlash natijalari quyidagi 1 va 2 rasmlarda o'z aksini topgan.



1-rasm. Urg'ochi tuyalarda qon tarkibi



2-rasm. Erkak tuyalarda qon tarkibi

1 va 2 rasmlar ma'lumotlari tahlili shundan dalolat beradiki, tuyalar yoshi kesimida qonning morfologik tarkibi yoshi kesimida deyarli farq kuzatilmadi. Yangi tug'ilgan bo'taloqlar qon tarkibida eritrotsitlar miqdori 13,5 mln/mm³ bo'lgan bo'lsa, bu ko'satkich 42 oylik davrida 11,4 mln/mm³ ga teng bo'lgan. Bunday ko'rsatkichlar leykotsitlarda va gemoglobin miqdorida ham kuzatish mumkin. Yangi tug'ilgan bo'taloqlar qon tarkibidagi leykotsitlar va gemoglobin 42 oylik davrida shunga mos ravishda 10,8; 9,6 ga va gemoglobin miqdori esa, 13,1 va 11,2 ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Bunday ko'rsatkichlar jinsi kesimida ham kuzatiladi, ya'ni erkak tuyalarda urg'ochi tuyalarga nisbatan yuqori eritrotsitlar 0,2-0,5 mln/mm³ ga, leykotsitlar esa, 0,2-0,3 ming/mm³ va gemoglobin miqdori 0,3 gr % ga kam ekanligi kuzatildi.

Hulosa: Tuyalarning seleksion potensialini oshirishda ularning yoshi, jinsi, konstitutsiyaviy tiplari, mahsuldorligining yaylov tiplariga bog'liqligini aniqlash va ularni oziqlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosan tuyachilik bilan respublikamizning shimoliy hududlari bo'lgan Ustyurt va Qizilqum xududlarida shug'ullanadi. Bugungi kunda respublikada barcha toifadagi xo'jaliklarda jami bir va ikki o'rkachli tuyalar soni 4859 dan ziyodroqdir. Tuyalarning biologik imkoniyatlarini va mahsuldorligini oshirishda ularning irsiy imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish, mahsuldor naslli liniyalar yaratish, tuyalarning mahsuldorligini oshirish va ularni oziqlantirishning samarali usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Авдеева К. Ф. Некоторые морфологические и биохимические показатели крови одnogорбого верблюда. /К.Ф Авдеева, В.Н Третьяко, М.Н Синицина //Тр. Туркм. СХИ.1977. Б 61-67

2. Алиханов О. Морфологические показатели крови молодняка гибридных верблюдов «Қоспақ» в условиях юга Казахстана. //В кн. современное соч. Арилов А.И. Хозяйственно-биологические особенности калмыцких бактрианов./ А.И Арилов, А.К.Натыров// Коневодство и конный спорт. №2. 2002. С 12-15.

3. Дюсембин Х.Д, Рахимбердиев С.А. Некоторые вопросы физиологии молокообразования у верблюдицы. // Сб. научных трудов ин-та физиологии АН КазССР. т. 21 – Алма-ата, 1975.С 122-127.

4. Дюсембин Х. Д. Физиология лактации верблюдов. // Тезисы докладов 2-ой Международной конференции. – Алма-ата, 2000. 33 С.

5. Баймуканов А. Морфо-функциональные особенности вымени у верблюдиц.: Автореф. дис. канд. биологических наук. – А-А.: 1972. 19 С.

6. Баймуканов А. Б. Морфофункциональные особенности вымени верблюдиц. // - Алма-ата, 1995. 103 с.

7. Арилов А.И. Хозяйственно-биологические особенности калмыцких бактрианов./ А.И Арилов, А.К.Натыров// Коневодство и конный спорт. №2. 2002.С.12-15.

VI-SEKCIYA. AWIL XOJALIGINDA SANLI EKONOMIKANIŇ ORNI, AGROBIZNESTI RAWAJLANDIRIWDIŇ HUQUQIY TIYKARLARI

UDK: 332.6 (631.164)

AQLLI QISHLOQ XO‘JALIGINI SHAKLLANTIRISH SHAROITIDACHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

*Aliyeva Gozzal Aliyevna,
Muratbaeva Zamira Sharapatdinovna
Qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti*

Annotatsiya. Maqolada chorvachilik sohasida aqlli qishloq xo‘jaligini shakllantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalari asosida global aqlli qishloq xo‘jaligi bozori shakllantirish, aqlli chorvachilikni shakllantirish va sut yetishtirish samaradorligini oshirishga ta‘sir qiluvchi omillar tasnifi ishlab chiqilgan va miqdoriy usullar asosida ularning ta‘siri baholangan va aqlli qishloq xo‘jaligini shakllantirish sharoitida chorvachilikni rivojlantirish istiqbollarini asoslash va soha samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab bo‘yicha tadqiq etilib xulosalar keltirilgan.

Kalit sozlar. Ayollar tadbirkorligi,. Aqlli qishloq, chorvachilik, samaradorlik, bozori segmenti, intensiv, ekstensiv, raqamlashtirish. global aqlli qishloq xo‘jaligi.

Kirish: Yangi O‘zbekistonni barpo etishda qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish, tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish, sifatli agroxizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish kabi masalalarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 32-maqsadida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini 1,5-2 barobarga oshirish va ozuqa bazasini mustahkamlash kabi vazifalar belgilab berilgan. Bu borada sohani samarali rivojlantirish yo‘nalishlari va mahsulot ishlab chiqarishning prognoz parametrlarini asoslash hamda sohani samarali boshqarishda raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlarni keng ko‘lamda tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son

“2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2022-yil 7-iyundagi PQ-237-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 3-iyuldagi PQ-4776-son “Qoraqalpog‘iston Respublikasida chorvachilik tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 8-fevraldagi PQ-121-son “Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy

huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Aqlli qishloq xojaligini shakllantirish hamda chorvachilikni rivojlantirish borasida turli xorijlik olimlardan Alessandro Scandurra, Chiara Ruffino, William Fillipe Rocha da Silva, Giulia Antonucci, Alessandro Castiello D'Antonio, Stefano Picchio, Morena Pietraccini, Angelo Marguglio, Emiliano Coraretti, H.Bruggeman, M.Danse, P.G.H.Engel[2], va boshqalarning ilmiy ishlari hamda asarlarida yoritilgan.

Mamlakatimizda aqlli qishloq xo'jaligi va chorvachilikni rivojlantirish borasida olimlardan S.S.G'ulomov, T.X.Farmonov, U.P.Umurzakov, J.K.Sauxanov, O.Murtazayev, Q.Choriev, B.Berkinov, I.S.Abdullaev, B.R.Ruzmetov, N.N.To'rayeva, M.O.Yadgorova, O'.E.Xudayberdiyev, B.S.Ilashov, K.Ubaydullaev [1] kabi olimlarning ilmiy ishlarida aqlli qishloq xo'jaligi va uning elementlari, chorvachilik va uni rivojlantirish to'g'risidagi tushunchalar va ularning shakllanish shart-sharoitlari o'rganilgan.

Natijalar. Hozirgi kunda global miqyosda inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Qishloq xo'jaligi ham bundan mustasno emas. Shu bois, mamlakatimizda ham so'nggi yillarda tarmoqda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilyapti. Tahlillarga ko'ra, qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish mavsumi davomida (qisqa muddatlarda) 40 tadan ortiq turli tashkiliy qarorlarni qabul qilishiga to'g'ri keladi. Uning aksariyati raqamlashtirish obyekti hisoblanib, ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, ekish, yetishtirish, saqlash va tashishda hosilning 33 foizi yo'qotilmoqda. Shunday bir sharoitda mavjud yer, suv, moddiy-texnika va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlovchi aqlli qishloq xo'jaligi texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu asosda, Qoraqalpog'iston Respublikasida aqlli qishloq xo'jaligini (Smart Agriculture) shakllantirish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi (1-rasm).

Aqlli qishloq xo'jaligi tushunchasiga o'z tarifimizni ishlab chiqdik. Unga ko'ra, Aqlli qishloq xo'jaligi (Smart Agriculture) yoki Qishloq xo'jaligi 4.0 (Agriculture 4.0) deb, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonlarini raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida avtomatik tahlil qilish, resurslardan foydalanishni simsiz aloqa tarmoqlari orqali agrar tarmoqqa oid robotlar va dron texnologiyalaridan foydalangan holda boshqarish va ishlov berish natijasida insonning qishloq xo'jaligiga aralashuvini kamaytirish, ish yukini kamaytirish, hosildorlikni oshirish, tuproq va ekinlarda kimyoviy vositalaridan foydalanishni optimallashtirish orqali qishloq xo'jaligi mahsuloti sifatini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga sabab bo'luvchi yagona tizimga aytiladi.

Aqlli qishloq xo'jaligini tashkil etilishining fermer xo'jaliklari uchun ahamiyati juda yuqori bo'lib, bunda simsiz sensorli aloqa tarmoqlaridan tashkil topgan buyumlar interneti va bulutli texnologiyalarni qo'llab-quvvatlaydigan tizimlar asosida fermerlar o'z xo'jaliklari faoliyatini monitoring qilish va nazorat qilish uchun joy va vaqtdan qat'i nazar, xo'jaliklarga masofadan ulanishlari mumkin.

Yuqori aniqlikdagi giperspektral kameralar bilan jihozlangan dronlar qishloq xo‘jaligi maydonlarida turli xil manbalardan ma’lumotlarni to‘plash uchun ishlatilishi mumkin va agrar tarmoq robotlari fermer xo‘jaliklarida takrorlanadigan vazifalarni bajarish uchun ishlatilishi mumkin. To‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish jarayonida yordam berish uchun kompyuter ilovalaridan foydalanish mumkin.




1-rasm. Aqlli qishloq xo‘jaligi (Smart Agriculture) yoki Qishloq xo‘jaligi 4.0 (Agriculture 4.0)ning tarkibiy qismlari[3]

Chorvachilik sohasida aqlli qishloq xo‘jaligini boshqarishning yanada samarali va barqaror usullardan foydalanishni anglatadi. Bu amaliyotlar dunyo bo‘ylab ko‘plab (xorijiy) mamlakatlar tomonidan qabul qilingan va amalga oshirilgan. Tadqiqotlar davomida ularga doir tajribalar ko‘rib chiqildi.

Bundan tashqari, «Aqlli qishloq xo‘jaligi bozori o‘sishi kelgusi bir necha yil ichida 9,5 milliard dollarni tashkil qilishi kutilmoqda, bu 2025-yilga kelib Osiyoda 15 foizdan ko‘proq va Shimoliy Amerikada 11 foizga o‘sadi. 600 million dollardan ortiq bo‘lgan Janubiy Amerika bozori Argentina, Meksika va Braziliyada foizdan ortiq o‘shishni kutiladi. Yangi texnologiyalar va aqlli qishloq xo‘jaligi Afrika qit‘asiga ham foyda keltirmoqda, bu yerda dunyodagi ekin maydonlarining to‘rtidan bir qismidan ko‘prog‘i joylashgan va qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotning 15 foizini tashkil qiladi. Qit‘ada qishloq xo‘jaligi mahsuloti yiliga taxminan 100 milliard dollar qiymatga ega. Misol uchun, Efiopiya, Keniya va Ruanda iqlim o‘zgarishi va aholi sonining ko‘payishi natijasida yuzaga kelgan muammolarni hal qilish va oldini olish uchun qishloq xo‘jaligi amaliyotini innovatsiya qiladigan texnologik vositalarni o‘zlashtirmoqda»[4].

Global aqlli qishloq xo‘jaligi bozori 2022-yilda 15,06 milliard dollarga baholandi va 2022 – 2027 yillarda Global aqlli qishloq xo‘jaligi bozori 16,99 foizni tashkil etgandan so‘ng, 2027-yilda 33,0 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.



2-rasm. Global aqlli qishloq xo'jaligi bozori segmentatsiyasi turkumlanishi

Global aqlli qishloq xo'jaligi bozorining o'sishi axborot texnologiyalari va sun'iy aqldan foydalanishning ko'payishi, qishloq xo'jaligi operatsiyalarini raqamlashtirish, butun dunyo bo'ylab ishlab chiqarishni oshirish uchun ilg'or texnologiyalarga qaramlikning ortishi bilan ta'minlanishi kutilmoqda[5].

Global aqlli qishloq xo'jaligi bozoridagi talabning oshishi undagi bozor segmentatsiyasining ham turli-tumanligini keltirib chiqarmoqda. Tadqiqotlar davomida global aqlli qishloq xo'jaligi bozori segmentatsiyasining turkumlanishi o'rganildi (2-rasmga qarang).

Fikrimizcha, global aqlli qishloq xo'jaligi bozori segmentatsiyasining turkumlanishi quyidagicha ko'rinishga ega:

1-Segment - Texnologiyalardan foydalanish bo'yicha: mukammal qishloq xo'jaligi, chorvachilik monitoringi va boshqaruvi, akvakultura va boshqalar;

2-Segment - Mahsulot turi bo'yicha: texnologiyalar – uskunalar, dasturiy ta'minot;

3-segment - Mintaqalar bo'yicha:

- Shimoliy Amerika - AQSh, Kanada va Meksika;
- Yevropa – Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Niderlandiya, Gretsiya, Ukraina, Belgiya, Shveysariya va Yevropaning qolgan qismi;
- Xitoy;
- Buyuk Britaniya;
- Osiyo-Tinch okeani - Hindiston, Yaponiya, Avstraliya va Yangi Zelandiya, Tayland, Janubiy Koreya va Osiyo-Tinch okeanining qolgan qismi;
- Yaqin Sharq va Afrika - Isroil, Janubiy Afrika, Turkiya va Yaqin Sharq va Afrikaning qolgan qismi;
- Janubiy Amerika - Braziliya, Janubiy Amerikaning qolgan qismi.

Shimoliy Amerika 2021-yilda aqlli qishloq xo'jaligi bozorida hukmronlik qildi va prognoz davrida o'z hukmronligini saqlab qolishi kutilmoqda. Bozordagi o'sish, asosan, tadqiqot va ishlanmalarning ko'payishi va raqamli texnologiyalarning keng miqyosda joriy etilishi bilan bog'liq

Umumiy qishloq xo'jaligi siyosati (CAP) Yevropa Ittifoqi tashkil topganidan beri yig'ilib kelgan qoidalar to'plamini ifodalaydi va unga a'zo davlatlarning adolatli va barqaror rivojlanishi uchun qishloq xo'jaligi tarmog'ini hal qiluvchi rolini tan oladi. CAP fermerlarga Yevropa uchun yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda yordam berish, uning xavfsizligi va sifatini arzon narxlarda kafolatlashga qaratilgan. U barcha uchun adolatli turmush darajasini, tarmoqda narxlarning haddan tashqari o'zgaruvchanligi, bozor inqirozlari hamda oziq-ovqat ta'minoti zanjiridagi nomutanosibliklardan himoya qilishni ta'minlashga qaratilgan. Shuning uchun, Yevropa Ittifoqi hududida qishloq xo'jaligining farovonligini ta'minlash va oziq-ovqat sanoatida ish o'rinlarini yaratish, shuningdek qo'llab-quvvatlash maqsadida fermer xo'jaliklarini modernizatsiya qilish uchun sarmoya kiritish katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, atrof-muhit, hayvonlar farovonligi va biologik xilma-xillikni himoya qilish va tabiiy resurslardan barqaror foydalanish orqali iqlim o'zgarishini yumshatish belgilangan

